ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

4-son
(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

		TAHRIRIYAT
	4	Bolalar va ayollar haq-huquqlarini kafolatlash, gender tenglikni ta'minlash muammolarini bartaraf etish – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
B. Saidov G'. Shoumarov	6	O'zbekistonda ayollar hamda bolalarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-psixologik hamda huquqiy tamoyillari
O. Musurmonova	13	Inson qadrini ulug'lash – farovon mahalla poydevori
S. Maxmudov	17	O'qituvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash: kompetensiyalarni rivojlantirish muammosiga tizimli yondashuv
X. Axmadaliyeva	23	Ingliz tili darslarida akademik litsey o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari
R. Yarmatov	28	Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligida kompetentlik modelining ahamiyati
D. Maxkamov	31	Oliy ta'lim muassasalari talabalarida tarbiya ishlarini tashkil etishda tyutor mahorati
A. Avliyoqulov	35	Umumta'lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik asoslari
F. Daliyev	40	Siyosiy manipulyatsiya borasidagi ilmiy nazariyalarning shakllanish jarayonlari
M. Umaraliyeva	45	Nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiylashtirishda ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
S. Bulatov	48	Zahiriddin Muhammad Bobur portretini falsafiy va psixologik tahlilining mantiqiy yechimi
Z. Ro'ziyeva	54	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihalashtirish-tadqiqotchilik ko'nikmalarini aniqlash
Z. Avezmurotova	58	Yupiter sayyorasining ro'para turishi va sirtmoqsimon harakatini vizual kuzatish uslubi
A. Sayfullayev	62	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish faoliyati metodikasi
		TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
E. Murodov	66	Bitiruvchi o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarning milliy va xalqaro standartlari
Z. Amirova	74	Kursantlarning harbiy-texnik tafakkurini rivojlantirish darajasi
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
S. Yarova	77	Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirish va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
Y. Ergashev	82	Jismoniy tarbiya va sport ta'limiga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilishning ijtimoiy-pedagogik asoslari

M. Abdullayev	86	Yengil atletika sport to‘garaklarida mashg‘ulot olib borayotgan 10-sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasi
Q. Meliyev	90	Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tizimli yondashuv
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
M. Shodiyeva	93	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning akmetexnologiyalari va uni qo‘llash metodikasi
		MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI
O. Sobirova	96	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
N. Abdullayeva	99	Maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda klaster texnologiyalarning roli
N. Mo‘minova	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiya
D. Amanova	105	Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish
Z. Jumanova	109	Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini shakllantirishda tarbiyachilarning vazifalari
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
O‘. Tolipov	112	Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni va roli
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
К. Неусыпин, М. Селезнева, Ш. Эргашев, А. Каххаров	116	Реализация инновационной опережающей образовательной концепции – основа социально-экономического развития
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
М. Хамдамова	122	Совершенствование методики преподавания предмета “анатомия и физиология человека” на основе мультимедийных технологий
Т. Орлова	127	Результаты педагогического эксперимента в педагогических вузах (на примере решений студентов астрономических задач)
		МЕНЕДЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ
Я. Исмандияров	135	Педагогические условия эффективности перспективного менеджмента в педагогическом высшем образовательном учреждении
		ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И ПЕРЕПОДГОТОВКА
Д. Мустафоева	139	Организация повышения профессиональной компетентности педагогических кадров в компетентностно-ориентированном образовании

BOLALAR VA AYOLLAR HAQ-HUQUQLARINI KAFOLATLASH, GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI

(Ilmiy-pedagogik konsepsiya)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning zamirida xalq manfaatlari yotadi. Davlatimizda inson huquqlarini ta'minlash borasida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu mavzu dolzarbligidan kelib chiqib, mamlakatimizda bolalar manfaatlarini himoya qilishda, ularning jahon andozalariga muvofiq bilim olishida, hayotda va jamiyatda o'z o'rnini topishida juda keng ishlar olib borilmoqda.

Har qanday muammoni ijobiy hal qilishni istasak, avvalo, ushbu muammoni keltirib chiqarayotgan omillarni, shart-sharoitlarni aniqlashimiz lozim bo'ladi. Bu esa, tegishli mavzularda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishni, ularning natijalarini tahlil qilish asosida dolzarb xulosa va takliflarni ishlab chiqishni talab etadi. Ya'ni, azaldan bolajon bo'lib kelgan jamiyatimizda nega bolalar himoyasi zarurat darajasiga ko'tarildi? Qanday omillar va shart-sharoitlar bolalarning har tomonlama kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin? Shunga o'xshash qator savollarga javob topish vaziyatga to'g'ri baho berishga yordam beradi. Bu borada avvalambor, e'tiborni talab qiladigan muammolar dunyoda jadal rivojlanib borayotgan globallashuv sharoitida yangi to'qnashuv va tahdid turlarining yuzaga kelayotgani bilan bog'liq. Global axborot maydonida gibrid xarakterga ega xavf-xatarlarning kuchayayotgani, biologik va kimyoviy qurollardan, shu jumladan, bolalar ishtirokida foydalanish faktlarining ko'payayotgani shunday muammolar jumlasidan deyish mumkin. Afsuski, bunda aksariyat hollarda bolalar to'qnashuvlarning ishtirokchisiga, ta'bir joiz bo'lsa, nishoniga aylanib qolmoqda.

Tan olish kerakki, hozirgi kunda maktabgacha ta'limda, maktablarda va oliy ta'lim tizimida huquqiy, tashkiliy va intellektual jihatdan ijobiy o'zgarishlar qilinayotgan bo'lsada, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolar, korrupsiyaviy holatlarning uchrab turishi, raqobatbardosh ta'lim standartlarini joriy qilishdagi yo'qotilgan yillar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib turibdi.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarni bartaraf etishda eng asosiy tayanchlarimiz Prezidentimizning quyidagi fikrlarida aniq va ravshan ko'rsatib berilgan: ''Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir''.

Ayni vaqtda O'zbekistonda gender tengligi masalasi ham davlat siyosatining muhim jihatini tashkil etadi. Xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotida gender roli va normasi ustuvorligining gender munosabatlariga ta'siri jiddiy sezilib turadi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini

oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida amalga oshiriladigan keng ko‘lamli ishlar samarali amalga oshirilmoqda. Bir paytlari xorijiy mamlakatlarining inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash borasidagi tajribasini o‘rgangan bo‘lsak, bugunga kelib esa boshqalar bizdan ushbu masalalar bo‘yicha andoza olayapti. Qisqa qilib aytganda, mazkur yo‘nalishda ham O‘zbekiston o‘z modelini yaratdi. Gender tengligiga amal qilishni tushuntirishda jins va gender o‘rtasidagi chegarani aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agar jins erkaklar va ayollar o‘rtasidagi jismoniy tuzilishga bog‘liq farqga taalluqli bo‘lsa, unda gender tushunchasi ularning psixologik, ijtimoiy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi. Jins va genderning chegaralanishi fundamental hisoblanadi, chunki ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ko‘pgina farqlar tabiatan biologik bo‘lmagan sabablar tufayli yuzaga keladi. Insonlar jinsi bizning ularning qabul qilishimizga bog‘liq. Gender tengligi ayol va erkak o‘rtasidagi munosabatlardagi farqlarni, o‘ziga xosliklarni o‘rganish bilan cheklanmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot uchun ayol va erkak o‘rtasidagi tafovutlar emas, balki ularning bir ijtimoiy mavjudot sifatida yashashini asoslaydigan, ayol va erkak o‘rtasidagi yaqinlik, uyg‘unlikni mustahkamlaydigan nazariyalarni o‘rganish zarur.

Gender tenglikni ta’minlashda notenglikni anglash, notenglikni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish, gender tenglik ideologiyasini yaratish, gender tenglik ideallarini shakllantirish kabi murakkab bosqichlarni bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ular ichida eng murakkabi gender notenglikni anglashdir. Ongning, an’anaviy qarashlarning ziddiyatli o‘zgarish xususiyati gender notenglikni tez anglashga imkon bermaydi. Anglanmagan voqelikni esa hayotga keng joriy etish qiyindir. Shuning uchun eng avvalo, ayol va erkakni inson sifatida e’tirof etuvchi gumanistik qarashlarni shakllantirish darkor. Jamiyat gumanistik qadriyatlarni taraqqiyot sharti qilib tanlamas ekan egalitar g‘oyalar qog‘ozlarda qolib ketaveradi.

Endi, gender ta’limni tadqiq etishni jadallashtirish va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan tushunchalarga to‘xtalib o‘tsak.

‘‘Gender pedagogikasi’’ – bu bolalarning maktabda o‘zlarini qulay his qilishlari va ijtimoiylashuvlari muammolarini yengishlariga yordam berishga qaratilgan yondashuvlar yig‘indisi.

‘‘Gender pedagogikasi’’ning asosiy maqsadi – gender stereotiplarini yumshatish yoki butunlay yengishdir ya’ni, shaxsning shaxsiy moyilliklarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga yo‘naltirilgan xulq-atvor shakllari va xarakter xususiyatlarini shakllantirish.

Ta’limda gender yondashuv – shaxsni ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilganligini o‘rganish va tadqiq etish. Ta’limda gender yondashuvini amalga oshirish deganda, bolaning shaxsiyati, individualligidan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Shunday qilib, ta’limda gender yondashuvining asosiy g‘oyasi – ta’lim-tarbiya jarayonida o‘g‘il va qizlar rivojlanishiga ta’sir etadigan barcha omillari hamda o‘ziga xos xususiyatlarni (ta’lim jarayoni mazmuni, o‘qitish texnologiyalari, ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, fanlar majmui va b.) e’tiborga olishdir.

Baxtiyor SAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri
G'ayrat SHOUMAROV,
psixologiya fanlari doktori, professor

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR HAMDA BOLALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HAMDA HUQUQIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada ayollar va bolalar huquqlari kafolatlari bo'yicha O'zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. O'zbekiston Kontitutsiyasida va bir qator qonun hujjatlarida ayollar va bolalar huquqlari himoyasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Huquq, gender tenglik, konvensiya, huquqiy tamoyillar, ratifikatsiya, ayollar mavqei, bolalar huquqi.

В статье проводится сравнительный анализ опыта Узбекистана по обеспечению прав женщин и детей. Подробно раскрываются вопросы защиты прав женщин и детей в Конституции и в ряде законодательных актов Узбекистана, приоритетные направления защиты прав женщин и детей в государственной политике.

Ключевые слова. Право, гендерное равенство, конвенция, правовые принципы, ратификация, положение женщин, права детей.

The article provides a comparative analysis of Uzbekistan's experience in ensuring the rights of women and children. The issues of protecting the rights of women and children in the Constitution and a number of legislative acts of Uzbekistan, priority areas for protecting the rights of women and children in state policy are disclosed in detail.

Key words. Law, gender equality, convention, legal principles, ratification, status of women, children's rights.

Taraqqiy etgan davlatlarning qay biriga qaramaylik, ularda ayollar va bolalar manfaatlari, huquq va erkinliklari, jamiyatdagi tenglik tamoyillariga alohida e'tibor berilishini ko'ramiz. Buni biz ta'lim, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash tizimlari va o'sha davlatlarda chiqarilayotgan qonunlar misolida tahlil qilishimiz mumkin. Albatta, davlatning kelajagi uchun ayollar va bolalarning sog'lig'i, jamiyatda o'z o'rnini topib borishi juda muhim. Zero, ta'lim-tarbiya sohasiga yetarli e'tibor qaratilmagan, bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlik, tahqirlash, ularning shaxs sifatida shakllanishi, o'z imkoniyat va qobiliyatlarini namoyon etishlariga to'sqinlik qilib kelayotgan har qanday davlatda taraqqiyotdan ortda qolish, adolatsiz jamiyatda yashayotgan insonlarda esa umidsizlik va tushkun kayfiyatni ko'ramiz.

Shaxs jamiyatda o'z o'rnini topishi, kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi, albatta, uning ruhiy holati bilan ham bog'liq. Jismoniy jihatdan ojiz sanalgan ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari jamiyatimizda uchrab turishi esa hech birimizga sir emas. Adolatsizlik, zo'ravonlik va turli tazyiqlarga uchragan insonda o'ziga va kelajagiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, tushkunlik hamda hayotga

bo‘lgan qiziqishlarining sustlashishi kabi holatlarni ko‘ramiz. Bu borada bolalarga nisbatan ishlatiladigan maishiy, ayollarga nisabatan ishlatiladigan oilaviy zo‘ravonliklar, xotin-qizlarning ta’lim olishi, davlat tashkilotlarida ishlashi yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanishida turli tazyiqlar mavjudligi nafaqat ularning, balki davlat va jamiyat kelajagi uchun ham xavf tug‘dirmoqda.

Afsuski, O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Bizning mamlakatimizda maishiy yoki “oilaviy zo‘ravonlik”ga ko‘pincha bir oila muammosi sifatida qaralgan. Odamlar bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo‘ravonlik qurboni sharmandalik va turli gap-so‘zlardan qo‘rqib, jim yurishga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo‘ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo‘rqsa, boshqalari farzandlari va o‘z hayoti uchun xavfsiraydi. Ayniqsa, hatto, eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o‘zini olib qochganda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Oxir-oqibat bu doimiy qo‘rquv, depressiya, o‘z joniga qasd qilish kabi hodisalar bilan tugaydi.

Bugungi kunda ayollarga ishlatilayotgan zo‘ravonlik va adolatsizlikning oldini olish maqsadida yurtimizda bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda, xususan, jamiyatni demokratlashtirish davrida xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat hamda ularning hayotiy tajribasi, intellektual salohiyati va imkoniyatlaridan bunyod etilayotgan jamiyat rivoji uchun foydalanish davlatchilik asoslarining liberalligi va ilg‘orligidan dalolat beradi.

Bugun respublikamizda ayolga, oilaga hurmat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, qonunchilik normasining asosiy qoidalari sifatida e’tirof etilyapti. Ushbu normalarda ayolning jamiyatda va oilada tutgan o‘rni, huquq va majburiyatlari sharqona turmush tarzi, oila hayotining ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va huquqiy normalarini inobatga olgan holda belgilab berilgan. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash, oilani mustahkamlash, ayollarni e’zozlash, onalik va bolalikni muhofaza etishdek insoniy burchlarni ado etish borasida bir qator amaliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda.

Zamonning ayolga munosabati masalasida O‘zbekiston tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda aniq, rejalashtirilgan davlat siyosati yuritilayotgani natijasida salmoqli o‘zgarishlar amalga oshirilayotganining shohidi bo‘lamiz. Masalan, O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”[1]gi Qarori hamda 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar Davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va yana ko‘plab normativ hujjatlar orqali mamlakatimizda ayollar masalalari bilan bog‘liq ijobiy islohotlar yangi bosqichda takomillashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5116-son Qaroriga asosan, Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi negizida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida

[1] Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasida “Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik” mavzusidagi nutqi. Xalq so'zi, 2016, 19-oktabr.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo‘limlari tashkil etildi.

Markazlarning asosiy vazifalari tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatish, og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmush-ida zo‘rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlar huquqlarining kafolatlarini ta’minlashga ko‘maklashish va boshqa ko‘plab maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘ligini kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlar tizimli davom ettirilmoqda.

Umuman olganda, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida, birinchidan, O‘zbekiston sharoitida ayollar tafakkurida tolerant tafakkurni shakllantirish, mafkuraviy uyg‘oqlik va sezgirlikni ular ongiga singdirish fuqarolik jamiyatining asoslarini kuchaytirish omillaridan biridir. Nima uchun ayol bag‘rikeng, tafakkuri uyg‘oq, mushohadali, siyosiy jihatdan ongli bo‘lishi lozim? Chunki ayol farzand tarbiyasiga mas’ul shaxs bo‘lib, farzandning tafakkuri shakllanishiga xizmat qiladi. Ana shu tafakkurning to‘g‘ri tanlanishi davlat taraqqiyotiga ta’sir qiladi. Shu bois, bugungi kunda ayol tafakkuri va dunyoqarashi keng, chuqur bilimli bo‘lmog‘i davr talabidir.

Ikkinchidan, bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarning intellektual salohiyati anchagina yuqori bo‘lib, ana shu intellektual boylikdan jamiyat taraqqiyotida samarali foydalanish hamda ayollarni islohotlar, yangi jamiyatning yangilanish jarayonlariga safarbar etish muhim vazifadir.

Har qanday davlat huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo‘yar ekan, eng avvalo, Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga tayanadi. Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta’lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug‘lashimiz, har tomonlama o‘rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo‘lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz zarur.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi. Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida mujassam etilgani bejiz emas. Ana shu tamoyilni amalga oshirish uchun bizda qat’iy siyosiy iroda va yetarli imkoniyatlar mavjud. Buning uchun biz, avvalo, quyidagi muhim vazifalarni hal etishimiz zarurligini ko‘rsatib o‘tdilar. Milliy strategiya doirasida inson huquqlarini o‘qitishning uzluksiz tizimini yaratish, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, kadrlarni qayta tayyorlash markazlarida “Inson huquqlari”, “Bola huquqlari”, “Ayollar huquqlari” maxsus o‘quv kurslarini joriy etishning vaqti-soati keldi, deb o‘ylayman”[2].

O‘zbekiston Respublikasi, mamlakat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish, ularga homiylik ko‘rsatishni bundan buyon ham kafolatlaydi va barcha choralarni ko‘radi.

Uchinchidan, xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida huquqiy tenglikni mustahkamlashga mamlakatimizda jiddiy e’tibor berilmoqda. Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘limlari butunlay yangitdan tashkil etilgani, ularga qo‘shimcha vakolat va imkoniyatlar berilib, to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilgani bu yo‘lda yangi qadam bo‘ldi.

Hech shubhasiz, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida hal etishda, boshqaruv samarasini oshirishda opa-singillarimizning o‘rni va ta’siri juda katta. Shuning uchun biz xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish, ularga turli mas’ul vazifalarni ishonib topshirishga qaratilgan siyosatni yanada faol davom ettiramiz.

2020-yildan bu jabhada mutlaqo yangi tizimlar ish boshladi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi, 527 ming fuqaroning bandligi ta’minlandi. Bog‘chalar soni 14 mingdan oshdi, yangi maktablar qurildi, yangi oliy ta’lim muassasalari ochildi. Ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o‘quv yurtlariga alohida kvota asosida qabul qilindi.

Joylarda Prezident va ijod maktablari faoliyat boshladi. Ularda tahsil olayotgan iqtidorli yigit-qizlarimiz bugun dunyoga o‘z so‘zini aytmoqda.

Bosh Qomusimiz muqaddimasida O‘zbekiston xalqi nomidan o‘zining muxtor vakillari siymosida fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga alohida urg‘u berilgan.

Prezidentimizning Murojaatnomasida uzoq yillardan buyon yopiq mavzu bo‘lib kelgan kambag‘allikni qisqartirish muammosini hal etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingan edi. Bu muammo pandemiya sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etgani sir emas. Boisi, pandemiya davrida ayrim oilalar daromad manbaini yo‘qotdi. Karantin cheklovlari ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning birlamchi ehtiyojlarini qondirish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Ish o‘rinlarining vaqtinchalik qisqartirilishi boshqa bir qator davlatlarda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham birmuncha qiynalib yashab kelayotgan ijtimoiy ko‘makka muhtoj aholining turmush darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini qo‘llab-quvvatlash borasida uyma-uy yurib aholi muammolarini o‘rganish tizimi yo‘lga qo‘yilishi natijasida 2,5 milliondan ziyod a’zosi bo‘lgan 590 mingdan ortiq oilani qo‘llab-quvvatlash uchun 840 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Bu borada, yangi tizimning asosiy maqsadi har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta’minlaydigan mexanizm, ta’bir joiz bo‘lsa, jamiyatning birorta a’zosini e’tiborsiz qoldirmaslikka qaratilgan.

[2] Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Yangi O‘zbekiston”, 2019-yil 8-dekabr.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 13-oktabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, fuqarolarning ertaga emas, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashida navbatdagi muhim qadam bo‘ldi. Unga muvofiq, 2020-yil 15-noyabrdan boshlab yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tartibi amalga kiritiladi. Bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekistonda inson va uning manfaatlari oliy qadriyat tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar Asosiy qonunimiz bilan belgilab berilgan shaxs – jamiyat – davlatga oid normalarga hayotiy kuch bag‘ishlamoqda.

Bolalar – maishiy zo‘ravonlikda alohida mavzu. Ular zo‘ravonlikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurboni bo‘lishi bilan birga, onaga nisbatan qo‘llanayotgan xatti-harakatlarning ma’lum qismini o‘zlashtirishi xavfi ham bor. Bunday oilada bolaning reallikni qabul qilishi buziladi, zero, u uchun haqorat va kaltaklar asta-sekin normal holatga aylanib boradi. Katta bo‘lgach uning o‘zi ham ana shunday zo‘ravonlik xatti-harakatlarini qo‘llashi mumkin yoki shunchaki bunday “yuk”ni ko‘tara olmaydi va bu ko‘pincha o‘z joniga qasd qilish bilan tugaydi.

Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bola yoki o‘spirin qo‘rquv, tartibsizlik, uyat, kuchsizlikni his qiladi. Ko‘pincha o‘zini ayblaydi va sodir bo‘lgan voqeaning sababchisi va sherigi sifatida qabul qiladi. Ba’zan bunga u o‘z xatti-harakati yoki oiladagi mavqeini sabab deb biladi. Zo‘ravonlik sabab qay holatga tushish bolaning yoshiga bog‘liq:

1. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar – qo‘rquv, aralash tuyg‘ular, tajovuz, ishtahani yo‘qotish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar – xavotirlik, tortinchoqlik, aybdorlik va uyat, aralash tuyg‘ular, jirkanish va nochorlik hissi.
3. Kichik maktab o‘quvchilari – o‘quvchining oilaviy rolida noaniqlik, kattalarga nisbatan beparvolik, qo‘rquv, uyat, jirkanish va butun dunyoga nisbatan ishonchsizlik.
4. Yosh o‘spirinlar – depressiya, hissiy bo‘shliq.
5. Yoshi kattalar – jirkanish, uyat, ayb, kattalarga nisbatan hissiyotlarning ikkilanishi, deviant xatti-harakatlar, foydasizlik hissi.

Ba’zida bola e’tibor va mehrga muhtojlik, do‘stlar bilan to‘qnashuvlar yoki oilada paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik haqidagi hikoyalarni o‘ylab topadi.

Ta’riflangan alomatlarni kontekstdan va oila tarixidan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas, ammo, jismoniy zo‘ravonlikni aniq ko‘rsatadigan bir qator diagnostik belgilar mavjud:

- ko‘karishlar, kuyishlar, yaralar;
- siqilish belgilari;
- bolaning o‘ziga bo‘lgan past bahosi;
- uyga qaytishni istamaslik va qo‘rquv;
- hayajon, yig‘lash, qichqiriq, janjallardan qo‘rqish va hokazo.

Bu kabi holatlarning oldini olish borasida jahon hamjamiyati tajribasida bir qator huquqiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar mavjud. Xususan, “Bola huquqlari haqida”gi konvensiya inson huquqlari tarixidagi eng muhim hujjatlardan biridir. 1959-yilda bola huquqlari haqidagi deklaratsiya qabul qilinganidan so‘ng bola huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiya yaratish g‘oyasi paydo bo‘ldi. Biroq uni tayyorlash jarayoni ko‘p vaqtni talab qildi. 1978-yilda loyiha tayyor bo‘lgach, Polsha hukumati uni BMT ning inson huquqlari bo‘yicha komissiyasiga o‘rganib chiqish uchun tavsiya qildi. 1989-

yil 20-noyabrda hujjat BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan qabul qilindi va 1990-yil 2-sentabrdan kuchga kirdi.

O‘zbekiston 1992-yilda mazkur konvensiyaga qo‘shildi. Bola huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun O‘zbekiston xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo‘lida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Amaldagi qonunchilikda bolalarning huquq manfaatlariga, shuningdek, ularning himoyasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Bola huquqlari sohasida qonunchilikning asosini Konstitutsiyamiz tashkil etadi. Unga muvofiq tug‘ilishi bilanoq bolada inson va fuqaroning huquqi va erkinliklari vujudga keladi hamda ular davlat tomonidan kafolatlanadi. Bolaning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amalda bo‘lgan qonunchilik Konstitutsiyamiz normalarini Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga muvofiq holda takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

Bola huquqlari konvensiyasi talablariga muvofiq mustahkamlangan va ularni himoyalash shakllarini takomillashtirgan fuqarolik va oila kodekslarining qabul qilinishi bola huquqlarining himoyasi bo‘yicha qonunchilik rivojiga jiddiy hissa qo‘shdi.

Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya BMTning bolalikni muhofazalash bobidagi eng universal hujjatdir. Hujjatning ichida mustahkamlab qo‘yilgan barcha huquq va manfaatlar O‘zbekistonning “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda qamrab olingan. Ushbu qonuning eng asosiy jihatlaridan biri unda bola huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qariyb barcha qoidalarining jam qilinganidir[3].

Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya rivojlanishning turli bosqichlarida bolalar farovonligi mezonlarini aniqlab beruvchi yagona xalqaro hujjat, shuningdek, unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uning qoidalarini bajarishlari qat’iy belgilangan rasmiy huquqiy dasturidir. Konvensiya umumiy me’yorlarni joriy qilishga qaramay, unda alohida davlatlarning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qirralari aks etgan. Har bir davlat bu me’yorlarning bajarilishiga o‘ziga xos milliy xususiyatlarni nazarda tutish huquqi va imkoniyatiga ega. Ilgari bola g‘amxo‘rlik u himoyaga muhtoj bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilar edi. Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan mutlaqo yangi konsepsiya belgilandi. Unda ta’kidlanishicha, g‘amxo‘rlik va himoya muruvvat masalasi emas, balki huquqdir. Konvensiya kuchga kirishi bilan u bolalar uchun asosiy ijtimoiy va huquqiy mezonlar, tartib va qoidalar qat’iy belgilangan majmuaga aylandi.

Yurtimizda bola huquqlari bo‘yicha 100 dan ziyod me’yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan. Eng muhimi, mamlakatimizda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks huquqiy asoslar yaratildi. Ayniqsa, 2008-yil 8-yanvarda amalga kiritilgan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekistonda bola huquqlariga oid birinchi tarixiy hujjat bo‘ldi. Shuningdek, 2010-yil 30-sentabrda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Ya’ni, ushbu qonun voyaga yetmaganlarning nazoratsizligini va ular o‘rtasida huquqbuzarliklar kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan kompleks huquqiy chora-tadbirlar tizimini belgilab berdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan o‘ta muhim umummilliy davlat dasturlari qabul qilindi. Endilikda ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunday hujjatlar yurtimizda inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish borasida o‘ziga xos huquqiy

[3] Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2020-yil 20-noyabr, 224-son.

taraqqiyotga erishganligining yorqin amaliy ifodasidir. Umuman aytganda, bugungi kunda O‘zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘ziga xos milliy-huquqiy tizim shakllangan. O‘zbekiston aholisining 40 foizini 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi, 64 foizini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar. Shu sababli inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun qulay hamda eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek, ko‘p bolali oilalarni, yetimlarni va oila muhitidan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Aytish joiz bo‘lsa, bola huquqlarining himoyalanishi kelajagimizni muhofaza qilishdir. Demak, bu boradagi har bir olg‘a siljish yurtimiz istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2018.

2. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasida “Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik” mavzusidagi sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi/ /Xalq so‘zi, 2016, 19-oktabr.

3. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi//Xalq so‘zi, 2016-yil 8-dekabr.

4. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: O‘zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Yangi O‘zbekiston”, 2019-yil 8-dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 7-mart.

8. Xurvaliyeva T. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga oid nazariyalar. “Zamonaviy ta’lim” jurnali. 2019-yil 7-son.

9. Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo‘llanma. Baktria press. –T., 2020.

Oynisa MUSURMONOVA,
Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzuridagi “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktor o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

INSON QADRINI ULUG‘LASH – FAROVON MAHALLA POYDEVORI

Annotatsiya

Mamlakat tarixida bo‘lmagan tub burilish amalga oshirilishi yoritilgan. Shuningdek, muallif mahallalardagi oilalarning ma’naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash zamirida jamiyatning ma’naviy takomilligiga erishish maqsadida mahallada va oilada ma’naviy muhitni keng qaror toptirishi bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Inson qadri, mahalla, azaliy qadriyat, ma’naviy muhit, salohiyat, rivojlantirish, ehtiyojmand oilalar.

В статье говорится, что для уважения достоинства людей в микрорайонах, для обеспечения интересов народа произойдет коренной перелом в истории страны. Также автор отмечает необходимость создания духовной среды в общине и семье для дальнейшего развития духовных основ семей по соседству, сохранения и укрепления древних ценностей, достижения духовного развития общества.

Ключевые слова. Человеческое достоинство, махалля, вечные ценности, духовная среда, потенциал, развитие, малообеспеченные семьи.

The article says that in order to respect the dignity of the people in the neighborhoods, to ensure the interests of the people, a radical change in the history of the country will take place. The author also comments on the need to create a spiritual environment in the community and the family in order to further develop the spiritual foundations of families in the neighborhood, to preserve and strengthen the ancient values, to achieve the spiritual development of society.

Key words. Human dignity, mahalla, eternal values, spiritual environment, potential, development, needy families.

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq manfaatlarini himoya qilish, insonlarning qadr-qimmatini oshirish, mahalla institutini takomillashtirish, oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-son qarorlari huquqiy-me’yoriy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekiston xalqiga yangi yil tabrigida 2022-yilni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb taklif etilishi negizida olam-olam ma’no mavjud. Chunki, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Inson qadrini ulug‘lash yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Mahalla tinch bo‘lsa yurt tinch bo‘ladi, mahalla obod bo‘lsa mamlakat obod bo‘ladi”.

Mahalla – fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organi sifatida tarixiy milliy qadriyat hisoblanadi. Mahallalar, guzarlar Sharqda azal-azaldan noyob tuzilma sifatida dunyo xalqlari tomonidan e’tirof etib kelinadi. Jumladan, Sharq ilk Uyg‘onish davri namoyondalari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, IX asr tarixchisi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarlarida qadimdan Movarounnahrda mahallalar, guzarlar mavjudligi ta’kidlanadi.

Har bir davr mahalla tizimining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Mazkur tizim faoliyatining tarixiy taraqqiyot bosqichlari tahlilidan shu narsa ma’lumki, u har bir tuzim rivojini ta’minlovchi asosiy poydevor sanaladi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan so‘ng mahalla va oila tizimini takomillashtirish borasida shiddat bilan rivojlanish bosqichi boshlandi. Shuningdek, mahallalarda inson qadrini e’zozlash, xalq manfaatlarini ta’minlash maqsadida mamlakat tarixida bo‘lmagan tub burilish amalga oshirildi. Jumladan:

– mahalla institutini takomillashtirishning huquqiy poydevori takomillashtirildi. So‘nggi 5 yil mobaynida soha faoliyatiga oid 42 ta qonun hujjati, shu jumladan, 4 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmon va Qarori, Hukumatning 33 ta qarori qabul qilindi, 50 dan ortiq qonunchilik hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi;

– mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolar yig‘inlari ishini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, sohaga malakali, boy hayotiy tajribaga ega va fidoyi kadrlarni jalb etish uchun fuqarolar yig‘ini raisining uchta o‘rinbosari, ikkita maslahatchi va oilalar soni 2 000 oshganda bitta oila va xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis lavozimlari kiritildi hamda fuqarolar yig‘inining ikkita yangi komissiyasi tashkil etildi. Shuningdek, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yangi tizim yaratildi;

– mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolar manfaatlarini ta’minlash, qadr-qimmatini ulug‘lash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo‘g‘in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan, tamoman yangi “Mahallabay”, “Xonadonbay” vertikal tizimi joriy etildi;

– mahallani xalq bilan davlat o‘rtasida ishonchli “ko‘prik” bo‘lishini amalda ta’minlash, oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolar murojaatlar bilan ishlash, aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha “Mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla” tamoyili asosida ijtimoiy hamkorlik tizimi joriy qilindi;

– “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, ehtiyojmand oilalar turmush sharoitlarini yaxshilash uchun ularga uy-joylar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berishning insonparvar mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarni qulay sharoitlarga ega arzon va shinam uy-joy bilan ta’minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish, oilalarda kambag‘alchilikni qisqartirish mexanizmi yaratildi. Buning uchun mamlakatimiz mahallalar tarixida bo‘lmagan.

1. “Temir daftar” joriy etildi. U orqali mahallalardagi ishsiz fuqarolar bandligini ta’minlash; tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashish; tadbirkorlikka jalb qilish; moddiy yordam hamda tibbiy xizmat ko‘rsatish; kambag‘allikning oldini olish.

2. “Ayollar daftari” joriy etildi. “Ayollar daftari”ga 30 yoshdan yuqori 9 toifadagi ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlash, bilim va kasb o‘rganishga, moddiy ta’minotga ehtiyoji bo‘lgan, shuningdek, bandligi ta’minlanishi kerak bo‘lgan, ehtiyojmand barcha xotin-qizlar kiritiladi. Unga “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning bandligini ta’minlash; tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashish; oilaviy va xususiy tadbirkorlikka jalb qilish; hunarmandchilikni tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashda ko‘maklashish, nogironligi bo‘lgan ayollarga moddiy yordam ko‘rsatish; turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash; tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatishning yangi tizimi yaratildi.

3. “Yoshlar daftari” joriy etildi. Unga kiritilgan fuqarolar bo‘yicha: kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarining mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida yillik o‘qish xarajatlarini to‘lab berish, tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

– mahallalardagi oilalarning ma’naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash zamirida jamiyatning ma’naviy takomilligiga erishish maqsadida mahallada va oilada ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo‘lgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turishda mahallaning o‘rni va ahamiyatini oshirishga e’tibor kuchaytirildi;

– jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila instituti, fuqarolik jamiyati institutlarining ta’lim va tarbiya muassasalari bilan o‘zaro hamjihatligi mexanizmini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali, uzviy va uzluksiz amaliy hamkorligi ta’minlandi;

– mahallalardagi notinch va muammoli oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla fuqarolarini vayronkor g‘oyalardan, har xil yot mafkuralardan himoya qilish maqsadida “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida sog‘lom ma’naviy muhit yaratishga asosiy e’tibor qaratildi;

– O‘zbekistonda mahalla va oila institutlarini takomillashtirish, farovonligini ta’minlash maqsadida 2020-yilda Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va uning huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi;

– mahallalarda turli xil nizo, ziddiyat, tazyiq, notinchliklar, oila ajrimlari, erta turmush, erta tug‘riq, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning zararli oqibatlarini oldini olish, keksa avlod ma’naviyati va boy madaniy tarixiy meros vositasida yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalash, milliy an’analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar vositasida mahallalar, oilalar mustahkamligi, iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, tinchligini ta’minlash maqsadida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari tashkil etildi;

– mamlakatimizda qizlarni oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish, ularga davlat tomonidan barcha shart-sharoitlarni yaratish borasida muhim yangiliklarga asos solinmoqda. Jumladan, iqtidorli qizlarning ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, ehtiyojmand oilalar farzandlarini ta’lim tizimida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 baravarga ko‘paytirib, 2 mingga yetkazish belgilab olindi. A’lo baholarga o‘qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etildi;

– mahallalarda yoshlarni, xotin-qizlarni, barcha toifa fuqarolarni ma’nan va jismonan

sog‘lomlashtirish, mehnatdan bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazish maqsadida madaniyat va sport maydonlari, binolar qurilmoqda, turli sport hamda madaniyat turlari bo‘yicha musobaqa, ko‘rik-tanlovlar tashkil etish keng quloch yozmoqda;

– mahallalarni obodonlashtirish, yashil hududga aylantirish, kambag‘alchilikning oldini olish, fuqarolarning hayot tarzini yaxshilash borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi inson manfaatlari, qadr-qimmatini yuksaklikka ko‘tarish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda mahalla tizimida bunday olamshumul islohotlar nima maqsadda amalga oshirilmoqda? Inson qadr-qimmati, hayotidan roziligi qanday mezonlar asosida namoyon bo‘ladi? Mahallada tinch, osoyishta, farovon yashashning mazmun va mohiyati qaysi toifa, qaysi jinsdagi fuqaro bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z hayotidan, davlat va jamiyatdan rozi bo‘lib, kundalik turmush talablariga qat’i rioya etib yashashdan iboratdir.

Shunday qilib, ko‘p millatli O‘zbekistonda mahalla azal-azaldan baxt, mustahkam va farovon hayot maskanidir. Mahallada inson qadr-qimmati, mehr-oqibati, obro‘-e’tibori, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun, unda dunyoga kelib, shakllanib, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘zining munosib ulushini qo‘shadigan har bir fuqaro mahallaning gullab-yashnashi, obodligi, xavfsizligi, farovonligi uchun Vatan, xalq oldida mas’ul ekanligini unutmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 2-apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5700-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi “Fuqarolar yig‘inlari faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 485-son qarori.

6. Musurmonova O., Quronov M., Abdujabbarova M. Mahalla – hayot ko‘zgusi. Uslubiy qo‘llanma. –T.: Yoshlar mediaprint, 2021. –105-b.

7. Musurmonova O., Egamberdiyeva N., Abdurahmonov X., Mavlonov B.. “Mahalla – yorug‘ yuzimiz va vijdonimiz ko‘zgusi”. (O‘zbek, rus, ingliz tillarida) –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi, 2021. –80-b.

8. Musurmonova O. Ayollari ardoqlangan yurt. Uslubiy risola. –T.: Zarvaraq nashriyoti. 2021. – 44-b.

Sarvar MAXMUDOV,
pedagogika fanlari doktori

O‘QITUVCHILARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH: KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSIGA TIZIMLI YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirishda hamda pedagog kadrlarni tayyorlashdagi kamchiliklar tahlil qilingan. Muammolarning yechimi bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning raqobatbardoshligi, kasbiy kompetentlik, pedagogik jamoadagi raqobatbardoshlik tushunchalari ochib berilgan. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari o‘z faoliyatlarida raqobatbardosh, zamonaviy o‘qituvchini tayyorlashda qanday kompetensiyalarni shakllantirishga qaratishlari, uzluksiz ta’lim tizimini malaka oshirish vositasida modernizatsiya qilish va takomillashtirishdagi asosiy tamoyillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetentlik, modernizatsiya, malaka oshirish, qayta tayyorlash, moliyalashtirish, loyihalashtirish, tizimli yondashuv, raqobatbardoshlik, o‘qituvchilarning raqobatbardoshligi, pedagogik jamoadagi raqobatbardoshlik, uzluksizlik, muntazmlik, izchillik diversifikatsiya, sinergetika, fasilitatsiya, subyektivlik, elektivlik.

В статье критически оценивается проблемы повышения квалификации и переподготовки педагогов, рассмотрены условия и принципы формирования учителя новой формации, что образовательный процесс напрямую связан с профессиональными компетенциями учителя. Также в статье описываются задачи образовательных учреждений повышения квалификации, роль результатов педагогического труда в развитии успешного современного общества. Также раскрыта проблема подготовки востребованных, конкурентоспособных педагогических кадров.

Ключевые слова. Профессиональная компетенция, модернизация, повышение квалификации и переподготовка, финансирование, проектирование, системный подход, конкурентоспособность, конкурентоспособность учителя, непрерыность, регуляроность, последовательность, диверсификация, синергетика, фасилитация, субъективность, элективность.

The article analyzes the shortcomings in the implementation of training and retraining, as well as in the training of teachers. Opinions were expressed on the solution of the problems. The concepts of teacher competitiveness, professional competence, competitiveness in the pedagogical team are also revealed. The main principles of modernization and improvement of the system of continuing education through in-service training are outlined in the activities of higher pedagogical educational institutions, which focus on the formation of competencies in the training of competitive, modern teachers.

Key words. Professional competence, modernization, training, retraining, financing, design, systematic approach, competitiveness, competitiveness of teachers, competitiveness in the teaching staff, continuity, regularity, consistency, diversification, synergetics, facilitation, subjectivity, electiveness.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’limni modernizatsiyalash va sifat jihatidan yangilash, ta’lim muassasalarining zamonaviy, yangi modellarini shakllanishi o‘qituvchilarning hamda rahbarlarning kasbiy kompetentligiga

bo‘lgan talablarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Ta’limdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarining hozirgi bosqichida, bu jarayonlarning barcha subyektaridan nafaqat global o‘zgarishlarni tezkorlik bilan qabul qilish, mohiyatini tushunib yetish balki, o‘z kasbiy faoliyatlarini qayta ko‘rib chiqib, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini tezkorlik bilan rivojlantirishlari zarur bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning, rahbarlarning yaqin kelajakdagi faoliyatlarini ijobiy bo‘lishligini, obro‘-e’tiborlarini oshishligini, raqobatbardosh bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun, bugungi kunda pedagog kadrlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash muammolariga yechim topish, malaka oshirish tizimini rivojlantirish dolzarbligicha qolmoqda.

O‘rganishlar, tahlillar uzluksiz ta’lim tizimi xodimlarining malaka oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirishdagi hamda pedagog kadrlarni tayyorlashdagi kamchiliklarni yaqqol ko‘rsatib qo‘ymoqda.

Amaldagi malaka oshirish modellari zamonaviy o‘qituvchilarning bugungi kundagi faoliyatlarining talablariga javob bermaydi. Ta’limga yuqori darajadagi talablar, ta’limni rivojlanishining tezligi, uzluksiz malaka oshirishda, o‘qituvchilar bilan ishlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etilishi talab qilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha talab oshib bormoqda, kelajakda esa yana ham ortib boradi. Afsuski, uzluksiz ta’lim tizimi xodimlarining malaka oshirish tizimida quyidagi to‘siqlar, kamchiliklar tizimning zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga xalaqit bermoqda:

- amaldagi malaka oshirish tizimining shakli va modeli o‘ta moliyaviy jihatdan qimmat hamda samarali emas;
- o‘qituvchilarning ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirishlarini tashkil etishdagi muammolarning mavjudligi;
- malaka oshirishda va qayta tayyorlashda foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalarning zamonaviy ta’lim talablaridan qolib ketganligi, eskirganligi;
- malaka oshirish tizimida faoliyat ko‘rsatadigan yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi moddiy-texnik bazasining juda zaifligi, nochorligi, ta’lim sifatining samarasizligi va h.k.;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida ma’naviy, moddiy rag‘batlantirishning yetishmasligi va h.k.

Bizning fikrimizcha, kechiktirib bo‘lmaydigan quyidagi, malaka oshirish va qayta tayyorlashning tamoyillarini amaliyotga joriy etish talab etiladi:

- jon boshiga moliyalashtirish tamoyili asosida xodimlarning malaka oshirishiga ajratilgan mablag‘larni bevosita ta’lim muassasalariga yo‘naltirish (berish);
- loyihalashtirish faoliyati, o‘qituvchilarning stajirovkasi inobatga olingan variativ, modulli malaka oshirish o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- uzluksiz ta’lim tizimi xodimlarining malaka oshirishini tashkillashtiruvchi, amalga oshiruvchi tashkilotlar, muassasalar faoliyat yo‘nalishlarini kengaytirish ya’ni, malaka oshirishni nafaqat tashkillashtirish balki, muvofiqlashtirish, malaka oshirish logistikasi, monitoring, ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalariga asoslanishni ta’minlash;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida, malaka oshirishini tashkillashtiruvchi, amalga oshiruvchi tashkilotlar, muassasalalarda faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning ish xaqlarini, ma’naiy va moddiy rag‘batlantirish tamoyillarini yangilash ya’ni, bunda malaka oshirish va qayta tayyorlash xizmatlarining sifati va miqdorini inobatga olish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolar yechimining istiqbolli varianti bu – malaka oshirish muammosiga tizimli yondashuvdir. Bu yondashuvning asosi – zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hamda dasturlaridan foydalangan holda uzluksiz malaka oshirishni o‘zaro bog‘liqlik (sinergizm) asosida boshqarishdir.

O‘qituvchilarning raqobatbardoshligi uning pedagog kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida va/yoki tizimida shakllanadigan kasbiy kompetentligi bilan belgilanadi.

Pedagog, ta’limdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarining asosiy bo‘g‘inidir. Intellektual salohiyatni poydevorini qo‘yish va rivojlantirish maktabdan boshlanishi aniq. Shulardan kelib chiqib, o‘qituvchiga ijtimoiy modernizatsiyalash hamda transformatsiyalash jarayonlarida alohida talablar qo‘yiladi. Bugungi kun zamonaviy o‘qituvchisi – moslashuvchan, mobil, mustaqil, kasbiy va pedagogik bilim, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Bunga faqat malaka oshirish orqali erishiladi. Malaka oshirish orqali pedagogik jamoa yangi kasbiy bilim, malakalarga, zaruriy kompetensiyalarga ega bo‘ladilar, natijada esa, talab qilinayotgan yangi formatsiyadagi pedagog shakllanadi.

Albatta, bunday darajadagi pedagogni tayyorlash, ya’ni, yuqori kasbiy-pedagogik kompetentlikga ega bo‘lgan, pedagogik innovatsiyalarga tayyor, ularni amaliyotga joriy etishni biladigan, ta’lim oluvchilarni jamiyatning faol subyekti darajsida tayyorlashga qodir o‘qituvchini faqatgina oliy pedagogik ta’limni modernizatsiya, transformatsiya qilish orqali erishish mumkin.

Fikrimizcha, oliy pedagogik ta’lim muassasalari raqobatbardosh, zamonaviy o‘qituvchini tayyorlashda o‘z faoliyatlarini ularga quyidagi asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratishlari lozim:

- doimiy ravishda o‘z bilimlarini oshirishga, kengaytirishga, chuqurlashtirishga intiluvchanlik;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish – umumnazariy va kasbiy bilim, malakalarini kengaytirishga qiziquvchanlik;
- mobil bo‘lishlik – qiyinchiliklarni yengib o‘tuvchan, tashqi ta’sirlardan qat’iy nazar to‘g‘ri, xaqqoniy qaror qabul qilishlik;
- ijtimoiy hodisalar, holatlardan qat’i nazar tanlagan kasbiy sodiq qolishlik;
- har qanday hayotiy vaziyatlarda o‘z insoniy sifatlarini, fazilatlarini saqlab qolishlik;
- o‘z malakasiga obyektiv baho bera olishlik;
- faol fuqarlik pozitsiyasiga ega bo‘lishlik;
- kasbiy faoliyat jarayonida o‘zining individualligini ko‘rsata olishlik;
- kasbiy faoliyat jarayonida strategiya va taktika ishlab chiqishni bilishlik;
- nazariy va amaliy bilimlarni to‘g‘ri yo‘naltira olishlik;
- egallangan bilimlarni amaliyotda malakali va mohirona qo‘llay olishlik;
- shaxsni o‘qitish va tarbiyalashdagi stereotiplardan qat’i nazar, innovatsiyalarga, yangiliklarga intiluvchanlik.

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy komponenti – milliy o‘zlik va madaniyatni o‘zida mujassam etgan, ko‘p madaniyatli (polietnik, polilingvistik) muhitda muloqot qila oladigan shaxsni shakllantirishdir.

Raqobatbardosh, zamonaviy o‘qituvchi – bu insonparvar, axloqiy yetuk, kasbiy kometent lider, u o‘z dunyoqarashi va xulq-atvori bilan o‘rnak bo‘la oladigan insondir.

Afsuski, bugungi kunda yuqorida keltirib o‘tilgan vazifalarni ijobiy hal etishga

to‘sqinlik qilayotgan quyidagi tashkiliy va texnologik muammolar mavjud, bular:

1. Malaka oshirish va qayta tayyorlash natijadorligini, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida egallangan bilim, malakalarni amaliyotga joriy etilayotganini monitoring qilish tashkiliy tuzilmaning yo‘qligi.

2. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida marketing xizmatlarining yo‘lga qo‘yilmagani.

3. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida iste’molchilarning ehtiyojlari inobatga olingan variativ o‘quv reja va dasturlarning yo‘qligi.

4. Ta’limni modernizatsiyalash va sifat jihatidan yangilash jarayonida amaldagi malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi uzluksiz malaka oshirishni ta’minlay olmayotganligi.

5. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari, ta’lim muassasalari real faoliyatlari bilan to‘laqonli, uzviy bog‘lanmaganligi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy izlanishlarni tahliil qilib, quyidagi fikrlarni bildirshni lozim topdik. Uzluksiz ta’lim tizimini malaka oshirish vositasida modernizatsiya qilish va takomillashtirishda uzluksizlik, muntazamlik, izchillik, diversifikatsiya, sinergetika, fasilitatsiya, subyektivlik va elektivlik asosiy tamoyillar bo‘lishi zarur.

Uzluksizlik – ta’lim jarayonida bosqichlararo, fanlararo va mavzulararo bog‘liqlik tushunilib, bunda o‘quv mazmuni avvalgi ta’lim-tarbiya jarayoni takrorlanishi yoki fanlar orasida ilgari surilayotgan fikrning mazmun jihatdan bog‘lagan holda to‘ldirilishi inobatga olinadi. Uzluksizlik ta’lim-tarbiya tizimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmani hisobga olgan holda, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi mavjud kamchiliklarni ularning malakasini oshirish hamda o‘z ustlarida mustaqil ishlashni tashkil etish orqali bartaraf qilish, o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik nazariyalar, innovatsiyalar, ta’lim texnologiyalari bo‘yicha yangi bilim berish, malakalarini shakllantirish uzluksiz malaka oshirish tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Ta’lim sohasidagi innovatsion o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish ularning kasbiy faoliyatlarini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlashga yo‘naltirilgan yaxlit tizimni ifodalaydi.

Muntazmlik – malaka oshirishning konseptual tamoyillari maqsadlar, ta’lim mazmuni, tashkiliy tuzilmalar va pedagogik texnologiyalarning uzviyligini, uzluksizligini aniqlaydi. Uzluksiz, muntazam malaka oshirishning nazariy va amaliy qoidalarini umumlashtirish sifatida, andragogika uzluksiz ta’lim jarayonida kattalarni o‘qitishning nazariy va amaliy muammolarini ochib beradi. Muntazamlik va ketma-ketlik u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sur’ati, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi.

Izchillik – malaka oshirish mazmuni, uning shakli va usullari, o‘quv jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan subyektlarning o‘zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunon. partialis – qisman) va xususiy o‘quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o‘zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o‘quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Diversifikatsiya – (lot. diversifi catio – o‘zgarish, xilma-xil taraqqiyot) – malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasa (tashkilot) larning faoliyati yo‘nalishlari va ushbu yo‘nalishda ko‘rsatadigan xizmatlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiyada yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, va b. maqsadlarda

amalga oshiriladi. Diversifikatsiyada malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasa (tashkilot) lari imkoniyatlari kengayadi, iste'molchilarning ehtiyojlari to'la qondiriladi.

Sinergetika – qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, birgalik, birlashgan holda, hamkorlik, ko'maklashish, ishtirokchilik yoki ko'maklashuvchi, yordam beruvchi degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha ilmiy tadqiqotlardan ko'pincha muvofiqlashtirlgan harakat, hamkorlik, birgalikda foydalanish, degan ma'nolarda qo'llaniladi. Sinergetik yondashuv ta'lim faoliyatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish ustunligiga asoslanadi va o'z-o'zini ochib berish va takomillashtirish, o'z-o'zini anglash maqsadida mavzuga ta'sirni rag'batlantirishdan iborat. Dunyoni sinergetik anglash insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: sinergetik fikrlash usuli ochiqlik, dialogizm va muloqot bilan ajralib turadi. Sinergetika pedagogik nazariyani rivojlantirishda yo'qolgan aloqalarni amaliy haqiqat bilan tiklashga, dialog tizimining rivojlanishi, ochiqlik, ta'lim tizimining turli tarkibiy qismlari va uning subyektlari o'rtasida "kommunikativ ko'prik" yaratishga imkon beradi. Sinergetik ta'lim, yangi pedagogika singari, o'z-o'zini tarbiyalash, insonni o'z imkoniyatlarini rag'batlantiradigan o'z taqdirini belgilashdir. Sinergetik konsepsiya ilmiy va pedagogik bilimlarni yangicha tarzda ochib berishga imkon beradi. U bilish jarayonlarining ko'p o'lchovliligi, komponentli va ko'p ovozliligi (alternativligi va o'zgaruvchanligi) ga e'tibor beradi. Bizning fikrimizcha, sinergetik yondashuv pedagogik jarayonning har bir subyektini (buyurtmachi, ta'lim oluvchi, o'qituvchi) rivojlanishdan o'z-o'zini rivojlantirishga o'tishni amalga oshiradigan o'zini o'zi rivojlanayotgan tizimlar sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Fasilitatsiya – o'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'li bo'lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim oluvchilarni o'z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlarida ularni qo'llab-quvvatlashdir. Pedagogik fasilitatsiya esa ta'lim oluvchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosida ta'limning (o'qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog tomonidan alohida muloqot usulining kasbiy-pedagogik jarayonda qo'llanilishi natijasida sifat jihatdan rivojlanishga erishiladi. Fasilitatsiya har qanday faoliyat, shu jumladan, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi, shubhasiz. Fasilitatsiya pedagogning o'quvchilar bilan individual muloqot usuli va ta'lim oluvchi shaxsiga samarali ta'sir etish bilan bevosita bog'liq. Fasilitatsiyali ta'limda o'qituvchi dogmatik metodlar va usullarni emas, balki zarur ma'lumotlarni ijodiy egallash, fikr yuritishni shakllantirish, ma'lum materialdagi yangi muammolarni topish, imkoniga ega bo'ladilar.

Subyektivlik – shaxsning o'zini o'zi belgilash va faoliyat subyekti sifatida rivojlanish jarayonining ahamiyatini metodologik jihatdan oshirishga imkon beradi. Ta'lim oluvchi ta'lim va tarbiya subyekti bo'lib, o'quv jarayonida faol va ijodiy pozitsiyani egallaydi; ta'lim muhitida shaxsning o'zini namoyon qilishi va o'zini anglash erkinligi, hayotda va kasbda o'zini o'zi belgilashning individual strategiyasini izlash; faoliyat, dialog, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik tamoyillarini amalga oshirish; subyektivlik va subyektivlikni rivojlantirishga intiladigan ochiq, o'zini o'zi boshqaradigan tizimlar; individual hayot yo'li uchun strategiyani tanlash erkinligi, bu ta'lim dasturlari, kurslari, ularning mazmun mohiyati va o'qituvchining o'zi tanlashini anglatadi.

Elektivlik – malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlarini imkon qadar mustaqil tanlash imkoniyatini berish orqali tinglovchilarning shaxsiy ishtiyoqlariga, kasbiy faoliyati yoki ta'limiy qiziqishlariga mos keluvchi bir-biriga yaqin sohalar yoki fanlarning noyob majmuasini egallashi, umuman olganda o'z kasbi bo'yicha zarur bo'lgan fan-

larni har tomonlama chuqur o‘rganish demakdir.

O‘qituvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirishniing o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- malaka oshirishning kredit-modul, kumulatif tizimi;
- kasbiy konkurslar, malaka oshirishning variativ dasturlarini tanlash imkoniyatini mujassam etgan tizim;
- malaka oshirish kurslarini ilg‘or ta’lim muassasalarida tashkil etish, trening markazlarini tashkil etish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlashga ehtiyoji borlarga malaka oshirish muassasalari (tashkilotlarini), dasturlarni tanlash imkonini berish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlashni uzluksizligini, uzviyligini, muntazamligini va maqsadliligini ta’minlovchi moliyalashtirishning yangi modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- malaka oshirish. ilmiy-tadqiot faoliyatining barcha yo‘nalishlari inobatga olingan pedagog xodimlar attestatsiyasining yangi modelini ishlab chiqish, “Zamonaviy-innovatsion maktab” amaliyot – trening markazlari tizimini shakllantirish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlashning elektron monitoringini ta’minlash;
- malaka oshirish va qayta tayyorlashning masofaviy tizimini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirishga tizimli yondashuv raqobatbardosh pedagogik kadrlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirishni nazariy va metodologik jihatdan ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. /Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. –112-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. –592-b.

3. Maxmudov S.Y. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish jarayonini innovatsion – variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Monografiya // S.Y.Maxmudov.–T.: IPAK YO‘LI POLIGRAF MChJ bosmaxonasi. –2021. –332-b.

4. Maxmudov S.Y. Ta’lim tizimida korporativ boshqaruvni amalga oshirishning ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik asoslari. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali №1. –2020 – 75-79 betlar.

5. Maxmudov S.Y. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini innovatsion – variativ yondashuv asosida takomillashtirish. –T., 2020. “Uzluksiz ta’lim” №3. – 21-24-betlar.

6. Makhmudov S.Y., Innovative – variant approach to improving the qualification of pedagogical personnel as a main factor in providing the quality of education – European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8 No. 12, 2020 Part, III.ISSN2056-5852 – P.199-205.

7. Makhmudov S.Y. etc. Variability of the educational system as a subject of scientific research // European research: Innovation in science, education and technology. XL International scientific and practical conference Journal. United Kingdom, London. 2018. P. 89-91.

Xosiyatposhsho AXMADALIYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Pedagogika va psixologiya’’
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

INGLIZ TILI DARSLARIDA AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini innovatsion interaktiv metodlar orqali takomillashtirish yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning muloqot jarayonida o‘z fikrlarini mantiqan izchil, ravon, o‘z o‘rnida, qo‘rqmay to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Ingliz tili darslari, kommunikativ kompetensiya, innovatsion interaktiv metodlar, o‘quvchi markazli yondashuv, erkin muloqot.

В данной статье описывается совершенствование коммуникативной компетенции учащихся на занятиях по английскому языку с помощью инновационных интерактивных методов. Также были рассмотрены пути формирования умения студентов использовать свои мысли логично, бегло, на своем месте, бесстрашно в процессе общения.

Ключевые слова. Уроки английского языка, коммуникативная компетенция, инновационные интерактивные методы, ученик центрированный подход, свободное общение.

This article describes the improvement of students’ communicative competence in English classes through innovative interactive methods. Also, ways of forming the ability of students to use their thoughts logically, fluently, in their place, fearlessly in the process of communication were considered.

Key words. English lessons, communicative competence, innovative interactive methods, pupil-centered approach, free communication.

Bugungi kundilm-fan, texnika va IT texnologiyasining rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotning yangi jabhalarini ochib berdi. Natijada, ta’lim sohasini isloh etish orqali mamlakatimizda har tomonlama yetuk, raqobatbardosh yoshlarni o‘stirish va tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri bo‘lib qoldi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonida uzluksiz ta’limning har bir bosqichini isloh qilish, yoshlarning tahsil olishi uchun barcha zamonaviy imkoniyatlarni yaratish, xalqaro standartlarga mos ta’lim tizimini tashkil qilish, yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarini shakllantiradigan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarni yaratish orqali yosh avlodni yetuk mutaxassis qilib o‘stirish jamiyatimizning asosiy poydevori ekanligi ta’kidlangan. Shuning uchun, ilm-fanning jadal rivojlanishi bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri xorijiy tillarni o‘qitish orqali kelajak yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat va faxr tuyg‘usi, boy merosimizga iftixor tuyg‘usi, yuksak ma’naviyatli, axloqli qilib tarbiyalash asosiy vazifalardandir. Jahon ta’lim tizimidagi qilinayotgan tub islohotlar yoshlarning

chet tillarni mukammal o‘rganishlari, barcha sohalarda chet tilini bilgan holda o‘zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tildaog‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda. Ta’lim oluvchilarning ya’ni o‘rganuvchilarning xorijiy tilda tafakkur qilish, fikr yuritish, erkin nutqni so‘zlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual salohiyatini shakllantirish, ularning tayyorgarligini baholash masalalari bilan Xorijiy tillarni o‘qitish agentligi shug‘ullanmoqda. Bu masalaning umumiy tendensiyalarda shakllanishi zamonaviylik va o‘sib kelayotgan yoshlarda chet tiliga oid malakalarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, zamonaviy tarbiya muammolari bilan bog‘liq holda o‘rganuvchining nafaqat ijodiy balki nutqiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun muhimdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan davrda har bir o‘quvchini qobiliyatini rivojlantirish va yetuk shaxs va kadr qilib tayyorlash o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Yana bir narsani ta’kidlab o‘tish zarurki, uzluksiz ta’lim faoliyatini tashkil etish jarayonida iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga va ularning iqtidorini yanada rivojlantirishga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Shu maqsad sari pedagogik faoliyat mazmuni, metodikasiga asoslanib, iqtidorli o‘quvchi yoshlarni muvaffaqiyatli va shaffof aniqlash uchun zarur pedagogik-psixologik va tashkiliy sharoitlar yaratildi. Ayni vaqtda respublikamizda iqtidorli yoshlarni aniqlashning puxta asoslangan mexanizmi ishlab chiqildi. Buni amaldagi ifodasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 3-dekabr kuni qabul qilingan “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ydi.

Ingliz tilini o‘rganishga talab oshib borayotganligi sababli akademik litseylarda ingliz tili darslari innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali xalqaro standartlarga mos tarzda o‘qitilishi va bitiruvchi o‘quvchilar tilni puxta egallagan bo‘lishlari shart etib qo‘yildi. Ingliz tilining to‘rtta aspektini muvaffaqiyatli o‘rganishda kommunikativ kompetensiyani o‘rni beqiyosdir, chunki kommunikativ kompetensiyasining mavjud bo‘lishi o‘quvchining biror bir ma’lumotni yetkazish samaradorligi, boy lug‘at zaxirasi, nutq madaniyati, til vositalarini o‘z o‘rnida to‘g‘ri tanlanganligini belgilashi, shuningdek, boshqa insonlar bilan muloqot jarayonida o‘z shaxsiy ma’naviy-axloqiy holatini tartibga solishni boshqarish mahoratini belgilaydi. Ammo, akademik litseylarda ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi to‘liq o‘rganilmaganligi aniqlandi.

Akademik litsey o‘quvchilarining innovatsion interaktiv metodlar orqali kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi ularning fikr-mulohazalarni ravon, yaxlit va mantiqan izchil bayon qilish mahorati bo‘lib, bunda muloqot tilining ifodali hamd aniq muloqot bo‘yicha sheriklarning faolligining har qanday turini tushunish va mos ravishda javob qaytarish layoqatidan foydalaniladi. Buning uchun, hozirgi kunda akademik litseylarning ingliz tili darslari jarayonida o‘quvchilarning

kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun bir qancha innovatsion interaktiv metodlardan foydalanilmoqda.


Ingliz tili darslarida eng samarali innovatsion metodlardan biri “Mind-map” metodi hisoblanib, unda mavzu o‘rtaga yoziladi va o‘quvchilar o‘zlarining fikr, g‘oya, qarashlarini bir so‘z yoki so‘z birikmasi bilan ifoda etishadi. G‘oyalar miqdori cheklanmagan. Har bir o‘quvchining fikri mavzu atrofidagi ko‘rsatilgan joyga yozib boriladi. Bu metod har bir o‘quvchiga faol qatnashish imkoniyatini yaratib beradi, hamda ularni sergaklikka, hozir javoblikka chorlaydi. Ingliz tili darslarida, asosan quyidagi holatlarda ishlatiladi:

• yangi mavzuni tushuntirishdan oldin o‘quvchilarning bilimini tekshirishda hamda ularni darsga jalb qilishda;

• matnlar bilan ishlash jarayonida yangi ma’lumotlarni ajratib olishda;

• darsning boshida o‘tgan mavzuni qisqacha takrorlab olishda;

• mavzuga doir kerakli materiallarni yig‘ib olishda ishlatiladi.



O‘quvchilarning fikrlari yig‘ilgandan so‘ng o‘qituvchi umumiy xulosa qiladi va o‘quvchilarning kamchiliklarini bartaraf qiladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyati o‘sadi va ular xato qilishdan qo‘rqmay erkin muloqotga kirishishadi va fikrlarini teran ifoda etishadi. Natijada, o‘quvchilarda o‘z g‘oyalarini izchil yetkazib berish qobiliyati rivojlanadi. Yana bir innovatsion interaktiv metodlardan biri “Carousel” metodi bo‘lib, u 2 ta dumaloq xalqadan tashkil topadi.

1. Ichki.

2. Tashqi.

Har bir xalqa alohida jarayonni o‘z ichiga olib, bunda o‘quvchilar 4-5 kishilik kichik guruhlarda ishlashadi.

1. Ichki dumaloq xalqadagi jarayon. Bunda o‘qituvchi har bir kichik guruh a’zolariga bo‘sh oq qog‘oz tarqatadi va ularga bir xil savol beradi. Misol uchun: gapirish qobiliyatini samarali rivojlantirish uchun qanday manbalar yordam beradi? Har bir kichik guruh a’zolari o‘zlarining javoblarini berilgan qog‘ozga yozishadi. Keyin o‘qituvchi qog‘ozlarni yig‘ib oladi va guruhdagi boshqa a’zolarga soat strelkasiga o‘xshab tarqatadi. Guruhdagi boshqa a’zolar berilgan savolga oldingi o‘quvchining hamda avvalgi o‘zining javobini takrorlamagan holda javob yozadi. Keyin hamma javoblar muhokama qilinib, eng yaxshi javob variantlari yakuniy qog‘ozga yoziladi.

2. Tashqi dumaloq xalqadagi jarayon. Sinfdagi mavjud kichik guruhlarning yakuniy ishlari o‘zaro almashiniladi va javoblar tahlil qilinadi. Bunda hamma fikrlar qabul

qilinadi. Fikrlarga qarshilik qilinmaydi. Agar guruhlarda boshqacha javob variantlari mavjud bo‘lsa, taklif sifatida berishlari mumkin bo‘ladi.

Bu metod o‘quvchining mantiqiy fikrlashini o‘stiradi, bir-biri bilan bo‘lgan muloqotda o‘quvchilar turlicha yangi fiklarni eshitib, dunyoqarashlari boyidi. Eng asosiysi, kichik guruhlarda uyalmay, erkin muloqotni amalga oshirishni o‘rganishadi. Keyingi o‘quvchilar uchun qiziq bo‘lgan innovatsion interaktiv metod “Sequin” hisoblanib, bu metod besh satrli she’r ham deb nomlanadi. O‘qituvchi tomonidan berilgan mavzuni o‘quvchilar 5satrli mantiqiy bog‘langan so‘z va so‘z birikmasi orqali tushuntirib berishlari zarur.Avvalo, o‘quvchilar berilgan mavzu asosida 10 daqiqa ichida yakka tartibda o‘z ishlarini yaratadilar, keyin juftlik bo‘lib, o‘zaro bir-birlarini tinglab, yaratgan ishlarini mantiqiy holda birlashtirishadi. So‘ng, butun guruhga o‘z ishlarini o‘qib eshittirishadi va guruhdagilar bu juftlikka fikr-mulohazalarini bildirib, ularning yutuq va kamchiliklari muhokama qilishadi. Bu metodning o‘z qoidasi mavjud bo‘lib, o‘quvchilar shunga rioya qilib berilgan topshiriqni bajaradilar.

Birinchi satrda berilgan mavzu ot so‘z turkumiga oid bir so‘z bilan ifodalanadi.

Ikkinchi satrda taqdim etilgan mavzu qisqacha 2 ta sifat so‘z turkumiga oid so‘z bilan tasvirlanadi.

Uchinchi satrda mavzuga doir ish-harakat 3 ta so‘z bilan tasvirlanadi.

To‘rtinchi satrda mavzuga tegishli fikr-mulohazalar 4 so‘zli iborada beriladi.

Oxirgi satrda 1 ta sinonim so‘z orqali butun mavzu yoritib beriladi.

Misol uchun: “Academic lyceums around Uzbekistan”

– Academic lyceum.

– State, public.

– Learn, participate, and achieve.

– A place where pupils study.

– The process of learning.

Bu metod orqali o‘quvchilar tez va samarali usulda ma’lumotlarni yig‘ib tahlil qilishni o‘rganishadi. Natijada, ularning analitik, yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi hamda ularda o‘z fikrlarini qayerda? Va qanday qilib? to‘g‘ri yetkazib berish mahorati shakllanadi.

Ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini innovatsion interaktiv metodlar orqali rivojlantirish, ularning fikr-mulohazalarini ravon, yaxlit va mantiqan izchil bayon qilishlariga, muloqot tilining ifodali hamda aniq muloqot bo‘yicha sheriklarning faolligining har qanday turini tushunish va mos ravishda javob qaytarish layoqatida ifodalanadi.

Toshkent shahridagi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyida olib borilgan so‘rovnomada 70 foiz o‘quvchilar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion interaktiv metodlarning roli beqiyos ekanligini ta’kidlashdi. 15 foiz o‘quvchilar maxsus qoidalarga asoslangan videolar lavhalarni ko‘rish orqali, 10 foiz o‘quvchilar grammatikani egallash va so‘z o‘rganish orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirsh kerakligini va qolgan talabalar kommunikativ kompetensiya ingliz tilini puxta egallashda shart emasligini ko‘rsatishdi. Bundan shunday xulosa ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik o‘quvchilar ingliz tilida erkin, mukammal muloqot qilishning asosi kommunikativ kompetensiya ekanligi tarafdoridir.

Ingliz tili darslarida innovatsion interaktiv metodlar o‘quvchi markazli yondashuv asosida qo‘llansa, o‘quvchilar erkin tarzda, faol, yakka tartibda yoki guruh bo‘lib o‘zlarining qiziqishlari, qarashlaridan kelib chiqib berilgan topshiriqqa yondashadilar,

bundan tashqari, o‘quvchi markazli yondashuvda o‘quvchilar o‘zlari ma’suliyatni olib, doimo harakat qilishga intiladilar, ko‘proq o‘zlarining ustilarida ishlab, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar, shuningdek, o‘qituvchi doimo ularni nazorat qilib aniq, kerakli ko‘rsatmalar berib boradi. Natijada, o‘quvchilarga tilning hamma qobiliyatlarini bir paytda puxta o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi va har xil vaziyatlarda ham ular til komponentlaridan to‘g‘ri foydalanib muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu albatta, ularning kommunkativ kompetensiyasini samarali rivojlanishiga olib keladi.

Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish uchun o‘qituvchilar darslarda ingliz muhitini zamonaviy o‘qitish metodlari yordamida yaratishlari hamda o‘quvchilarga erkin muloqot qilish imkoniyatlarini berishlari zarur, chunki o‘quvchi ingliz tilida ham o‘z his tuyg‘ularini teran ifoda eta olishi uchun u bilan muloqotdagi shaxsni yaqin olib, tushunib, erkin muloqot qilsagina o‘sha vaziyatda ular orasidagi muloqot muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Mamlakatimizdagi akademik litseylarda ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini innovatsion interaktiv metodlar orqali rivojlantirishga hamma shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, xonalar jahon standartlariga mos texnikalar bilan ta’minlangan va o‘qituvchilar darslarni kommunikativ kompetensiyaning elementlariga rioya qilgan tarzda tashkillashtirishga harakat qilmoqdalar, natijada, o‘quvchilarga ingliz tili aspektlarini puxta egallashga va erkin muloqotni amalga oshirishga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Darslarda innovatsion interaktiv metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlari hamda tanqidiy, analitik qobilyatlarining o‘sishiga olib kelmoqda. O‘quvchilar vaziyatga mos o‘z o‘rnida muloqot qilishni o‘rganishadi va o‘qituvchilar doimo o‘quvchilarning muloqot qilish jarayonidagi grammatik, leksik va talaffuzga oid kamchiliklari bartaraf qilib borishadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kishlash joizki, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishi ulardagi fikr-mulohazalarini ravon, yaxlit, mantiqan izchil va vaziyatga mos tarzda bayon qilishida o‘z aksini topadi hamda muloqot tilining ifodali, aniq muloqot bo‘yicha sheriklarning faolligining har qanday turini tushunish va mos ravishda javob qaytarish layoqatiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilar ingliz tili darslarida bemalol muloqotga kirishib amalda uni rivojlantirishga harakat qilishlari tilni puxta egallashga yo‘l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –T., 2022-yil 28-yanvar. PF-60-son. 41-maqsad.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 46-modda. O‘RQ-637.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son qarori. 2-bandi.

4. Musurmonova O.M. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili: monografiya. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –43-b.

Raximboy YARMATOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari doktori, professor

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGIDA TANQIDIY FIKRLASHNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligida tanqidiy fikrlashning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Tanqidiy fikrlash, mohir tahlil, intellektual jarayon, didaktika, zaif va kuchli tanqidiy fikrlash, didaktik usul.

В данной стате рассматривается роль критического мышления в методической подготовке будущих учителей истории в системе непрерывного образования

Ключевые слова. Критическое мышление, умелый анализ, интеллектуалный протсесс, дидактика, слабое и силное критическое мышление, дидактический метод.

This article discusses the role of critical thinking in the methodological preparation of future history teachers in the system of continuous education.

Key words. Critical thinking, skillful analysis, intellectual process, didactics, weak and strong critical thinking, didactic method.

Dunyoda siyosiy va iqtisodiy vaziyatning zamonaviy sharoitida axborotni idrok etishning kritikligi ayniqsa dolzarbdir. Tanqidiy fikrlashning asosini shaxsning alohida tarixiy, siyosiy va ijtimoiy fakt va hodisalarga munosabati kabi shaxsiy mulk tashkil etadi. Asosiy bilim va unga tegishli munosabat oilaviy tarbiya va ta’lim jarayonida yotadi. Faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak tarix va ijtimoiy tadqiqotlar o‘qituvchilari o‘rtasida axborotni tanqidiy idrok etishning muhim vazifasini bajaradi. Bu vazifani amalga oshirish uchun bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maxsus tayyorlash zarur.

Tanqidiy fikrlash – bilimni o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, yangilik kiritish, muammolarni hal qilishga alohida e’tibor beriladi hamda o‘quvchilarda bunyodkor g‘oyalarning yovuz g‘oyalar ustidan g‘alaba qozonishiga ishonch paydo qilinadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish bir necha jihatlarni o‘rganishni talab etadi:

– o‘qituvchining o‘zini tanqidiy fikrlashi (bo‘lajak tarix o‘qituvchisi);

– bo‘lajak tarix o‘qituvchilari tomonidan o‘quvchilarga ma’lumotlarni to‘g‘ri taqdim etish (hissiy jihatdan rang-barang, lekin o‘quvchilarning shaxsiy munosabatiga ta’sir qilmaydigan tarzda);

– bo‘lajak tarix o‘qituvchilari tomonidan o‘quvchilar o‘rtasida tanqidiy fikrlashni shakllantirish.

Dastlab, turli xil ta’riflarni tahlil qilish asosida “tanqidiy fikrlash” tushunchasini aniqlash kerak:

– ba’zi mualliflar tanqidiy fikrlashni “obyektlar va hodisalarni tahlil qilishda ishlatiladigan hukmlar tizimi va oqilona baholash va ushbu natijalarni boshqa muammolar va vaziyatlarga qo‘llash imkonini beradigan xulosalar shakllantirish” deb tushunadilar.

– boshqa tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashni “inson qabul qilingan ma’lumotni so‘raydigan fikrlash usullaridan biri sifatida” belgilaydi.

– “tanqidiy fikrlash-turli gaplarga to‘g‘ri baho berish” degan nuqtayi nazar mavjud.

– tanqidiy fikrlashning yana bir umumiy ta’rifi “bu qaror qabul qilishga qaratilgan ongli refleksiv fikrlash: nima qilish kerak va nimaga ishonish kerak”.

– batafsil ta’rifi mavjud – “faol va mohir tahlil, intellektual jarayoni, konseptualizatsion, ariza, kuzatish orqali olingan yoki hosil axborot sintezi va yoki baholash, tajriba, ishontirish va harakatlar uchun qo‘llanma sifatida aks yoki aloqa”.

Farobiy tanqidiy fikrlashni tashkil etish masalalari bo‘yicha bir qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqdi. Uning fikricha, yaxshi nazoratchi bo‘lish uchun uch narsaga rioya qilish zarur:

1) ma’lum bir fan asosiga yotgan barcha tamoyillarni yaxshi bilish kerak.

2) ushbu aniq fanga doir mana shu tamoyil va ma’lumotlardan zarur xulosalar chiqara olish kerak, ya’ni muhokama etish qoidalarini egallash.

3) haqiqatni yolg‘ondan farqlash va xatolarni to‘g‘rilash uchun xato nazariyalarni inkor etish va boshqa mualliflar mulohazalarini tahlil etish zarur.

Tadqiqotchi Richard Pol tanqidiy fikrlashni ikki turga bo‘lishni taklif qildi: kuchli va zaif. Zaif ma’noda tanqidiy fikrlash – bu kvazi-intellektual egosentrik motivatsiyaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassisning fikrlashi. Ya'ni, bunday inson faqat shaxsiy farovonlik bilan shug‘ullanadi va munosabatlarning boshqa ishtirokchilari uchun o‘z harakatlarining axloqiy tabiati oqibatlari haqida o‘ylamaydi. Bunday fikrlash egasi ko‘pincha yuqori darajadagi ta'limga ega, ammo o‘z bilimlarini adolatsiz va xudbin maqsadlarni ko‘zlash uchun ishlatadi. Kuchli ma'noda, tanqidiy fikrlash-bu muammoning mohiyatiga kirib, uni obyektiv ravishda o‘rganishni maqsad qilib olgan muayyan shaxsning fikrlashi.

Tanqidiy fikrlashning tashqi tomoni deganda biz ancha sodda jarayonlarni (qabul qilish, diqqat-e’tibor va boshqalarni) pag‘batlantirish va shaxsning umumiy ish qobiliyatini saqlashni tushunamiz. Buning uchun quyidagi usullar xizmat qiladi:

– turli metodlar, turlar va o‘quv ishlari usullarini navbatlashtirish yo‘li bilan turli asab markazlari ishlarini faollashtirishni ta'minlash;

– o‘quv jarayonida so‘z va ko‘rgazmalilik, aniq va mavhumiylikning o‘zaro to‘g‘ri munosabati;

– darsda jismoniy va musiqiy dam olish daqiqalari;

– ijobiy hissiyotlarni qo‘llab-quvvatlash;

– didaktik usul sifatida o‘yin va musobaqalarni qo‘llash, tanqidiy fikrlashning ichki tomoni – bu, avvalambor, o‘quvchilar fikrlashini faollashtirish, boshlang‘ich guruhlarda esa ular tasavvuri va ijodkorligini rag‘batlantirish hamdir.

Tanqidiy fikrlash – bu xulosa chiqarish uchun dalillarni tahlil qilish. Murakkab mavzular va obyektlardagi dalillarni ratsional, skeptik, xolis tahlil qilish yoki baholashni o‘z ichiga olgan bir nechta turli xil ta’riflardir. Tanqidiy fikrlash – bu talabalarni o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘zini rivojlantiridigan fikrlashdir. Bu qat’iy mukammal shartlar va ulardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi.

Bu samarali muloqot va muammolarni hal qilish qobiliyatlari, shuningdek, mahalliy egotsentrizmni va sotsiotsentrizmni yengish majburiyatini oladi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ta'lim jarayoni insonning axborot bilan ishlashining ilmiy asoslangan namunalariga asoslangan bo‘lishi kerak; texnologiyaning bosqichlari: qiyinchilik, tushunish, aks ettirish, uzluksiz ta'lim tizimida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining moslashuvchan bo‘lishi va har qanday vaqtda muayyan ta’lim holatiga mos kelishi uchun ta’minlanishi kerak; texnologiya hamkorlik va o‘z-o‘zini aks ettirish tamoyillariga asoslangan holda o‘qitishga imkon beradi. Texnologiyaning ta’rifi algoritm va mexanik ijro etishni nazarda tutmaydi, balki tanqidiy fikrlashni shakllantirishning butun jarayonini aniqlaydigan ochiq strategiyalar tizimi.

Tanqidiy fikrlash insonni intellektual faoliyatining turlaridan biri bo‘lib, uni yuqori darajadagi idrok etish, anglash, uni o‘rab turgan axborot maydoniga yondoshishning obyektivligi bilan tavsiflanadi. Ushbu texnologiyaning konseptual yondashuvlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– ta’limning maqsadi bilim miqdori yoki ma’lumot miqdori emas, balki talaba ushbu ma'lumotni qanday boshqarish imkoniyatiga ega;

– qidirish, eng yaxshi tarzda moslashtirish, unda ma’noni topish, uni hayotda qo‘llash;

– “tayyor” bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki o‘quv jarayonida tug‘iladigan shaxsiy bilimlarni qo‘llash;

– o‘qitishning kommunikativ-faollik prinsipi, mashg‘ulotlarning dialog rejimini, muammolarni hal qilish yo‘llarini birgalikda izlashni, shuningdek, o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasidagi “sheriklik” munosabatlarini ta'minlaydi;

– idrok etilayotgan obyektning ijobiy va salbiy tomonlarini obyektiv baholash.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda tanqidiy fikrlashning o‘rni zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining o‘quv jarayonida tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan o‘quv modeli va samarali usullar tizimidan foydalanish qobiliyatini shakllantiradi va o‘z faoliyatini malakali tahlil qilishni biladigan raqobatbardosh yetuk mutaxassislarga aylanishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston. 2017.

2. Arabova, M., & Berdieva, F. (2014). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari/ Современное образование (Узбекистан), (7), 49-54.

3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996; Hasanova A. O‘quvchi yoshlar tarbiyasida rag‘batlantirish va tanbeh mezoni. – T.: “O‘zbekiston”, 1980.

Dilshod MAXKAMOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti ma'naviyat bo'limi mutaxassisi

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA TARBIYA ISHLARINI TASHKIL ETISHDA TYUTOR MAHORATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tarbiyalashda tyutor xodimi faoliyatinng mazmun mohiyati va asosiy xususiyatlari ishlab chiqilgan. Ularga ijodiy yondashish muvaffaqiyatlarga qozonish jihatlari imkoniyatlarini amalga oshirishdagi yo'nalishlar asoslangan.

Kalit so'zlar. Tyutor, talabalar, mas'uliyat, tarbiya, usul, iroda, xorijiy tilni o'rganish, tadbirkor bo'lish, ijodiy yondashish, fikr yuritish, strategiya, mehnatsevarlik, muvaffaqiyat.

В данной статье раскрываются сущность и основные черты деятельности сотрудников тютора по воспитанию студентов в высших учебных заведениях. Творческий подход к ним основан на осознании возможностей аспектов успеха.

Ключевые слова. Тютор, студенты, ответственность, образование, метод, воля, изучение иностранного языка, предпринимательство, творческий подход, мышление, стратегия, трудолюбие, успех.

This article develops the essence and main features of the activities of the staff of the theater in the education of students in higher education. A creative approach to them is based on the realization of the possibilities of the aspects of success.

Key words. Tutor, students, responsibility, education, method, will, learning a foreign language, being an entrepreneur, creative approach, thinking, strategy, diligence, success.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini tarbiyalashda ularni mashg'ulotlarga jalb etish, axloqiy fazilatlarini shakllantirishda namuna bo'la olish, yangi kashfiyotlarini amalga oshirishdagi faoliyatini rag'batlantirish ularning kayfiyatini ko'tarish, yaxshi ishlarni o'zlashtirish xususiyatlarini rivojlantiradi. Tyutor xodimi ularning xatti-harakatlarini kuzatishi, asosida guruh jamoasining hamjihatligi, bir-birini xurmat, o'zaro munosabatlari, ishonchi qat'iy qarorlar qabul qilish, yangi maqsadlar tomon intilish mas'uliyatli bo'lish kabilarga ijodiy yondashish asosida ulardagi yutuqlarini yanada rivojlantirish uchun yaxshi suhbatdosh, hamfikr bo'lish, kichik foydali ishlariga ham e'tibor berish ruhlantiradi va o'z yo'lini g'ayrat bilan davom ettirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jarayonlarda o'qituvchi ularning xatti-harakatlarini, xislatlarini shakllantirishda turli usullardan foydalanishi nafaqat yaxshi samara beradi, balki ularning kayfiyatini oshiradi.

Tyutor xodimi tarbiya jarayonida talabalarning salbiy hayollariga barham berishi, ularni ijobiy fikr yuritishini amalga oshirishda dunyoga katta ko'z bilan qarash, olamni his etish, baxtli va ijobiy qarashlarga ega bo'lish hissiyotlarini shakllantirishi lozim. Chunki hayotda inson hissiyotlari dengiz to'lqinlariga o'xshab goh ko'tariladi, goh tushadi. Albatta, ushbu sharoitlarda o'qituvchi va talaba ham to'fonlarni bartaraf etishda

qudratli kuchga ega bo‘lishi kerak. Talabalarni tarbiyalashda tyutor xodimi ularda yaxshi natijaga erishishida, yaxshi kayfiyat, o‘ziga ishonish, umid qilish, do‘st orttirish kabi hayotiy sohalarga xos bo‘lgan munosabatlarni shakllantirish bilan birga ulardagi qo‘rquv, xavotir va boshqa salbiy holatlarni bartaraf etish, iroda va idrokni mustahkamlashda shaxsning muayyan muammoni hal qilish masalasiga ongli munosabatini amalga oshirish, iroda kuchini safarbar etishi, maqsadning barqarorligi va vositalarning ishonchliligiga e’tibor qaratishi ijtimoiy-psixologik faoliyatida, ehtiyoj va manfaatlari, hissiy-ruhiy kechinmalarni namoyon bo‘lishiga va undan zavqlanish, motivatsiya olish hamda ichki inersiyani yuzaga chiqarishga milliy va umuminsoniy moddiy va ma’naviy manbalarga nisbatan individual qarashlarning ijtimoiy mezonlar doirasida kamolotga yetkazish mexanizmini shakllantirishi muhim chunki ushbu jarayonlarda talabaning fe’l-atvori, irodasi va jur’atliligi har bir ishni boshlashda erkinligi unga ishonch va dadillik beradi. Natijada, ularda har qanday vaziyat va qiyinchiliklardan oson chiqib keta olish, mustaqil fikrlarga ega bo‘lish rivojlanib boradi. Shuning uchun tyutor xodimi imkon qadar talabalarni ertaroq ijodiy fikrlashga o‘rgatishi, salbiy fikrlarni aniqlashi va ularni ijobiyga almashtira olishi o‘z samarasini ko‘rsatadi. Buning uchun tyutor xodimi tarbiya jarayonida bolalarni xavotirga solayotgan salbiy fikrlarni bee’tibor qoldirmasligi, jiddiy muammolarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilarni amalga oshirishi muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda talabalar o‘z his tuyg‘ulari bilan har bir masalaga xolis yondashish, jiddiy muammolarni e’tiborga olish, har doim quvnoq va baxtiyor bo‘lishlari uchun ularda salbiy fikrlashga qarshi kurashish usullarni qo‘llashi guruhdagi muhit o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan ham talabalarda sog‘lom turmush madaniyati, ijobiy fikrlar, maqsadlar, axloqiy fazilatlarni shakllantirish ularda umidvorlik va dalillik tuyg‘ularini rivojlantiradi. Shuning uchun talabalar shaxsiyatining shakllanishini inobatga olgan holda hayotiy sinovlarga dadil va shijoat bilan yondashishni o‘rgatish, ularda o‘zlariga ishonch hamda qiyinchilikni yengish uchun yetarli ko‘nikmalarga ega bo‘lish kabilar tarbiya jarayonining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Tarbiya jarayonida talabalarda muammoning to‘g‘rililigiga ishontirish, ushbu muammo haqiqatga xos ekanligini asoslash va u qanday ko‘rinishga bog‘liq ekanligiga e’tibor qaratish, muammodagi masalalarga oid javoblarni to‘g‘ri tanlashda, dunyoqarash, ijobiy fikr-u hayollar, hissiyotlarning kuchli ta’sir qilishi qanchalik muhimligini ularga tushuntirish ahamiyatli hisoblanadi. Muammolarni ko‘rib chiqish jarayonida ularning ko‘pchiligi to‘g‘ri emasligini yoki to‘g‘ri anglash insonlar bilan bo‘lgan munosabatda, murakkab vaziyatlar ro‘y berganda baho berish, qarashlar, ahamiyat berish, fikr yuritish, o‘zgarishlar, cheksiz imkoniyatlarni yaratish imkoniyatini beradi. Mehr-muhabbat va ijodga undovchi muammolar ijobiy va samarador bo‘lib, talabaning har bir harakatida ularni o‘zlashtira olishlari muvaffaqiyatli yechimi borligini anglashlari ularda vaziyatga ijobiy yondashish, tashabbuskorlik jihatlarini vujudga kelish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jarayonlarda talabalarda turli vaziyatlada mustaqil ravishda yechimlarni izlash, ijodiy yondashish natijasida ularning dunyoqarashi o‘zgaradi va qobiliyatlari rivojlanadi.

Ba’zi bir talabalarning ushbu ishlarda chegaralanib qolish holatlarda ular o‘zlarini uquvsizday ko‘rsatadilar. Biroq ushbu mas’uliyatni yuklash unda shu ishni uddalash, o‘ylay boshlash salohiyatini namoyon qiladi. Odatda, talabalar o‘z faoliyatlarida xato qilsalar, ota-onadan yoki o‘qituvchidan dashnom eshitadilar. Bu bilan talaba xato qilmasligi kerak degani emas. Aksincha o‘qish jarayonida to‘g‘ri va noto‘g‘ri bo‘lgan muammolarni ziddiyatlarni bartaraf etish, talabalar hayot va faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga inson xatti-harakatlari, shaxsiy xislatlarini ajrata

olishlarini o‘rgatish ijobiy va salbiy holatlarga bo‘lgan munosabatlarni rivojlantiradi. Buning uchun ular bilan mashhur shaxslar haqida tadbirlar o‘tkazish mashq qilish, har bir ishda namuna bo‘lish, o‘z qobiliyatlariga ishonish kabilar barkamol bo‘lib voyaga yetish imkoniyatini yaratadi va amaliyot yordamida mustahkamlaydi.

Talabada barcha yechim va javoblarni topish muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Albatta, bunda talabaning o‘zlari muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lish to‘g‘ri bo‘ladi. Albatta, bunda talabalar salomatligini saqlash, inson qadriga yetish va uni mustahkamlashni o‘rgatish bevosita tyutor xodimi faoliyatining tarbiya jarayoniga bog‘liq. Tarbiya nihoyatda qudratli kuch sifatida talabalarda o‘zini boshqarish, o‘zini – o‘zi tuzatish, salomatligini ta’minlash va har qanday dardni oldini olish mexanizmlariga ega. Ayniqsa, tyutor xodimining talabalar bilimini mustahkamlash uchun alohida e’tibor qaratishi, ularni sog‘lom va kuchli voyaga yetishishiga g‘amxo‘rlik qilish muhim hisoblanadi. Talabalarni tarbiyalashda tyutor xodimi va o‘qituvchilarning yaxshi o‘rnak bo‘lishi, yoshlarga saboq berishi, ularga ma’suliyat bilan yondashishi muhim o‘rin tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni tarbiyalashda professor-o‘qituvchilarning faol ishtirok etishlari va ularning kelajagi uchun jon kuydirishlarida o‘z talabalarining do‘stlari, yaqinlari haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishlari, jamoatchilik bilan hamkorlikda ish olib borishlari, tarbiya haqidagi tajribalarni ommalashtirishlari, ma’naviy tadbirlar o‘tkazilishi shaxsni shakllantirishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Tarbiya imkoniyatlari va undan olgan saboqlar talabaning o‘zini tutishida, fikrlashida va o‘ziga bo‘lgan ishonchida ham o‘zgarishlar vujudga keladi. Tyutor faoliyatida talabalarning qobiliyati, ko‘nikma va intellektlarini yuzaga chiqarish, kashfiyotchi, shoir, faylasuf va kelgusi avlod uchun o‘qituvchi bo‘lish tafakkur va o‘z samarasini beradi. Natijada, talabalarga dadil va saxovatli bo‘lib kamol topadilar va baxtga erishadilar. Chunki ular ulg‘aygan sari hayotga nisbatan ongi, o‘zidagi o‘y hayollari, hissiyotlari va qarashlari, ichki dunyosi hamda inson va hodisalarga bo‘lgan munosabatlar shakllanadi. Buning natijasida ular ichki hamda tashqi olam o‘rtasidagi farqni ko‘ra olish, ko‘z oldiga keltirish, voqea va hodisalarga munosabat bildirish kabi xususiyatlari kamol topadi. Har bir talaba yaxshi do‘st orttirishni orzu qiladi. Albatta bunda oliy ta’lim muhiti muhim o‘rin tutadi.

Ushbu holatlar bir tekis bo‘lmay bir qarasang, atrofda do‘stlar ko‘payib ketadi. Bir qarasang, do‘stdan hech kim qolmaydi. Ushbu jarayonda professor-o‘qituvchilar talabalarga ibratli do‘st bo‘lish, do‘stlashish, yangi do‘st orttirish, do‘stona aloqalarni mustahkamlash uchun zarur harakatlar va sifatlar bo‘yicha namuna bo‘lishi kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, talabaning ijobiy sifatlarini yaxshi jihatlarini aytib, maqtab qo‘yish, uni tushunish, axloqiy fazilatlarini kuzatib borish, ulardagi ijobiy holatlarni e’tirof etish, mehr-muhabbatga loyiq ekanligiga ishonch bildirish ularning manaviy jihatdan rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tyutor xodimi o‘z faoliyatida talabaning kuch-quvvatni rivojlantirish baxtli, sevimli va alohida qobiliyatli bo‘lishi uchun yordam berish, kabilarining kayfiyatda ijobiy munosabatlarini mustahkamlaydi. Talabalarda yangi do‘stlarni orttirishda professor-o‘qituvchilar ularga o‘zining hayotiy tajribalari, salbiy va ijobiy fikr hayollari yordamida ular bilan suhbat qilishi maslahatlar berishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlar asosida talabalarda o‘zini yaxshi his qilish, ijobiy umidlarga ega bo‘lish holatlari vujudga keladi. Talabaning tarbiyasida ko‘plab odamlar hissa qo‘shishlariga to‘g‘ri keladi. Ular bolaga kerakli ko‘nikmalarni o‘rgatib, jamiyat uchun kerakli insonga aylanishlariga yordam beradilar. Shu nuqtayi nazarda davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi asosida talabalar tarbiyasi borasida komil inson strategiyasini ishlab chiqish, unda odamlarning mehr va hayotiy tajribalarini namuna qilib ko‘rsatish

maqsadida, davlat va nodavlat birligi asosida talaba yoshlarni tarbiyalash va ularning odatlari va hayot tarzini rivojlantirishda yetuk mutaxassislarning o‘zaro munosabatda bo‘lishlari ijobiy samara beradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bola dastlabki tarbiyani oiladan – ota-onasi, opa-ukalaridan oladi. Lekin bu bilan kifoyalanib qolmaydi. Bugungi hayot tarzi shu qadar murakkab va tez bo‘lishi munosabati bilan talabalarning tarbiya olishi uchun manbalarning imkon doirasini kengaytirish, noto‘g‘ri tushunchalarni bartaraf etish, ularga saboq berishda bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan hikmatli naqlni amalga oshirish muhim o‘rin tutadi. Chunki har bir mahalla a’zolarining o‘gitlari, nasihatlari tarbiya jarayonlarini mustahkamlashga yordam beradi. Yangi ijobiy tushunchalar yaratishga harakat qilish, istalgan fikr va g‘oyani mustahkamlash, ularni salbiy holat-latlardan xalos bo‘lish, yangi muammolarning yechimini topishda talabalarda: “ Men buni bajara olaman”, “Harakat qilib ko‘raman” , “Boshqalardan o‘zib ketish mening asosiy maqsadim”, “Muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritish uchun tinmay mehnat qilish lozim” kabi psixologik xususiyatlarni shakllantirish o‘z samarasini beradi. Chunki talabada muvaffaqiyat qozonish, omadsizlikka qarshi, vaj-bahonalar va boshqa qarshiliklardan voz kechish kabilarni amalga oshirish ular irodasini mustahkamlaydi.

Ushbu jarayonda talabalar o‘z yutuqlaridan ko‘ngillari to‘lib, hayotdagi yangi ax-borot, g‘oya va tushunchalardan ijobiy faydalanadilar. Yangi g‘oyadan ruxlanish ularning shaxsini shakllantirish, yangi g‘oyadan ruhlanish, quvonish, zavqlanish xususiyatlarini rivojlantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, milliy tarbiya g‘oyasi har bir o‘qituvchi, talaba ongida mustahkam o‘rin nihol kabi o‘zini tutib olishi uchun e’tibor berish kerak bo‘ladi. Chunki talabaga bo‘lgan g‘amxo‘rlik uning yangi g‘oyalarini ro‘yobga chiqishiga va fikrlarining ongida o‘sishiga imkoniyat yaratadi. Natija ma’lum bir vaqt o‘tishi natijasida yangi tushunchalar vujudga keladi. Yangi g‘oyalarni o‘qish jarayonida o‘zlariga singdira olish ishonchi rivojlanadi. Albatta, ushbu jarayonda ta’lim-tarbiyaga oid mashqlarni bajarish, yangi tushunchalar yaratishga harakat qilish, ularni mustahkamlash, vaqtdan to‘g‘ri foydalanish, kutilayotgan muvaffaqiyatlarga erishish kabilarga e’tibor kuchayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxkamov, U. I. Mamatqulova M. Malaka oshirish jarayonlarida o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish. –2017-y.

2. Mavlanova S. U Yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha falsafa (phd) dissertatsiyasi avtor Chirchiq –2022.

3. Jon Grey. Erkaklar mars, ayollar esa venera sayyorasidan osmondan tushgan bolalar Book media nashr –T., –2020-y.

Abdug‘afur AVLIYOQULOV,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishda tarixiy materiallardan foydalanishning integrativ yondashuv metodologiyalari orqali zaruriy bilim, malakalarni fanga qo‘llay olish haqida o‘z tushuncha va tavsiyalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Matematika, algebra, geometriya, simmetriya, ta’lim, integrativ yondashuv, tarixiy materiallar, umumta’lim maktablari, metodologiya.

В статье представлены его понимание и рекомендации о том, как применить необходимые знания и умения в науке через комплексный подход к использованию исторических материалов в обучении математике в общеобразовательной школе.

Ключевые слова. Математика, алгебра, геометрия, симметрия, образование, интегративный подход, историчний материал, общеобразовательная школа, методология.

The article presents understanding and recommendations on how to apply the necessary knowledge and skills to science through an integrated approach to the use of historical materials in the teaching of mathematics in secondary schools.

Key words. Mathematics, algebra, geometry, symmetry, education, integrative approach, historical materials, public schools, methodology.

O‘zbekiston Respublikasida yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy o‘zgarishlar Xalq ta’limi tizimida ham o‘z aksini topmoqda. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, shu asosda ta’lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish ta’lim tizimining eng dolzarb vazifasiga aylandi. Bu esa, hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari oldiga juda katta mas’uliyat va vazifalarni qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z asarlarida, – “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi[2]” deb ta’kidlaganlar.

“O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni”, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “...o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalarni joriy etish”[3] vazifalari belgilangan. Bu borada o‘quvchilarda tayanch va fanga doir kompetensiyalarni shakllantirishning matematik va informatsion tarkibiy asoslarini aniqlashtirish, integrativ yondashuvga

asoslangan matematika fanini o‘qitishning ta’lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini takomillashtirish, xususiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonining “Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 7 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining IV-yo‘nalishi 41-maqsadda “Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali Xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish[4]” vazifalari qo‘yilgan bo‘lib bu umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilariga katta mas’uliyat va vazifalar talab etadi. Shu maqsadda integrativ ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv muammolari o‘zining ilmiy, nazariy va amaliy xususiyatiga ega soha ekanligi ilmiy tadqiqotlarda qayd qilingan.

Dunyo hamjamiyati tomonidan ta’limni barqaror taraqqiyot, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda aniq fanlar, jumladan, matematika fanini ta’lim oluvchilarga sog‘lom turmush madaniyati, matematik kompetentlilikni rivojlantirishdagi ta’siriga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda aniq fanlar, jumladan, matematikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’lim tizimida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish, matematik bilimlarni kundalik va hayotiy faoliyatda qo‘llay olish layoqatini oshirish, bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish, integrativ ta’limni qo‘llash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va tafakkurni kengaytiradi. Umumta’lim maktablarida matematika fanini qiziqarli va tushunarli qilib o‘qitish uchun matematika fanini integrativ yondashuv asosida tashkil etish o‘quvchilarni matematik bilimlarni kengaytirish bilan birga boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishini orttiramiz. Bu esa matematika ta’lim tizmida yangicha yondashuv asosida darslarda foydalanish uchun tayyorlagan ko‘rsatmali vositalari (ko‘rsatmali qo‘llanma, diagramma, jadval, rasm, kolleksiyalar, proyeksiyon ko‘rgazma) dan foydalanish samarali natija beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan yurtimizning yosh avlodlari jahon bolalari bilan teng fikrlay olish, turli jabhalarda o‘zini ko‘rsata olishi zarur. O‘quvchilarni matematika faniga qiziqish uyg‘otish, mantiqiy fikrlashni yanada oshirish uchun ularga matematika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish yaxshi samara beradi.

Matematika fani – bu juda qiziqarli fan bo‘lib, nafaqat matematik masalalar yechishda balki fizika, kimyo fanlarida, qurilish sohasida va hayotimizning boshqa ko‘pgina sohalarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan fandir.

Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, ishlab-chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, diametrni o‘lchash ma’lum darajada oson, diametr uzunligining bu miqdorga ko‘paytirib, aylana uzunligini topish mumkin bo‘ladi. Avvaliga har qancha aylananing uzunligi diametridan 3 marta katta ekanligi aniqlangan. So‘ngra bu natijani 3 marta katta ekanligi aniqlandi, o‘shanda matematiklar bu sonni aniq emasligini bilishdi. Hisoblashlarda muammo bo‘lmasligi

uchun qadimgi Grek matematiklari grek alifbosining π (pi) harfi bilan belgilashadi. π sonining aniq qiymati oddiy yoki o‘nli kasr orqali ifodalash mumkin emasligini isbotlaganlar. Biz uchun hisoblashda yuzdan birgacha aniqlikdagi qiymatidan foydalanish yetarli: π≈3,14… Uning yuz milliarddan bir qiymati π≈3,14159265359 ga teng.

Endi diqqatni algebraning fanining vujudga kelishiga qarataylik. Odamlar ko‘p jihati o‘xshash bir xil tipdagi masalalarni yechishga duch kelishdi: maydon yuzini hisoblash, berilgan ma’lum bir shakldagi jismning hajmini topish, foydani bo‘lib olish, mahsulot narxini hisoblash va hokazo. Turli mamlakatlarda turli vaqtlarda bir xil tipdagi masalalarni yechishning umumiy qoidalarini topishga harakat qilindi. Bu qoidalarga o‘xshash masalalar guruhi uchun berilgan sonlar orqali noma’lum miqdorni topish o‘rganiladi. Shu tariqa matematikaning bir bo‘limi asosan turli tenglamalarning yechimi qaralgan algebra paydo bo‘ldi. Ayrim algebraik tushunchalar va masala yechishning umumiy usullari 4000 yil avval qadimgi Vavilonda va Misrda bo‘lgan.

Algebraning yaratilishida buyuk qadimgi grek matematigi Diofant (III asrda) katta hissa qo‘shdi va algebrani otasi nomini oldi. Diofant murakkab masalalarni yechdi, noma’lum uchun harfiy ifodalarni qo‘lladi, hisoblash uchun maxsus simvollarni kiritdi. Bizning eramiz boshida grek fani o‘z mavqeyini yuqotdi. Lekin bu vaqtda hind matematiklari muhim natijalarni qo‘lga kiritishdi. V asrdan VII asrgacha ular juda ko‘p yangilik qilishdi, algebraning negizlari boyidi. IX-XV asrlarda juda ko‘p olim-matematiklarni yetishtirgan fanning jahon markazi O‘rta Osiyo bo‘ldi. Ularning ishlari Yevropa fanlarining rivojlanishi o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 825-yilda Al-Xorazmiy “Kitob al-jabr val-muqobala” kitobini yozdi. Bu jahonda birinchi algebra kitobi edi. Shu vaqtdan boshlab algebra mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Algebra so‘zi “al-jabr” so‘zidan olingan bo‘lib, rus tilida “восполнение” ma’nosini anglatadi: Al-Xorazmiy manfiy qo‘shiluvchilarni tenglamaning bir tomonidan ikkinchi tomonga qarama-qarshi ishora bilan o‘tkazgan. Keyinchalik algebraning rivojlanishiga yevropalik olim Fransua Viyet (1540-1603) va Rene Dekart (1596-1650) hissa qo‘shdi, ular algebraga harflarni kiritdi va harfiy ifodalar ustida amallar bajarishni ishlab chiqishdi.


Geometriya so‘zi greklardan kelib chiqqan bo‘lib, Geya qadimgi grek mifologiyasida yerning xudosi, metr uzunlik o‘lchov birligi deb atalgan, shuning uchun geometriyani yer o‘lchash deb atash mumkin. Tarjimadan geometriyani bevosita amaliy talablardan kelib chiqqanligi ma’lum bo‘ldi. Bu yerda yer maydonining o‘lchash masalalari muhim o‘rin tutgan. Bu masalalarda yuzani hisoblash zarur bo‘lib, birinchi o‘rinda kesmani o‘lchash kerak bo‘lgan.

Shunday qilib geometriya tarixan o‘lchash bilan bog‘liq. Lekin geometriyaning keying mazmuni kengayishi shunday darajaga yetdiki, endi geometrik figuralar va ularning xossalari birinchi o‘ringa chiqdi.


Shu bois, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan yettinchi sinfdan boshlab geometriya fanidan juda ko‘p geometrik figuralar bilan tanishadilar. Masalan, nuqtalar, to‘g‘ri chiziqlar, nur, kesma, to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat, turli burchaklar, aylana, parallel va perpendikulyar to‘g‘ri chiziqlar va hokazo. Ba’zan, hatto juda yaxshi ma’lum bo‘lgan matematik tushunchalar uchun ta’rif berish zarur bo‘ladi, ta’rifda esa figuralarning xossalari o‘z aksini topadi, demak, uning asosida matematik muhokamani bajarish mumkin. Jumladan, burchakning xossalarini bilmasdan turib, o‘tmas burchakdan kichik bo‘lgan to‘g‘ri burchak, o‘tkir burchak haqidagi mulohazalarning rostligini muhokama etib bo‘lmaydi. Qadimgi grek matematigi Evklid birinchi bo‘lib barcha geometrik figuralarga ta’rif berishning iloji yo‘qligini tan olgan va ulardan ba’zilari ta’rifsiz qabul qilinishi kerak deb xulosa chiqargan. Bunday tushunchalar asosiy tushunchalar deyiladi. Ta’rifsiz qabul qilinadigan tushunchalar

tasvir yoki material obraz orqali tez qabul qilinadi. Geometriyaning asosiy tushunchalariga nuqta, to‘g‘ri chiziq va tekislik kiradi. Geometrik tushunchalarga ta’rif berish uchun uning bosh xarakteristik xususiyatlariini bilish kerak. Masalan, aylananing ta’rifini berishda uni sirkul yordamida yasash uchun uchlari orasidagi masofani o‘zgarmasligini esga olish zarur. Shuning uchun aylanani berilgan nuqtadan bir xil masofada yotgan nuqtalar to‘plami sifatida aniqlasak bo‘ladi. Bu ta’rif nuqta va masofa tushunchalariga asoslanadi. Matematikada, odatda, avval yangi tushunchaning ta’rifi beriladi, so‘ngra mos rasmlar chiziladi. Lekin teskari yo‘l ham juda muhim. Ta’rif ba’zan unitilishi mumkin, ularni eslash esa zarur, muhokama qilish uchun ularga murojaat qilamiz. Tushunchalarni ta’rifini so‘zli ifodasiga nisbatan bir umr esga saqlash, geometrik obraziga, rasmiga nisbatan eslab qolish qulay bo‘ladi. Real obyektlarning go‘zalligi va turli tumanligi figuralarning simmetrik xossalariga bevosita bog‘liq, ya’ni to‘g‘ri, tartiblangan, takroriy, garmoniya va aksincha, noto‘g‘ri nosimmetriklik, tartibning buzilishi va hokazo. Simmetrik va nosimmetriklik insonning tabiatini idrok qilish va bunyodkorlikning yuzaga kelish estetikasini yaratish asosini tashkil etadi. Tabiatdagi barcha predmetlar taqqoslaganimizda mutlaq simmetrik elementga ega bo‘lgan go‘zallikni tarannum etuvchi obyektlarni kuzatish mumkin. Demak, tabiat algebra va geometriya bilan go‘zaldir. Shuday qilib, poeziya va musiqada, me’morchilik va arxitektura, tirik va jonsiz tabiatda bir-biri bilan bog‘langan aniq qonun qoidalar mavjud. Bu qonun-qoidalarni yozish uchun geometriyada maxsus tushunchalar yaratilgan. Masalan, simmtriya tushunchasi. Eng soddasi o‘q simmetriyasi hisoblanadi. Simmetriyaning ikkinchi bir ko‘rinishi burishdir.

Markaziy simmetrik figuralarga to‘g‘ri chiziq, parallelogramm va aylana misol bo‘la oladi. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki simmetriya markazi turlicha bo‘lishi mumkin: to‘g‘ri chiziqda cheksiz ko‘p, parallelogram va aylanada bitta.



1-chizma



2-chizma



3-chizma

Simmetriyaning yana bir ko‘rinishi bu parallel ko‘rinishidir. Qadimgi grek matematigi Yevklid birinchi bo‘lib barcha geometrik figuralarga ta’rif berishni iloji yo‘qligini tan olgan va shuning uchun ulardan ba’zilari ta’rifsiz qabul qilinishi kerak deb xulosa chiqargan. Bunday tushunchalar asosiy tushunchalar deyiladi.

Manfiy sonlar bir qancha vaqt o‘tgach (natural sondan so‘ng) paydo bo‘lgan. Manfiy sonlar haqidagi birinchi ma’lumotlarni eramizgacha bo‘lgan II asrda Xitoy matematiklari aytishgan. U vaqtda musbat sonlar biror narsa sifatida, manfiy sonlar esa qarz, yetishmovchilik sifatida qaralgan. Misrliklar ham, vavilonliklar ham, qadimgi greklar ham manfiy sonlarga ishonchsizlik bilan qarashdi. Yevropada manfiy sonlardan foydalanish XII-XIII asrga to‘g‘ri kelib, ularga ham qarz sifatida qaralgan. Manfiy sonlarni tan olish fransuz

matematigi, fizik va faylasuf Rene Dekartning ishlaridan jonlandi. U musbat va manfiy sonlarning geometrik obrazini yaratdi, ya'ni fanga koordinata to‘g‘ri chizig‘ini (1637-yil) kiritdi. XVIII asrga kelib, umuman, manfiy sonlar to‘liq tan olindi va ular uchun zamonaviy belgilashlar tasdiqlandi. Matematika tarixida buyuk kashfiyot aksiomatik metod bo‘ldi, bundan 2300-yil avval yashagan yunonistonlik geometrik Evklid uni yorqin ifodaladi. O‘zining “Negizlar” nomli asarida har qanday muhokama mantiqiy asoslangan xulosalar orqali qurilishini ko‘rsatuvchi geometriyani yaratdi. Bu Evklid geometriyasi bo‘lib, zamonaviy geometriya kursining asosini tashkil etadi. G‘oya isbotlanishining keyingi bosqichi deduksiyadir. “Bugungi kunda deduktiv metod nafaqat geometriyada, balki matematikaning barcha bo‘limlarida, shuningdek, algebrada foydalaniladi. Shunga qaramasdan geomeriya va algebra turli predmetlar bo‘lib, geometriya bizni o‘rab turgan olamning fazoviy shaklini o‘rganadi, algebra esa ularning orasidagi sonli munosabatini o‘rganadi, har ikkala predmet uchun umumiy poydevor mantiq qonuni bo‘ladi[6]”. Sonlarning xossalari va ularning ustida bajariladigan amallarning o‘rganadigan fan sonlar nazariyasi deyiladi. Sonlar nazariyasi faning asoschisi Pifagor, Evklid, Erotosfen va boshqalar shular jumlasidandir. Sonlar nazariyasining ayrim muammolari sodda ifodalansa-da, ularni yechish ba'zan murakkab, unga ancha vaqt ketdi, ayrimlari esa hozirgacha o‘z yechimini topmagan. Masalan, qadimgi grek matematiklarda hammasi bo‘lib, bo‘luvchilarning yig‘ndisi bir-biriga teng bo‘lgan ikkita son (sonning o‘zi kirmaydi) 220 va 284 mavjud bo‘lgan. 250 yil avval Peterburg akademiyasining a'zosi Xristian Goldbax 5 dan katta har qanday toq sonni uchta tub sonning yig‘indisi ko‘rinishda ifodalash mumkin deb aytgan. Masalan, 21=3+7+11, 23=5+7+11, 29=5+11+13, 31=5+7+19, 37=7+13+17 va hokazo. Buni 200 yildan so‘ng rus matematigi, akademik Ivan Matveyevich Vinogradov (1891-1983) isbotlashga erishgan. Qadimgi grek va qadimgi hind matematiklari biror geometrik shakl, masalan, uchburchak, kvadratga mos keladigan sonlar qiziqtirgan. Bunday sonlar figurali sonlar deb deb atalgan.



4-chizma



5-chizma

Bunday tasvir greklarni sonlarni xossalarini o‘rganishga yordam bergan. O‘zbekistonda matematikaning asoslari birinchi sinfdan o‘qitiladi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida matematikani o‘rganish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston”. “O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligi”. –T.: O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2021-yil. –396-b.

2. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. –T.: O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017-yil. –488-b.

Farruxjon DALIYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

SIYOSIY MANIPULYATSIYA BORASIDAGI ILMIY NAZARIYALARNING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya

Maqolada siyosiy manipulyatsiya o‘zining bosh maqsadi va undan foydalanish natijasida jamiyatda yuzaga keladigan oqibatlari bilan ajralib turilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy media vositalarining paydo bo‘lishi esa manipulyatsiya xususidagi yangi nazariya hamda qarashlarni ishlab chiqishi zamonaviy siyosiy manipulyatsiyalar bu borada tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilardan mazkur hodisaning hozirgi bosqichdagi qiyofasi va ko‘rinishlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Siyosiy manipulyatsiya, ijtimoiy media, ongga ta’sir o‘tkazish, siyosiy hukmronlik.

В статье рассматривается, чем отличается политическая манипуляция по своей основной цели и последствиям, возникающим в обществе в результате ее использования. Также появление современных средств массовой информации и развитие новой теории и взглядов на манипулирование, современные политические манипуляции, исследователи, проводящие исследования в этой связи, выявили появление и проявления этого явления на современном этапе.

Ключевые слова. Политическая манипуляция, социальные сети, влияние на сознание, политическое господство.

The article discusses the difference between political manipulation in its main purpose and the consequences arising in society as a result of its use. Also, the emergence of modern media and the development of a new theory and views on manipulation, modern mass political manipulation, researchers conducting research in this regard, have identified the emergence and manifestations of this phenomenon at the present stage.

Key words. Political manipulation, social networks, influence on consciousness, political domination.

Manipulyatsiya uni amalga oshiruvchidan katta bilim va mahorat talab qiladi. Ayniqsa, gap jamoatchilik ongini egallash haqida borsa va turli aksiyalarni ishlab chiqishda maxsus mutaxassislar yoki hech bo‘lmaganda vaziyat bilan tanish, o‘z ustida ishlagan bilimli shaxslar ishtirok etishlari lozim bo‘ladi. Yangi davrda jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilish texnologiyalari shakllangani sari mazkur texnologiyalardan yoki uning qismlaridan foydalanuvchi professional xodimlar, ilmiy muassasalar, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar paydo bo‘la boshladi.

Insonlarni manipulyatsiya qilishga doir ta’limotlar va nazariyalar XX asrga kelib paydo bo‘ldi. Biroq, ta’kidlash joizki, mazkur nazariyalar uchun manbalar butun insoniyatning tarixi doirasida to‘plangan tajribalari asos bo‘lgan. Manipulyatsiya hodisasining murakkab, ko‘p o‘lchovli tabiati uni o‘rganishda bir qator fanlar doirasida parallel ravishda bo‘lgan va bo‘layotgan turli yondashuvlarni keltirib chiqaradi. XX asr yirik nazariya va ta’limotlarning vujudga kelishi hamda ular asosida kuchli ta’sir o‘tkazish texnologiyalarini yaratish davri bo‘ldi.

Manipulyatsiya jarayonlarini tahlil qilishda olimlar ko‘proq ushbu hodisada individlarning ommaga birlashtirilishi ehtiyojiga e’tibor beradilar. Olomon fenomeni, omma o‘ziga xos xususiyatlari psixologlar tomonidan o‘rganib chiqiladi va tegishli baholarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga ikkinchi jarayon – individuallashuv manipulyatsiyaga qarama-qarshi hodisa hisoblanib, tadqiqot doirasidan bir muncha chetda qolmoqda. Chunki u yuqori darajada o‘z-o‘zini anglash va bilish bilan belgilanib manipulyatsiyaga uchrashi kamroq deb hisoblanadi. Biroq ular ham manipulyatsiya obyektlari bo‘lishdan chetda qolmaydi.

Individullashuv jarayonida subyekt madaniyatni isloh qilishga, hayot tarzini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishga intiladi. O‘z shaxsiyatini ilgari surishi, ajralib chiqishga intilib o‘ziga xos obrazni yaratmoqchi bo‘lishi ortidan bunday toifadagi odamlar manipulyatsiyaning har qanday ko‘rinishiga ega ta’siriga tushib qolishi mumkin. Bunday holatning eng ibtidoiy ifodasi bu reklamadir (“Siz boshqalarga o‘xshamang”, “Bir xillikdan qoching”, “Bir qadam oldinda bo‘ling” va hokazo). Aslida bu yerda psixologik ta’sirdan odamni yakkalashga bo‘lgan intilish yotadi. Yakkalangan shaxs esa o‘zini ojiz va himoyasiz his qilishi mumkin. Shundan so‘ng unda jamoaga intilishga bo‘lgan istak paydo bo‘ladi. Oxir-oqibat inson ongini boshqaradigan yoki biror bir mafkuraga bog‘liqlikka majbur qiladigan jamoalar shakllanib boradi.

Ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalar esa alohida shaxsni yoki kichik guruhni emas balki insonning jamiyat bilan munosabatlarini ko‘rib chiqadi. Bu yerda asosiy subyektlar omma, sinflar, ijtimoiy qatlamlar, turli faoliyat guruhlari va davlatdir. Endilikda munosabatlar faol ozchilik tomonidan nofaol bo‘lgan ko‘pchilikni manipulyatsiya qilishga bo‘lgan intilishga asoslanadi. Bu jarayon davlatning ichida siyosiy guruhning hokimiyat uchun kurashida va keyinchalik uni saqlab qolishga intilishida hamda global miqyosda ham sodir bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalarning asoslarini N. Makiavelli yaratgan. U birinchi bo‘lib siyosiy fanlarga olomon tushunchasini siyosiy yetakchi tomonidan boshqariladigan obyekt sifatida kiritadi. Uning fikricha, olomon – bu siyosatchi aslida hodisani bilib, uni diqqat bilan kuzatib turgan voqeaga nisbatan kam e’tibor beradigan va faqat tashqi ko‘rinishga ahamiyat beradigan odamlardir. Makiavelli oddiy sinf yoki zodagon bo‘lishlaridan qat’i nazar insonlar zaruriyat hamda aqlning irodasi bilan bo‘ysunadigan his-tuyg‘ular, ehtiroslar va emotsiyalar maydoni bilan ajralib turishini ta’kidlaydi. Aqlli hukmdor mazkur his-tuyg‘ulardan foydalana olishi lozim. Muhimi barchaning ko‘nglini oladigan fazilatlarni birday egallash emas, balki, qanday qilib unga bo‘ysunishlaridir. Shunday qilib, N. Makiavelli XVI asrdayoq keyinchalik manipulyatsiya yordamida siyosiy hukmronlik haqidagi turli ta’limotlarning asosini tashkil qiluvchi g‘oyalarni yaratgan.

Yevropa davlatlarida burjua inqiloblarini keltirib chiqarganlar ham ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalarning shakllanishiga hissa qo‘shganlar. Burjua inqilobining vazifasi uni o‘zgalarning qo‘li bilan amalga oshirish, oddiy odamda eski tuzumdan voz kechish tuyg‘usini shakllantirish va uni monarx hokimiyati qulatilganidan keyin farog‘atli hayot sarobi vasvasasiga solish edi.

Olimlar, faylasuflar va gumanitar fanlarning turli namoyondalari ommaning xatti-harakatlarini dasturlashda o‘z hissalarini qo‘shdilar. Angliyada I. Nyuton va uning izdoshlari olamning yangicha manzarasidan ‘‘tabiiylik’’ g‘oyasini ilgari surdilar hamda undan konstitutsiyaning tabiiylik xususiyatini targ‘ib qilishdi. Xususan, Quyosh gravitatsiya qonunlariga bo‘ysungani kabi qirol hokimiyatini ham cheklash kerakligi haqidagi g‘oyalar edi. Olim va faylasuf Tomas Gobbs burjua jamiyati uchun asosiy

va haligacha amalda bo‘lgan inson haqidagi egoizm hamda yolg‘iz atom g‘oyasiga asoslangan ‘‘barchaning barchaga qarshi urushi’’ni ishlab chiqdi. Fransiyada esa ma’rifatparvarlarning yarim asrlik faoliyati jamiyatga ‘‘eski tartib’’ so‘zini tushuntirishga sarflandi. Ma’rifatparvarlar inson tafakkurini eskilik sarqitlaridan ozod qilish va yangi, ilmiy dunyoqarashlarni singdirish kabi ishlardan tashqari, siyosiy rejalar asosida odamlarning ongiga ta’sir o‘tkazish orqali inqilobchilar avlodini tayyorladilar.

Ta’kidlash joizki, Fransiyada manipulyatsiyadan siyosiy maqsadlar yo‘lida foydalanishni Napaleon Bonapart hukmronligida ham yaqqol misollarni kuzatish mumkin. Xususan, Napaleon Bonapart hokimiyatini mustahkamlash maqsadida yakobinchilarning g‘oyalaridan foydalangan. Shunga qaramay u yangi qabul qilingan Fransiya konstitutsiyasini aniq, biroq tushunarsiz yozishni buyurgani tarixchilar tomonidan batafsil keltirib o‘tilgan.

XX asrga kelib “Chikago maktabi” vakillari saylovchilar hamda insonlar xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkazish bo‘yicha tizimli tadqiqotlardan iborat faol ilmiy faoliyatni boshlab berdi. “Chikago maktabi” XX asrning 20-yillarida AQShning Chikago shahridagi universitetda asos solingan tadqiqotchilar guruhi edi. Uning asoschisi va yorqin namoyondasi esa Charlz Edvard Merriam bo‘lgan. U Chikago universitetining professori bo‘lish bilan birga AQShning federal hamda mahalliy davlat idoralarida faol siyosiy faoliyat olib borgan. Ch. Merriam Chikago universitetning siyosiy fanlar bo‘limini boshqarishdan oldin mazkur shahar merligi uchun nomzodlar ro‘yxatida turgan. Shu bilan birga, u o‘z faoliyati davomida siyosiy amaliyot natijasida to‘plangan nazariy qarashlarini ilmiy darajaga ko‘tarishga intildi. Ch. Merriam siyosatshunoslik fanlari bilan real hayot o‘rtasidagi aloqani kuchaytirishni istagan edi. U “Siyosatning yangi jihatlari” asarida yangi davr siyosatida avval rivojlatirilgan yuridik va tarixiy-qiyosiy metodlardan voz kechishni qo‘llab-quvvatladi hamda ularning o‘rniga psixologik va statistik metodlardan kengroq foydalanishni taklif qildi.

Natsistlar jangovar harakatlar davomida dushmanga targ‘ibot va g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatishdan keng foydalanishgan. Ularning bu sohadagi yutuqlari keyinchalik ikki qutbga bo‘lingan buyuk davlatlarning tajovuzkorona tashqi siyosatidagi asosiy vositasi bo‘lgan axborot urushlari mafkurachilari ta’limotining asosini tashkil qildi. 1948-yil 18-avgustida tarixda ‘‘Dalles rejasi’’ deb atalgan, AQSh Milliy Xavfsizlik Kengashi tomonidan 20/1 sonli ‘‘AQShning Rossiya bilan munosabatlaridagi maqsadlari’’ bo‘yicha dastur tasdiqlangan. Bu jamoatchilik ongini o‘zlariga mos tarzda o‘zgartirishni maqsad qilgan tomon uchun axborot qurol sifatida xizmat qiladigan urushning yangi turi sifatida boshlang‘ich nuqta bo‘ldi.

20/1 sonli dasturga ko‘ra, jamoatchilik ongiga, xususan, atrofdagi dushman davlatlarning aholisi, hukmron elitasini manipulyatsiya qilish uchun yolg‘on g‘oyalarni kiritish bosh vazifa etib belgilanadi. Jumladan, A. Dalles ushbu urushning maqsadlarini shunday ta’riflagan: “Odamlarni aldash va ahmoq qilish uchun biz o‘zimizdagi bor oltinlarni, barcha moddiy boyliklarni tashlaymiz. Inson miyasi, odamlar ongini o‘zgartirish mumkin. Biz u yerda xaosni yuzaga keltirib ularning qadriyatlarini sezdirmasdan yolg‘on bilan almashtiramiz va ularni bu yolg‘on qadriyatlarga ishonishga majbur qilamiz. Qanday qilib? Biz o‘z maslakdoshlarimizni, ittifoqchilarimizni Rossiyaning o‘zidan topamiz. Voqealar ketma-ketligi natijasida ulug‘vor, isyonkor xalqning o‘z-o‘zini anglashi yakuniy, qaytarib bo‘lmas darajadagi falokatga yo‘liqadi”.

XX asrning 60-70 yillarga kelib manipulyatsiya tushunchasi “sovuq urush” ishtirokchilari tomonidan bir vaqtda faol ishlatila boshlandi. Sotsialistik mamlakatlar adabiyotlari g‘arb OAVning manipulyatsion xatti-harakatlarini obro‘sizlantirishga qarshi qaratayotgan bir paytda, AQSh tomoni SSSR va XXRni Koreya va Vetnam urushlarida asirga

tushgan amerikaliklarning ‘‘miyasini yuvishda’’ (brainwashing) ayblab o‘z ittifoqchilarini ishontirishga harakat qila boshlaganlar. Bugungi kunda manipulyatsiya tushunchasi asosan shakl va mazmuni maxsus tayyorlangan axborotni ommaviy ravishda tarqatish orqali dunyoning kognitiv qiyofasini yaratib, ongga fikrlar, g‘oyalar va tasavvurlarni kiritish orqali odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish tarzida namoyon bo‘lmoqda.

Targ‘ibot va tashviqot faoliyati bo‘yicha olib borilayotgan aksariyat zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, media vositalari yordami bilan jamoatchilik fikrini shakllantirishda dasturiy algoritmlarning qo‘llanilishi, doimiy takrorlash va ‘‘big data’’lar (ma’lumotlarning ulkan jamlanmasi)dan foydalanish kuzatilmoqda. Hozirgi kunda manipulyatsiyaga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar aksariyat davlatlarda ijtimoiy media yordamida shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamoalarga ta’sir o‘tkazilishi bo‘yicha olib borilmoqda. Amerikalik psixolog, San-Diego universiteti professori Jeyn Tvenj (Jean Twenge) 25 yil davomida turli avlodlar o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan. U mazkur kuzatishlari o‘laroq 2012-yilda o‘smirlar xulq-atvori va emotsiyalari o‘zgarishlarga uchraganligini aniqladi. Xususan, Jeyn Tvenj avvalgi avlodlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan erkinlik va mustaqillik zamonaviy avlod vakillari uchun qiziq emasligini aniqladi. Bu esa zamonaviy o‘smirlar ongi manipulyatorlar uchun qulay obyektga aylanishiga olib keladi.

Zamonaviy media vositalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlari bo‘yicha har yili hisobot e’lon qilib boruvchi Oksford Universiteti va Oksford Internet instituti olimlari 2020-yilda ham shunday tadqiqot natijalarini e’lon qilishdi. Hisobotga ko‘ra, 2020-yil davomida turli davlatlar hukumat va siyosat namoyondalari jamoatchilik fikrini boshqarish vositasi sifatida ijtimoiy media orqali manipulyatsiyani kuchaytirib borayotganligi ta’kidlanadi. Xususan, mazkur tadqiqotga ko‘ra, siyosiy partiyalar va hukumatlarning tashviqot vositalaridan foydalanishida yangi o‘zgarishlar ko‘zatilmaydi, biroq media vositalar bo‘yicha yangi standartlar axborotni global miqyosda yoyishga va maqsadga yo‘naltirishga, turli mintaqalardan turib tezkor ravishda o‘zaro xabar almashishga imkon yaratib bermoqda.

Hisobot mualliflari ijtimoiy mediada tashkillashtiriladigan tashkilotlar yordamida insonlar fikriga ta’sir o‘tkazishga intilish yildan-yilga ortib borayotganini qayd etganlar. Xususan, ijtimoiy media orqali manipulyatsiya tashkilotlarini olib boruvchi davlatlar soni 2018-yilda 48 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilda 70 ta va 2020-yilga kelib ular 81 taga yetgan. Mazkur davlatlar ro‘yxatida AQSh, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil kabi dunyoda axborot texnologiyalari sohasidagi qudratli davlatlar bilan birga ushbu sohada rivojlanish bosqichiga kirgan yoki kirishga intilayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston ham mavjud. Ularning fikricha, yuqoridagi davlatlarda ijtimoiy media yordamida jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun media targ‘ibotdan foydalanish keng tarqalib boryapti.

Media targ‘ibotlardagi foydalanilayotgan turli metodlar hamda vositalar yordamida katta hajmli ma’lumotlar va uni qabul qiluvchilardagi ishonch darajasining yuqoriligi, cheklangan darajadagi diqqatlilik axborot muhitida odatiy holga aylanmoqda. Ayniqsa, bunday holatlar rivojlangan davlatlardagi saylov tashkilotlarida yoki turli siyosiy jarayonlar vaqtida tajriba sifatida sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Xususan, hozirga qadar ijtimoiy mediani muvaffaqiyatli qo‘llay olgan siyosatchilar ichida shubhasiz AQShning 44-prezidenti Barak Obama yetakchi o‘rinlarda turadi. Ta’kidlash joizki, Internet maydonidagi ijtimoiy mediadan yuqori ustalik bilan foydalanilgan birinchi saylov tashkiloti bu Barak Obamaning AQShdagi 2008-yilgi prezidentlik saylovlarida amalga oshirilgan. Barak Obama aynan o‘z obunachi (followers)larining ulkan armiyasi tomonidan qo‘llab-

quvvatlanishi tufayli prezidentlik kursisini egallashga muvaffaq bo‘ldi.

“YouTube” videoxostingi Obama nutqlarini e’lon qilish va siyosiy muxolifatchilarning bayonotlariga javob berish uchun platforma sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga, “YouTube” ijtimoiy tarmog‘i orqali Obamaning shtabi raqiblar foydalangan har qanday mavzuni e’tiborsiz qoldirmasdan juda tez javob qaytarishgan. L. Jonson va J. Karterlarning saylov kampaniyalarida faol bo‘lgan siyosiy maslahatchi Toni Shvars siyosiy reklama roliklarini chiqarish muddatining tezligini bir necha kun deb hisoblagan bo‘lsa, Obama davriga kelib raqiblarga javob qaytarish bir necha soat, hatto daqiqalar bilan o‘lchandi.

Ijtimoiy mediadagi manipulyatsiyani tadqiq qiluvchi nemis siyosatshunosi Simon Xegelix (Simon Hegelich) 2014-yilda Ukrainadagi mojarolarga ta’sirini ko‘rsatgan botlar tarmog‘ini aniqlagan. Uning ma’lum qilishicha, 15 ming soxta akkauntlar kuniga 60 mingtadan ko‘proq turli mazmundagi postlarni qoldirishgan. Uning “Deutsche Welle”ga bergan intervyusida aytilishicha botlar armiyasi 2016-yilda AQShdagi saylov tashkilotida ham faol qatnashgan. Ukrainada 2022-yilning fevral oyida boshlangan harbiy vaziyatni ham urushayotgan tomonlar o‘z manfaatlariga moslashtirgan holda talqin qilib, jamoat ongini manipulyatsiya qilishga urinmoqdalar.

Shunday qilib manipulyatsiya – bu hukmronlik texnologiyalarining bir qismi ekanligi barcha tadqiqotchilar tomonidan tan olinganligini kuzatish mumkin. Hozirgi vaqtgacha, manipulyatsiya muammosi bilan bog‘liq asosiy tadqiqotlar psixologiya va siyosatshunoslik doirasida amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. Psixologiyada psixik ta’sir ko‘rsatish mexanizmlariga asosiy diqqat qaratiladi va bunda shaxslararo manipulyatsiyaga ko‘proq urg‘u beriladi. Siyosatshunoslik yondashuvida esa haqiqiy holat faqatgina ayni vaqtda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tahlil qilishi natijasida tezda namoyon bo‘lmasligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birgalikda XXI asrga kelib manipulyatsiya jarayonlari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bu borada yangicha yondashuvlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyat hayotida axborotni uzatish va uni qayta ishlovchi yuqori mahsuldor tizimlarning ko‘payishi manipulyatsiya muammosiga ilmiy qiziqishlarning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynadi. ‘‘Axborot jamiyati’’ning shakllanishi manipulyatsiya texnologiyalarida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Ta’sir o‘tkazishning eski texnologiyalari o‘z samarasini berishni to‘xtatdi va ularning o‘rnini yangi usullar egalladi. Shuni ta’kidlash joizki, ta’sir o‘tkazish usullari o‘zgargani bilan siyosiy manipulyatsiyaning mohiyati o‘zgarishsiz qolgan. Biroq, muammo shundaki, avvalgi nazariy yondashuvlar manipulyatsiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy jarayonlarni tushuntirishda qiyinchliklarga duch kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Симонов П.В. Теория отражения и психофизиология эмоций. – М.: Наука, 1970. – С.240.

2. Макиавелли Н. Государь. – М.: Эксмо, 2003. – С.655.

3. Тарле Е.В. Напалеон Бонапарт. – М.: Академии наук СССР, 1957, –С.82.

4. Мерриам Ч. Новые аспекты политики // Антология мировой политической мысли: в 5 т. Т. 2: Зарубежная политическая мысль, XX в. / Ред. –сост. Г.К. Ашин, Е.Г. Морозова. – М.: Мысль, 1997. – С.176–184.

5. Войтасик Л. Психология политической пропаганды / Пер. с пол. – М.: Прогресс, 1981. –С.94.

Muhayyo UMARALIYEVA,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OTA-ONALAR VA MAHALLA MUTASADDILARINING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqola nogiron farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarini uzluksiz malaka oshirish masalalariga qaratilgan. Mualliflar nogiron farzandlar uchun ota-onalar va mahalla mutasaddilarini uzluksiz malaka oshirishi bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Mahalla, mutasaddilar, nogiron farzand, ijtimoiy texnologiyalar, bilim, malaka, ko‘nikma.

В статье акцентируется внимание на непрерывном обучении родителей и представителей общественности созданию полноценного образа жизни детей с ограниченными возможностями здоровья. Авторы дают отзывы о проводимом обучении родителей и общественных деятелей для детей с ограниченными возможностями.

Ключевые слова. Махалля, чиновники, дети-инвалиды, социальные технологии, знания, квалификатция, навыки.

The article focuses on issues of continuous professional development of parents and community officials in order to create a fulfilling lifestyle for disabled children. The authors gave their opinions and comments on continuous professional development of parents and community officials for children with disabilities.

Key words. Neighborhood, officials, disabled child, social technologies, knowledge, competence, skills.

Yangi O‘zbekistonning zamonaviy mahalla mutasaddilari yangi ijtimoiy-kasbiy texnologiyalarga moslashishni, turli axborot-kommunikatsion tizimlar va ularning subyektlari bilan uddaburonlik bilan o‘zaro ishlashni bilishi kerak. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va talabchan bo‘lishi uchun inson umummadaniy va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Hozirgi paytda mahallalarda faoliyat olib borayotgan mutasaddilar (fuqarolar yig‘ini raisi, uning o‘rinbosarlari) tomonidan ijtimoiy-kasbiy mobillikka erishish mehnat bozorida raqobatbardoshlikka, o‘zining kasbini erkin egallashiga va faoliyatning aralash sohalarida mo‘ljal olishiga, doimiy kasbiy o‘sishiga tayyorligini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Demak, fuqarolar yig‘ini raisi va uning o‘rinbosarlari doimo yangillikka intiluvchan va ushbu yangiliklarni o‘zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, natijaviyligini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash kabi jarayonlarga tayyor turishi kerak.

Loyihada taklif etilayotgan yangilik jarayonning tarkibiy tuzilishini muammolar, yangi-

lanishga ehtiyoj, subyektlar, maqsad, vazifalar, mazmun, metodlar, natija tashkil etadi.

Nogiron farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish – ularni harakatga keltiruvchi, maqsad sari boshlovchi kuchdir.

Bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatdir.

Shunday ekan, nogiron farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish yo‘nalishida tashkil etiladigan o‘quv jarayonlar, yani murakkab pedagogik tizim komponenti bo‘lgan jarayonlarni samarali boshqarish dolzarb masala hisoblanadi.

Material va usullar: mazkur jarayonda ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda tashkil etilajak jarayonlarni oldindan loyihalashtirish, bunda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, biz nogiron farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish yo‘nalishida tashkil etiladigan o‘quv jarayonlarni murakkab, ko‘p darajali pedagogik tizim sifatida izohlashda quyidagi bir qator xususiyatlarni innovatsiyalarga xos xususiyatlar deb hisoblaymiz: dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo‘ljallanganlik, insonlarning qiziqishi bo‘yicha tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarni subyekt tomonidan qabul qilinishi.

Tashkil etilayotgan masofaviy malaka oshirishning ahamiyati shundaki, bunda ota-onalar va mahalla mutasaddilari, nogiron farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish bo‘yicha ularning qiziqishi va yangiliklarga bo‘lgan munosabatlarini obyektiv baholash imkoniyati tug‘iladi, pedagogik jarayonda o‘zaro munosabatlarning o‘zgarishi, keskinlashuv yoki muvofiqlashuv vujudga keladi va o‘z navbatida, mazkur jarayonga mos keluvchi loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati tug‘iladi.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirib borishda, eng avvalo, ko‘zlangan maqsadlarga erishishda mahallalarning istiqbol maqsadi va imkoniyatlarini nogironligi bo‘lgan bolalar manfaati bilan uyg‘unlashtirishni hamda mahallaning faoliyatini zamonaviy o‘zgarishlarga moslashtirib borish, uzoq muddatli boshqaruv dasturlarini boshqaruv jarayoniga tatbiq etish zarur.

Bu o‘z navbatida, istiqbolni tadqiq qilish va maqsadlarga erishishda, rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni oldindan tahlil qilish, rivojlantiruvchi bunyodkor g‘oyalar va ularni amalga oshirish yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar talab qiladi.

Jumladan, ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirib borish masofaviy malaka oshirish jarayonlarida amalga oshiriladi.

Demak, ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirib borish jarayonlari – ota-onalar va mahalla mutasaddilarining ijtimoiy soha bo‘yicha yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish asosida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘quvlarni tashkil etish orqali tizimli rivojlantirib borish qisqa muddatli masofali o‘quv kurslari, sayyor malaka oshirish, o‘quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq eshiklar kuni, turli xil kechalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy-metodik, meto-

dik materiallar tayyorlash, shuningdek, malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslaridagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda masofadan malaka oshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarini masofaviy malaka oshirishini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad – oilalarida nogironligi bo‘lgan farzandlar ota-onasiga ijtimoiy ko‘mak berish ishlari samaradorligini ta’minlash, masofaviy malaka oshirish ta’lim, qisqa muddatli sayyor malaka oshirish jarayonlarini tizimli tashkil etish, rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasida namuna ko‘rsatgan va barchaga o‘rnak bo‘lgan oilalar tajribasini ommalashtirishdan iborat.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarini malakasini oshirish jarayonlari “Kaskad” texnologiyasi asosida tashkil etiladi.

Natijalar va muhokama: loyihani amalga oshirish orqali mahallalarda nogiron farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish maqsadida ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi, ularning malakasini uzluksiz oshirib borish, mustaqil ta’lim, qisqa muddatli sayyor malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish asosida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining sifat va samaradorligini ta’minlash hamda muvofiqlashtirishga erishiladi.

Malaka oshirish jarayonlarini amalga oshirishning “Kaskad” mexanizmi joriy etiladi, monitoringi yo‘lga qo‘yiladi, samaradorligini tahlil qilish asosida mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va bajarilishi nazorat qilinadi.

Ota-onalar va mahalla mutasaddilarining malakasini oshirib borish bo‘yicha hududlar kesimida dolzarb muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

“Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi mustahkamlanadi, ota-onalarning nogironligi bo‘lgan farzandlari tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati oshishiga erishiladi va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi (hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari huzurida “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi hududiy jamoat kengashlarida nogironligi bo‘lgan farzandlar uchun to‘laqonli hayot tarzini yaratish masalasini tizimli muhokama etib borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 1-2-son, 1-modda, 2009 y., 52-son, 554-modda; 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda.

2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –160-b.

3. Богданова Т.Г. Структурная организатция интеллектуальной деятельности лиц с нарушениями слуха на разных этапах психического развития. Автореф. дисс.док.псих.наук. Санкт-Петербург, 2010.

4. Musurmonova A. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth. Fledu.pdf. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. –T., 2017-yil, № 3. P.168-172.

Saidaxbor BULATOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR PORTRETINI FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TAHLILINING MANTIQIY YECHIMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada atoqli davlat arbobi, iste'dodli shoir, adib, tarixchi, olim, shu bilan birga tarjimon Zahiriddin Muhammad Bobur noma'lum rassom tomonidan ishlangan miniatura asarini falsafiy, psixologik va mantiqiy tahlil qilish metodikasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Nimcha, model, quyosh, bulutlar, g'oya, ramz, naqsh, geometrik naqsh, afsonaviy mavjudotlar, komillik, muhir, tarix, mantiq, namoyon, kompozitsiya, simmetriya, toshlar, ko'chma taxtiravon, salla, belbog'.

В данной статье описывается методология философско-психологического и логического анализа миниатюрного произведения, созданного художником Ока, выдающимся государственным деятелем, талантливым поэтом, писателем, историком, ученым, переводчиком Захириддином Мухаммадом Бабуром.

Ключевые слова. Нимча, модель, солнце, облака, идея, символ, узор, геометрический рисунок, мифические существа, совершенство, печать, история, логика, проявление, композиция, симметрия, камни, цветок, переносной стул, тюрбан, пояс, вода.

This article describes the methodology of philosophical, psychological and logical analysis of the miniature work created by the artist Oka, a distinguished statesman, talented poet, writer, historian, scientist, and translator Zahiriddin Muhammad Babur.

Key words. Nimcha, model, sun, clouds, idea, symbol, pattern, geometric pattern, mythical creatures, perfection, seal, history, logic, manifestation, composition, symmetry, stones, flower, portable chair, turban, belt, water.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tug'ilgan. O'sha davrda uning otasi Umar Shayx Mirzo Andijon hokimi edi. Otasidan 11 yoshida yetim qoladi va 12 yoshida taxtga o'tiradi. U Saroy muhitida tarbiyalandi, o'qidi, yoshligidan ilmga, she'riyatga berildi. Dovyurakligi, jasurligi, epchilligi tufayli uni "Bobur", ya'ni "Yo'lbars" deb atadilar.

Ustozi va piri: Xoja mavlonoyi Qozi Abdulloh[1].

Asarlari: Boburning eng yirik asari "Boburnoma"dir, u qomusiy xarakterdagi asar bo'lib, tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Bobur o'g'li Humoyun Mirzoga atab musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag'ishlangan, davlatni boshqarish va zakot qonun-qoidalari to'g'risida "Mubayyin", arab alifbosining islohiga oid "Xatti Boburiy[2], aruz vazni va qofiyaga oid "Mufassal", "Risolai volidiya", "E'tiqodiya" kabi asarlar yaratgan.

[1] O'zbek milliy ensiklopediyasi. –T., 2001.83-b.

[2] Zahiriddin Muhammad Bobur. Ensiklopediyasi. 2015, 784-b.

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, iste'dodli shoir, adib, tarixchi, olim, shu bilan birga tarjimondir. "Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi"[3].

Bobur keng va chuqur bilimli hamda ajoyib iste'dodli, zamonasining ulkan madaniyat arboblaridan bo'lib, u doimo ilm-fan, san'at va adabiyot ahli bilan yaqindan aloqa tutar, ularga homiylik qilib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.

Bobur o'zbek klassik adabiyotinig, ayniqsa, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini o'rganadi. O'zbek va fors-tojik tillarida yangi, original she'rlar yaratadi. Bizgacha Boburning ikkita devoni yetib kelgan.

Bobur lirikasi o'zining hayotiyligi, taraqqiyparvarona fikrlarni ifodalashi, badiiy soddaligi, jo'shqinligi va til boyligi bilan o'zbek va dunyoviy adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. G'azal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlardir. Hayotga muhabbat, yor va diyor sevgisi, hijron va g'urbat dardi, badbinlik va tarkidunyochilik ustidan kulish yaxshi xulq-odob va ma'rifat targ'ibi – Bobur lirikasining tematik doirasini tashkil etadi. Bobur Lutfiy, Navoiy, Hayom va Hofiz kabi ustoz shoirlarning an'analarini davom ettiradi, rivojlantiradi, naziralar va muhammaslar yaratadi.

Boburning eng yirik asari bo'lgan "Boburnoma"[4] uni butun dunyoga tanitdi. "Boburnoma" tarixiy-badiiy asar bo'lishi bilan birga o'zbek prozasining qimmatli yodgorligi hamdir. Shu bilan birga, geografiya, etnografiya, tabiiyot, xalq tibbiyoti va boshqa ilmiy sohalar bo'yicha ham qimmatli ma'lumotlar beruvchi asar, o'zbek adabiy tilining muhim yodgorligidir.

Bobur 1503-1504-yillarda "Xatti Boburiy" deb nomlangan alifbo yaratadi. Alifboning vujudga kelishi va tilga muvofiqlashtirish g'oyasining tug'ilishi katta progressiv hodisa edi. Uning muhim tomoni shundaki, alifboda unlilar "zerzabar" tarzidagi belgilar bilan emas, balki maxsus harflar shaklida berilgan.

Bobur ilm-faning turli sohalarga doir bir necha qimmatli asarlar yaratdi. Shulardan biri aruzga doir "mufassal" ("Muxtasar") deb nomlangan risolasidir. Risola aruz nazariyasini boyitadi va to'ldiradi.

"Mubayyin" asari qonunshunoslikka bag'ishlangan bo'lib, masnaviy formasida yozilgan. Bobur, shuningdek, bizgacha yetib kelmagan musiqa nazariyasi va harbiy san'atga oid asarlar muallifidir. Bobur o'z davrining barkamol farzandi va qomusiy aqlga ega shaxs bo'lgan. U o'zining g'ayrat-shijoati, o'tkir aqli, nozik ta'bi, faoliyatining ko'p qirraliligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Qisqasi, Bobur jahon adabiyotining ulug' namoyondalaridan biridir. U o'lmas asarlari bilan juda ko'p xalqlarga manzur bo'ldi, badiiy adabiyot taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

Shoh va shoir o'z yurtidan yiroqda hayot kechirganligi bois uning hayotida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, Vatan qayg'usi ustunlik qildi, u umr bo'yi o'z vataniga talpinib yashadi. Bobur ijodida haqiqiy barkamol inson timsoli madh etiladi, ulug'lanadi. U doimo inson qadr-qimmatini yuqori tutadi, insonlarni kamtarlikka, halollikka, poklikka undaydi. Bobur ijodiy merosidan ta'lim jarayonida foydalanish orqali, avvalo, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin hamda ularda insonparvarlik, kamtarlik, imon-e'tiqod kabi axloqiy fazilatlar yuksaltiriladi. O'zbekiston va jahon rassomlarining tasviriy san'at asarlaridan namunalar berib borish orqali talaba-yoshlarimizda tasviriy san'atning turli janrlarida yaratilgan asarlarni falsafiy-psixologik tahlil qilish malakasini shakllantirish va yuksaltirish maqsadini ko'zladik. Ma'lumki, portret janrida ijod qilgan

[3] Javoharla'l Neru. "Hindistonning kashf etilishi" kitobidan.

[4] Boburnoma. –T., 1993.

ko‘plab mo‘yqalam sohiblari ulug‘ bobokalonimiz Zahriddin Bobir qiyofasini akademik Malik Nabiyev, professor G‘ofur Abdurahmonov va boshqa musavvirlar aks ettirishgan.

Shulardan biri noma’lum rassom tomonidan ishlangan portretni badiiy, falsafiy, psixologik va mantiqiy tahlil qilib ko‘ramiz.

Biz tahlil qilgan materiallarimiz tasviriy san’at, amaliy san’at, tarix, ma’naviyat va adabiyot darslarida o‘qituvchilar keng o‘rinda foydalanish mumkin. Tasviriy san’at asarlarini tahlil qilishdan avval rassom haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, asar haqida rassomlarni va san’atshunoslarni fikrlari haqida ma’lumot to‘planadi. Ushbu asardagi holati va undagi qismlar ro‘yxati tuzilib ramziy ma’nolari yozib chiqiladi. Ushbu materiallar asosida tahlil qilinadi va tegishli modeli va tegishli xulosalar xulosasi chiqariladi[5].

Umumta’lim tizimining turli bosqichlari, xususan, oliy ta’limda tayyorlanayotgan kadrlarimizni jahon andozalari talablariga javob beradigan, barkamol inson qilib tarbiyalash uchun talaba yoshlarimizni san’at asarlarini ham xuddi badiiy asar o‘qigandek, yoxud hisob-kitobni o‘rgatgandek o‘rgatilsa, tayyorlayotgan kadrlarimizni sifat-samaradorligi oshadi natijada, O‘zbekistonda uchunchi renessans poydevorini mustahkam qurgan bo‘lamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur portretini badiiy, falsafiy va psixologik tahlilining mantiqiy yechimi[6].

Yoshligidan ilmga, she’riyatga berildi. Dovyurakligi, jasurligi, epchilligi tufayli uni “Bobur”, ya’ni “Yo‘lbars” deb atadilar.

Ustozi va piri: Xoja Avlonoiy Qozi Abdulloh.

Asarlari: Boburning eng yirik asari “Boburnoma”dir. U qomusiy xarakterdagi asar bo‘lib, tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Bobur o‘g‘li Humoyun Mirzoga atab musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag‘ishlangan, davlatni boshqarish va zakot qonun-qoidalari to‘g‘risida “Mubayyin”, arab alifbosining islohiga oid “Xatti Boburiy”, aruz vazni va qofiyaga oid “Mufassal”, “Risolai volidiya”, “E’tiqodiya” kabi asarlar yaratgan.



Zahiriddin Muhammad Bobur portreti

[5] Bulatov S.S., Saipova S.M. Badiiy tahlil tamoyillari. (monografiya) –T.: Fan va texnologiya, 2016, 74-95-betlar.

[6] Bulatov S.S., Saipova S.M. Badiiy tahlil tamoyillari. (monografiya) –T.: Fan va texnologiya, 2016, 74-95-betlar.

Bulutlar – Rassom bulutlar tasviri orqali bir qancha falsafiy fikrlarni, mushohadalarni aytmoqchi bo‘lgan. Bu yerda bulut dunyoning o‘tkinchiligi, vaqtning o‘tib borishi va shu bilan birga inson umriga ishora qilinmoqda. Hayotda yaxshi-yomon kunlarning bo‘lishi, Boburning hayoti ham jang-u jadallar, kurashlar bilan o‘tganligi, hayot bor ekan kurashlar ziddiyatlar davom etaveradi degan ma’nolarni beradi. Bulutli osmon yomg‘irli kunlar ya’ni, Boburning qalb ko‘z yoshlari timsolidir.

Turnalar – Turnalar sog‘inchni ifodalaydi. Bobur ko‘kda turnalarga boqib balki, shu turnalar Andijon tog‘lariga ham qo‘nib o‘tishgandir, balki shu tarafdan uchib kelayotganmikin? – degan o‘yni ifodalaydi. Bu o‘y Boburning sog‘inch tuyg‘ularini yanada oshiradi. Shu bilan birga ilinjdek tuyular edi. Qani endi o‘z vataniga qaytib bora olsa, yo‘q buning iloji yo‘q endi. Birdamlilik, intilish hindiy va Boburiylar sulolasini yaratdi.

Tog‘lar – Yuksaklikka intilish ulug‘vorlik Bobur hayotidagi amallarni tog‘lar kabi ulug‘vor abadiyatga taalluqlilikni bildiradi. Tug‘ilib o‘sgan vatani va hind diyori o‘rtasida ramziy ma’noda o‘tib bo‘lmas to‘siq chegara borligini bildiradi. Vatan sog‘inchi qalbida kechayotgan tug‘yonlari go‘yo shu tog‘larda aks sadodek qalblarni larzaga keltirishini his qilish mumkin.

Salla va ukipar – Salla Boburning buyuk shoh ekanligini, ukipar esa shoirligini bildiradi. Ulug‘lik, bilimlilik, martaba mazhablarni bildiradi Sallani ikki turi bor. 1-uyda 2-ko‘chada kiyiladi. Umrida ko‘p jabr zulm ko‘rgani va hayot yo‘li adabiyotga oshufta ekanligini bildiradi.

Mevasiz daraxt – Boburning armonlari, ushalmagan orzulari, tug‘ilib o‘sgan vatanni Andijondagi hayotidir. O‘z vatanida oilasi ko‘nglidagidek bo‘lmagan. Mustahkam shajara tuza olmagan. Bir joydan ikkinchi joyga qochib yurishga majbur. Bir joyda muqim yashashiga imkoni bo‘lmaydi. Hayotining bu davrlarini mevasiz daraxtga qiyoslash mumkin. Ya’ni samarasiz desa ham bo‘ladi. U paytlar Bobur yosh navnihol shahzoda bo‘lgan.

Gullagan daraxt – Gullagan daraxtni Boburiylar sulolasining ramzidir. Boburning Hindistonda buyuk davlatini barpo qilganligi, boburiylar sulolasining davomiyligini ramziy ma’noda ifodalangan. Gullagan daraxtni tasviri orqali qaysi fasl tasvirlangani ko‘rsatilgan. Gullagan daraxtlar bahor faslini, tabiat go‘zalligini bildiradi. Farzand, yangi davlat, oilaning barpo etilishi. 1. Hayot ramzi, 2. Inson, 3. Farzand. Bobur Mirzo Hindistonga kelganidan keyin u bosqinchi zolim bo‘lib emas balki, bu davlatning gullab yashnashi rivojlanishi uchun ko‘p islohotlar o‘tkazgan. Qoloq va qashshoq o‘lkani gullab yashnatadi. Madaniyat markaziga aylantirdi.

Bulut ortidagi quyosh – Bulut ortidagi quyoshga e’tibor qilsak, mevali darax tepasida botayotganini ko‘ramiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, rassom Bobur Hindistonda vafot etdi demoqchi. Shu bilan birga Boburning yorug‘likka intilish, hayotidagi qiyinchilikka qaramay yaxshi kunlarga umidni bildiradi.

Tashqi libos – Zarhal ranglarda ishlangan kiyik tasviri orqali Bobur beg‘ubor qalb sohibi ekanligini anglash qiyin emas. Ko‘ngli nozikligini, himoyasizlikni, beozorlikni ifodalaydi. Nimchada Bourning tabiatiga munosabati ko‘rsatilgan.

Nimcha – Nimcha guli hayotdagi go‘zallik, olg‘a intilish qiyinchiliklarni oson yengib o‘tish demakdir. Libos xarakterni bildiradi. Ohu uning nozik didli tabiatan san’atga va adabiyotga oshnoligini anglatadi.

Kitob – Beshikdan to qabrgacha ilm izlaganligidan darak beradi. Kitob bilimli, ijodkorlikni, o‘z ustida ko‘p ishlaganligini, oqillik ramzini bildiradi. Bu kitob “Boburnomadir”. Unda Boburning butun hayot yo‘li bitilgan.

Belbog‘ – Bardamlilik ramzi, kuch qudratini, oqilona siyosat, mustahkam davlat qura olganligini bildiradi. Bu belbog‘ matodan ishlangan. U Boburni navqiron ekanini anglatib turadi.

Tumor va zirak – Hidistonning milliy taqinchog‘i shu yurtning urf-odatlari, an’analarga bo‘lgan hurmatini ifodalagan. O‘z e’tiqodiga sodiq qolgan, hayotdagi muammolarning yechimini topa oladigan, toju-taxt uchun jon-jahti bilan kurashuvchi kuchli iroda egasi, davlat boshqaruvchisidir. Zirak Hindiston podshosi bo‘lganligini, tumor esa ko‘p qiyinchiliklardan omon qolganini bildiradi.

Xamyon – O‘zga yurtda bo‘lishiga qaramay, boylik pul timsoli. Badavlatlilikni ifodalaydi. Badavlatlilik yangi davlatning kuch qudrati. Davlat tinch totuv bo‘lsa, turmush farovon bo‘ladi. Hamyon esa uning boy badavlat, podsholigini anglatadi.

Nimcha bezaklari – Ohular beozor jonivor. Tog‘larda erkinda yashashadi. Bobur qalbini siqib yotgan g‘uborlardan hech qachon qutila olmasligidan his qilib shu ohularga havas qilgandir. Tabiatning go‘zalligini ko‘rsatadi. Bu bezaklarda kiyiklar tasvirlangan.

Ko‘chma taxtiravon – Ko‘chma taxtiravon shohlar to‘rtta oyog‘i dunyo ustunligi, o‘z yurtidan ayrilib o‘zga yurtga shoh bo‘lgani haqida. Darbadarlik yurt, vatan sog‘inchi. Taxt mansab o‘tkinchi narsa ekanligini bildiradi. Chunki, ko‘chma taxtiravon muqim bir joyda bo‘lmagan.

Taxtiravon bezaklari – Alloh yaqinligi. Alloh nazari tushgan inson ekanligini bildiradi. Ikkita charxpalak ikki dunyosi foniy va boqiy ikki olamni ifodalaydi.

Maxsi-kovush – Bir oyoqning yerdan uzilishi muallaq holatda turishi Bobur hech qachon tug‘ilib o‘sgan yurtidan ko‘ngil uza olmaganligi bir oyog‘i har doim ona yurtiga talpinib yashaganini bildiradi. Hindistonda mustahkam davlat barpo etganligini, u yerda shoh bo‘lgan bo‘lsa ham qalbi ona vataniga talpinishiga ishoradir. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, O‘z yurtingda gado bo‘l. (Xalq maqoli)


Suv – Suv bu tiriklik ramzi. Hayot manbai. Inson umrining daryodek oqib o‘tishini, o‘tgan har bir lahzani ortga hech qachon qaytarib bo‘lmasligini ramziy ma’noda ifodalaydi. Hayot davom etayotganligini tinchlikni, osoyishtalikni bildiradi.

Toshlar – Hayot qiyinchiliklari va ularni mustahkam iroda bilan yig‘ib yashaganligini, bardamlilikni bildiradi. Toshlar g‘urbat va hayotida uchragan to‘siqlar va qiyinchiliklarga ishoradir.


Gullar – Gullar go‘zallikka intilish, go‘zallik, hayot quvonchlari, hayotning go‘zalligi, undan bahra olishni bildiradi. Hayotining gullagan davrlari oilasi va farzandlari ekanligini ifodalaydi.

Rassomning muhri – Noma’lum rassom o‘z muhrini rasmiga muhrlab qoldirgan. Hattotning muhri yoki taxallusi bo‘lishi ham mumkin.

Muhr-uzuk – Davlat hukmdori ekanini, davlatining mustahkamliligini, to‘g‘ri siyosat yuritayotganligini, halolligini bildiradi. Har bir podshohning, hukmdorning o‘z uzugi bo‘lgan. Bu uzuk muhr, tamg‘a vazifasini o‘tagan. Muhr qo‘yish uchun uzuk doim qo‘lida bo‘lgan.



Zahiriddin Muhammad Bobur.



Portretni mantiqiy yechimi.

Xulosa qilib aytganda, noma'lum rassom tomonidan ishlangan Zahiriddin Muhammad Bobur portreti chuqur falsafiy va psixologik ma'noga ega. Bobur portretida uning o'tkinchi dunyoda Andijon va Hindiston o'rtasida yashab o'tganligi, o'zga yurtda shoh bo'lsada, Vatan sog'inchida yashaganligini anglash qiyin emas. Shoh, sarkarda, shoir hamda yuksak qalb egasi ekanligi tasvirlangan. Boburning eng yirik asari bo'lgan "Boburnoma" uni butun dunyoga tanitdi. O'zga yurtda ya'ni Hindistonda vafot etadi. Vatan diydoriga to'ymasdan o'tganligi tasvirda o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Ensiklopediya. 2015. –784-b.
2. Bulatov S.S., Saipova S.M. Badiiy tahlil tamoyillari. (Monografiya) –T.: Fan va texnologiya, 2016. –74-95-betlar.
3. Javoharla'l Neru. "Hindistonning kashf etilishi" kitobidan.
4. Boburnoma. –T., 1993.
5. O'zbek milliy ensiklopediyasi. –T., 2001. –83-b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Ensiklopediya. 2015. –784-b.

Zulayxo RO‘ZIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA LOYIHALASHTIRISH – TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI ANIQLASH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida pedagogik qo‘llab-quvvatlash tajribasini (o‘z o‘qitish tajribamiz, hamkasblar bilan suhbatlar, ilmiy-amaliy manbalarning tahlili va boshq.) o‘rganish natijalarini umumlashtirib, ushbu funksiyani barajadigan vositalar loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyati samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Tajriba, faoliyat, loyiha, tadqiqot, muammo, vaziyat, analiz, ko‘nikma, malaka, integrativ hodisa, natija, vazifa, funksiya, struktura.

Обобщение результатов изучения опыта педагогического сопровождения учителей начальных классов в процессе обучения (собственный педагогический опыт, беседы с коллегами, анализ научно-практических источников и др.).

Ключевые слова. Опыт, деятельность, проект, исследование, проблема, ситуация, анализ, умение, квалификация, интегративное явление, результат, задача, функция, структура.

Generalization of the results of studying the experience of pedagogical support of primary school teachers in the learning process (own pedagogical experience, conversations with colleagues, analysis of scientific and practical sources, etc.)

Key words. Experience, Activity, project, research, problem, situation, analysis, skills, qualification, integrated event, result, task, function, structure.

Loyihalashtirish va tadqiqotchilik faoliyatlari va tegishli malakalarni o‘rganish yaqin o‘tmishdan beri birgalikda sodir bo‘lishini ta’kidlab o‘tish muhim. Bunda olimlar orasida farq, chegaralarni qat’iy belgilamasdan, balki ularni “loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyati” deb nom berilgan integrativ hodisa deb qarashadi. Loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyatiga bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan va ularda mualliflar loyihalashtirish-tadqiqotchilik ishlarini tashkil qilishning tegishli malakalari, shart-sharoitlari va modellarini taklif etishadi. Shu bilan birga, pedagogikada loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyati tajribasi hali yetarli darajada o‘rganilmagan, ushbu faoliyatni o‘qitish jarayoniga joriy qilishning asoslangan metodikasi mavjud emas, loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyatining pedagogik texnologiyasi to‘laqonli shakllantirilmagan, talabalarning loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyatini ularda loyihaviy-tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish uchun metodik jihatdan ta’minlash (qo‘llab-quvvatlash) vositalarini jalb qilishning zarur imkoniyatlari aniqlanmagan. Xususan, talabalarning loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyati yetarlicha ijobiy natija berishi ehtimol/mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlash muhimdir. Amaliyotning ko‘rsatishicha, birinchidan, o‘rta kasb-hunar ta’limning (O‘KHT) quyi kurslari talabalari tadqiqotchilik tabiatidagi loyihalashtirish vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga uchrash va muvaffaqiyatsiz ishlar/harakatlar/urinishlar bilan ko‘plab bog‘liq salbiy kechinma-

larni boshdan kechirishadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, O‘KHT talabalariga mustaqil ish ko‘nikmalarining yetishmasligi va o‘quv bilimlarini tayyor holda/shaklda o‘zlashtirish odati xosdir. O‘KHT talabalarining loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyatiga turli darajada tayyor ekanliklari sababli o‘quv dasturining muammosini shakllantirish (ifodalash) va maqsadlarini qo‘yish bosqichida, hamda ularda faoliyatning ushbu turiga qiziqishlarini mustahkamlash maqsadida ularga o‘zlariga ishonch darajasini oshirishga yo‘naltirilgan yordam, qo‘llab-quvvatlash zarurligi paydo bo‘ladi. Birinchidan, O‘KHT ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari tahsil oluvchilarning loyihaviy-tadqiqotchilik faoliyatlarini integratsiya qilingan hodisa sifatida tashkil qilish uchun mo‘ljallangan metodik materiallarni ishlab chiqishda ko‘pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Kasbiy ta’lim tizimida O‘KHT tizimidagi talabalarga mo‘ljallangan loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyati kabi o‘quv-metodik ta’minotning mazmuni, strukturasi, funktsiyalariga yangi qarashni ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ladi. Metodik ta’minotning mohiyatini, uning strukturasini, funksiyalari, vazifalari, boshqa pedagogik tushunchalar bilan aloqalarini tushunish, taqdim etishga bo‘lgan ko‘plab urinishlarga qaraganda, tadqiqotchilik ishlari (Y.L. Kamasheva, Y.A. Komarnitskaya, N.A. Moreva, B.V. Palchevskiy, Y.G. Tatur va boshqalar) zikr qilinayotgan mavzuning dolzarbligiga ishonch hosil qilish imkonini berdi. Loyihalashtirish-tadqiqotchilik malakalari kompleksi (to‘plami) ikki asosiy guruhni – loyihalashtirish va tadqiqotchilik malakalari guruhlarini o‘zida mujassam etadi. Shu jumladan, tadqiqotchilik faoliyatini o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning noma’lumning yechimini (yoki uni tushunishni) izlash bo‘yicha ijodiy o‘zaro faoliyatining davomida ular orasida madaniyat qadriyatlarining ko‘chirilishi/berilishi amalga oshiriladigan va bunda olamga, boshqalarga va o‘z-o‘ziga, tadqiqotchilik pozitsiyasi/munosabatini rivojlantirish, hamda dunyoqarashini shakllantirish (va kengaytirish) natija sifatida hisoblanadigan jarayon ekanligini aniqlash maqsadida tajriba sinovlarini Quyi Chirchiq tumanidagi bir qator maktablarda o‘tkazdik. Bir qator tadqiqotlarda o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchining shaxsiy shakllanishi, kasbiy motivatsiyaning rivojlanishi va hok. orasidagi aloqalarni o‘rnatishga urinishlar bo‘lgan. Biroq, o‘rta ta’limni modernizatsiya qilish (zamonaviylashtirish) sharoitlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga pedagogik qo‘llab-quvatlash yordamini ko‘rsatish zarurati kuchaydi. Bu vaziyat/holat zamonaviy axborot vaziyati bilan ham, yangi ta’lim standartlari bilan ham izohlanadi. Yangi avlod standartlariga o‘tishda OTMda mutaxassislarni tayyorlashning didaktik tizimini isloh qilish, o‘qituvchining umuman rolini qayta ko‘rib chiqish va o‘qitish jarayonida o‘qituvchining pozitsiyasi/o‘rnini (shaklan/mohiyatan) o‘zgartirish yo‘nalishini aniqlash zarurati paydo bo‘ldi. Masalan, o‘quvchining mustaqil ishining hajmi oshgan hissasi, uning tadqiqotchilik faoliyatga kiritilishi o‘qituvchidan umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining aksariyatida yetarli darajada shakllantirilmagan sifatlar va malakalarni namoyon qilishni talab qiladi.

Pedagogika va psixologiyada ushbu masalani yechish uchun jiddiy potensial to‘plangan. Murakkab ta’lim vaziyatlarida psixologik to‘siqlarni bartaraf qilishga (olib tashlashga) yordam beradigan ko‘plab vositalar va texnologiyalar ma’lum. Bizda mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, o‘z baholarida o‘qituvchilar bevosita bunday vositalarni qo‘llashga tayanishadi (intilishadi), masalan, vazifalarni guruhlar tarkibida bajarish ularga o‘ziga ishonch hissini beradi (59 foiz va 80 foiz) va boshq. Shuning uchun o‘quv-metodik ta’minotda “Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash” komponentini mazmun bilan to‘ldirish – juda ham real taomildir. Shunchaki faoliyat turining, o‘quv fanining spetsifikasini (o‘ziga xos tomonlarini) va talabalarning loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyatiga

tayyorligi xususiyatlarini hisobga olish muhim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida pedagogik qo‘llab-quvvatlash tajribasini (o‘z o‘qitish tajribamiz, hamkasblar bilan suhbatlar, ilmiy-amaliy manbalarning tahlili va boshq.) o‘rganish natijalarini umumlashtirib, ushbu funksiyani barajadigan quyidagi vositalarni keltiramiz:

- ishni bajarish misollari keltirilgan kartochkalar;
- vaziyatlarni qo‘shimcha tavsiflar va izohlar bilan tasvirlash;
- ishni bajarish algoritmlari (loyihalashtirish algoritmi, muammoni yechish algoritmi, hisobot yozish algoritmi va boshq.);
- ish (hisobot, vazifani yechish va hok.) fragmentlari namunalari;
- faoliyatning (loyihalashtirish, tadqiqotchilik, prezentatsion/taqdimot va boshq.) tayyor rejasi;
- muammoning tayyor ifodasi (bir yoki bir necha);
- faoliyat maqsadining (maqsadlarining) tayyor ifodasi;
- axborot manbalarining tavsiya qilinadigan ro‘yxati;
- ishning joriy natijalari bilan to‘ldiriladigan jadval (jadvallar);
- loyihani taqdimoti/prezentatsiyasi chizmasi;
- loyihaning (muammoning tadqiqotining) yaratilishi haqidagi hisobot chizmasi;
- xulosalar yozish bo‘yicha tavsiyalari;
- hisobot/doklad chizmasi;
- tayyor loyiha haqida doklad/hisobot bilan chiqish qilish chizmasi;
- loyihalashtirishning barcha alohida qadamlari/bosqichlarini baholash mezonlari (maqsadni qo‘yishdan amallar usullarini tanlashgacha va keyinchalik olinadigan natijalarigacha);
- o‘qituvchi, o‘quvchilar bilan maslahatlashish/konsultatsiya;
- o‘zaro tekshirish va o‘zaro baholash;
- vazifani sinfdoshlar guruhi tarkibida bajarish;
- sinf rahbari bilan o‘zaro faoliyat.

Mana bir necha o‘n yilliklar davomida ishonch (ishonishni) ham psixologik va ham pedagogik hodisa sifatida tadqiq qilish ishlari kuchayib bormoqda. Ishonch asosidagi munosabatlar deganda, o‘zaro faoliyat qilayotgan subyektlarning hech bo‘lmasa bittasining ishonch (odindan moslanganligi) namoyish qilishga tayyorligi holati, shaxsning odamlarga umuman olganda, (bunda bu birovga darrov ishonib qolish bo‘lib ko‘rinadi) va xususan, shaxsning muayyan tanishlari doirasiga ichki ijobiy moyilligi (dispozitsiyasi) tushuniladi. Bugungi kunda boshqa(larning) nuqtayi nazariga, nisbatan hurmat va bag‘rikenglikka, individual tajribaga, qadriyatlar tizimiga asoslangan o‘zaro munosabatlarning guman (insoniy) shakli pedagogik faoliyatda har qachongidan ham zarur. Bunday munosabatlarning ishonchni ta’minlaydigan asosiy belgilari orasida bir insonning boshqa insonga (qalbi, hislari) ochiqligini, tahsil oluvchilarning ishni muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi, maqsadlarning qo‘yilganligi va kutilayotgan natijalarning aniqligini ko‘rsatishadi. Bizning (Quyi Chirchiq tumanining turli ta’lim muassasalarining 130 nafar o‘quvchisi qatnashgan) tadqiqotimizdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘quvchilar o‘z sinfdoshlariga nisbatan eng ko‘p ishonch bilan munosabatda ekan va ularni ishonchga loyiq (78 foiz), vijdonli (61 foiz), tashkil qilngan (57 foiz), kompetent (44 foiz), ochiq (29 foiz) deb hisoblashar ekan. O‘qituvchiga nisbatan ishonch nuqtayi nazaridan o‘quvchilar quyidagi tavsiflarni keltirishgan: o‘quvchilar oldiga aniq va ahamiyatli maqsadlar o‘rnata olish qobiliyati – 65 foiz; izchillik-/mantiqiylik – 60

foiz; o‘quvchilarga to‘g‘ri axborotni/haqiqatni berishda vijdonlilik – 50 foiz; qobiliyatli o‘quvchilarga ishonchni namoyish qilish – 43 foiz; ochiqlik – 41 foiz. O‘zaro ishonch iqlimi/muhitining mavjudligi o‘quvchilar materialni o‘rganishning samarali strategiyalarini keng qo‘llashlari va o‘zlarining o‘quv vazifalarini muvaffaqiyatli tugatishga bo‘lgan qobiliyatlariga ishonch hissini oshirishlari uchun zarurdir. Bundan tashqari, tahsil oluvchilar o‘qituvchilar tomonidan emotsional qo‘llab-quvvatlash/dalda/yordam, tengdoshlaridan akademik qo‘llab-quvvatlash/yordam olsalar ular o‘zi/mustaqil tartibga solinadigan o‘quv strategiyalaridan muvaffaqiyatli foydalanadilar.

Demak, loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyatni shakllantirishda ham loyihalashtirishni va tadqiqotchilik ishlarining ijobiy effektlaridan foydalanish mumkin. Masalan, loyihalar metodi yordamida o‘quvchida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish mumkin: kommunikativ – o‘quvchi boshqalar o‘zini tushunishlariga erishishga intiladi; ijtimoiy – o‘quvchi guruhda muayyan o‘rin (mavqe) egallab, ushbu guruhda faoliyat olib borish ma’qul; predmetli – qiziqish va qobiliyatlarni namoyish qilish. Tadqiqotchilik metodi yodamida esa quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish mumkin: tadqiqotchilik kompetensiyasi – kuzatish olib borish malakasi, o‘lchashlarni amalga oshira olish malakasi, tajriba o‘tkazish malakasi, empirik tobeliklar/bog‘liqliklar qurish malakasi, mulohaza qilish va model yaratish uchun induksiyani qo‘llash malakasi; axborot kompetensiyasi – axborot texnologiyalarini egallash, barcha axborot turlari bilan ishlay olish malakasi; avtonomizatsion (muxtorlashgan) malaka – o‘zini mustaqil rivojlantirish qobiliyati, o‘z kelajagi/kasbi/ taqdirini belgilash, mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan qobiliyat.

Shunday qilib, “loyihalashtirish-tadqiqotchilik faoliyati” ilmiy muomalaga nisbatan yaqin kelajakda kiritilgan, va buni pedagoglarni o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning loyihalashtirish va tadqiqotchilik malakalarini birlik/birgalikda rivojlantirish maqsadida ikki faoliyat turini – loyihalashtirish va tadqiqotchilik faoliyatlarini sintez qilishga bo‘lgan intilishlari bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рузиева З. С. Развитие навыков проектного исследования у будущих учителей начальных классов.//Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. № 7, –2021 декабрь.

2. Ruziyeva Z.S. Project activity in primary school. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137. Vol. 12, Issue 03, March 2022 SJIF 2021 = 8.252.

3. Ruziyeva Z.S. Formation of project competence of future elementary school teachers. International journal for innovative engeneering and management research 04 april 2022. ISSN 2456-5083.

Zebo AVEZMUROTOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

YUPITER SAYYORASINING RO‘PARA TURISHI VA SIRTMOQSIMON HARAKATINI VIZUAL KUZATISH USLUBI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Internet tarmoqlari va Stellarium dasturi asosida astronomiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, kuzatishlar olib borish xususan, Yupiter sayyorasining ro‘para turishi va sirtmoqsimon harakatini vizual kuzatish uslubi bayon etilgan. Bu uslubdan uzluksiz ta’lim tizimida astranomiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilar, talabalar va o‘quvchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar. Ekliptika, ellips, kulminatsiya, sirtmoqsimon harakat, stellarium dasturi.

В данной статье рассказывается, как организовать практические занятия по астрономии на базе интернет-сетей и программы Stellarium, и как проводить наблюдения, в частности, методом визуального наблюдения оппозиции Юпитера и его колебательного движения. Этот метод может быть использован преподавателями, студентами и студентами при преподавании астрономии в системе непрерывного образования.

Ключевые слова. Эклиптика, эллипс, кульминация, эллиптическое движение, программа стеллариум.

This article describes how to organize practical training in astronomy on the basis of Internet networks and the Stellarium program, and how to conduct observations, in particular, the method of visual observation of the jupiter’s opposition and its oscillating motion. This method can be used by teachers, students and students in the teaching of astronomy in the continuing education system.

Key words. Ecliptic, ellipse, culmination, slick motion, stellarium program.

Internet tarmoqlari va Stellarium dasturi asosida astronomiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, kuzatishlar olib borish xususan, Yupiter sayyorasining ro‘para turishi va sirtmoqsimon harakatini vizual kuzatish uslubi bayon etilgan. Bu uslubdan uzluksiz ta’lim tizimida astranomiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilar, talabalar va o‘quvchilar foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim mazmuni va sifati jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda, innovatsion ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llash masalasi ommalashmoqda. Shu sababdan fanini o‘qitishda bizga ma’lum bo‘lgan ta’limdagi an’anaviy uslublar bilan birga hozirgi zamon axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib innovatsion yondashuvlar davr talabidir.

Ta’lim maskanlarining imkoniyatlardan kelib chiqqan holda internet tarmog‘lari, Stellarium dasturi, kichik teleskop, durbin va smartfon yordamida quyidagi amallar taklif qilinadi. Quyida amaliy kuzatishlardan birini ya’ni Yupiter sayyorasini kuzatish orqali uni ro‘para (qarama-qarshi) turish momentlarini va sirtmoqsimon harakatini vizual

kuzatish metodi keltirilgan. Ma’lumki Yupiter sayyorasi Yerga tashqi Marsdan keyingi sayyora hisoblanadi. Bu ulkan sayyora Quyosh atrofini o‘rtacha 778 million km da aylanib taxminan, 12 yilda to‘la aylanib chiqadi. Yuqori qo‘shilishida deyarli 928 mln km dan, ro‘para turish momentida Yerga eng yaqin kelgan payti 628 mln km gacha bo‘lishi mumkin. Yerga har 398 sutkada Yupiter yaqinlashib o‘tadi. Bu holatni ro‘para (qarama-qarshi) turish deyiladi. Agar Yerning tropik yili 365,2422 sutka bo‘lsa 1 yil-u 33 sutkada takrorlanib turadi yoki deyarli har yili bu holat kuzatiladi. Bunday vaqtda Yer Yupiter bilan Quyosh oralig‘ida bo‘ladi. Yupiterni kuzatish uchun qulay sharoit yuzaga keladi, birinchidan, bunday davrlarda, Yupiter, Yerga juda yaqin, ikkinchidan u Yerga o‘zini yoritilgan tomoni bilan o‘girilgan to‘la doira (to‘lin Oyga o‘xshab) ko‘rinadi, uchinchidan, Quyosh botgan zahoti kechqurun sharq tomondan chiqib kelib, yarim kechada yuqori kulminatsiyaga erishib, ertalabga yaqin g‘arb tomonga botib ketadi. Ya’ni gorizont ustida tuni bo‘yi ko‘rinib turadi. Ayni shunday holatda Yupiter (boshqa tashqi sayyoralar ham) sirtmoqsimon harakat qiladi. Boshqa sayyoralar kabi Yupiter yulduzlarga nisbatan G‘arbdan Sharqqa tomon harakatlanayotib ro‘para turish vaqtida yulduzlarga nisbatan harakati to‘xtab orqaga ya’ni sharqdan g‘arbga tomon harakatlana boshlaydi. Biroz vaqtdan (2-3 o‘ylardan) keyin o‘zini yana to‘g‘ri harakatini boshlaydi.

Avvalo, Yupiter osmon yoritkichlari orasidan topib olamiz. Buning uchun Oyning ko‘rinma harakatidan foydalanamiz. Ro‘para (qarama-qarshi) turish Quyoshga nisbatan olingani uchun albatta, ko‘rsatilgan sanada Yupiter yarim kechada, ya’ni 00:00 soatlarda kuzatuvchi turgan osmon meridian tekisligini kesib o‘tadi va yuqori kulminatsiyada bo‘ladi. Har bir kuzatuvchi o‘zi turgan joy uchun meridian tekisligini (ya’ni P – shimoliy qutb, Z-zenit va S-gorizontni janubiy nuqtasi orqali o‘tuvchi tekisligini) yaxshi bilish kerak. Yuqorida aytilganday, bu holatni yarim tunda soat 24:00 yoki 00:00 soatlar vaqtiga to‘g‘ri kelib, agar Oysiz tunlar bo‘lsa osmon yoritkichlari ichida sayyora juda chiroyli yorug‘ bo‘lib ko‘rinib turadi. Agar kuzatishda durbin, teleskoplar, kichik maktab teleskoplari ishlatilsa yana ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Albatta, bunday kuzatish natijalarini o‘quvchi va talabalar bilan muhokama qilib borilsa yaxshi samara beradi. Quyida “Stellarium” dasturi va internet materiallari asosida oldindan rejalashtirilgan kuzatish jadvali namunasi va u asosida olingan rasmlar keltirilgan.

9-jadval namunasi keltiriladi

№	**Sirtmoqsimon harakatini boshlanishi (teskari va to‘g‘ri)**	**Ro‘para turish sanasi**	**Kuzatish sanasida Yupiterning yonidagi sayyoralar, Oy va nomlangan yulduzlar.**
1	15.08.2022 Soat 3:00(teskari harakatini boshlaydi).	08.10.2022 Soat 00:00 Ro‘para turish	Yoniga Oy keladi, g‘arb tomonida Saturn ko‘rinib turadi.
2	04.09.2023 Soat:22:00 (to‘g‘ri harakatini boshlaydi)	13.11.2023 Soat 00:00 (Navbatdagi ro‘para turish)	Uran sayyorasi Aldaberan nomli yuduz yaqinida bo‘ladi


3	06.10.2024 (teskari harakatini boshlaydi) 05.02.2025 (to‘g‘ri harakatini boshlaydi)	19.12.2024 Soat: 00:00 (Navbatdagi ro‘para turish)	Aldebaran va Betelgeyzi nomli yulduzlar. Uran sayyorasi yonida bo‘ladi.
4	20.11.2025 (teskari harakatini boshlaydi) 01.03.2026 (to‘g‘ri harakatini boshlaydi)	24.01.2026 Soat: 00:00 (Navbatdagi ro‘para turish)	Betelgeuze va Polluk nomli yulduzlar yonida bo‘ladi.
5	01.12.2026 (teskari harakatini boshlaydi) 31.03.2027 (to‘g‘ri harakatini boshlaydi.)	27.02.2027 Soat: 00:00 (Navbatdagi ro‘para turish)	Mars sayorasiva Regulus nomli yulduz yoniga keladi.

1. Yupiter va Oy Kit yulduz turkumida

2022.08.15 shu sanada Yupiter Baliq yulduz turkumida G‘arbdan Sharqqa tomon to‘g‘ri harakat qiladi. 15-Avgust 2022-yil sanasida Yupiter yoniga Oy keladi va Kit yulduz turkumining shoxida turadi. Bu harakat biroz to‘xtab orqaga Sharqdan G‘arbga tomon teskari harakatini boshlaydi.

2. Yupiter va Oy Kit yulduz turkumida

Sanalar o‘tgan sayin taxminan 2022.10.08 da soat 24:00 da Oy bilan birgalikda Janub tomonda kuliminatsiyaga erishadi va ro‘para turadi. Kitning shoxi bo‘ylab Sharqdan G‘arbga tomon 1 va 2 sanalarda teskari harakatini kuzatishimiz mumkin.



3. Yupiter va Oy Kit yulduz turkumida

2022.11.4 sanada Yupiterning teskari harakati to‘xtaydi va G‘arbdan Sharqqa tomon harakatlana boshlaydi. Keyingi sanalarda to‘g‘ri harakatini davom qildiradi. Agar 1-2-3-sanalarni solishtirsak 2022.08.15-2022.11.4 vaqt oralig‘i deyarli 3-oy davomida-Yupiter teskari harakat qiladi va ayni shu paytda Yer bilan ro‘para turadi.

4. Yupiter navbatdagi ro‘para turish

2023.11.13 sanada soat 24:00da yuqorida jadvalda ko‘rsatilganidek, Yupiterning navbatdagi ro‘para turish holati kuzatiladi. Yupiter yonida Aldeberan nomli yulduz va Uran sayyorasi ko‘rinadi.

5. Yupiter navbatdagi ro‘para turish

2024.12.19 sanada soat 24:00 da Ayni shu sanada, qoq yarim kechada, Urganch hududi uchun 24:00 soatda (O‘zbekiston vaqti bilan) Yupiter meridian chizig‘ini kesib o‘tayabdi. Bu holat Yupiterni ro‘para turish holatidir. Yuqori matnda Yupiter ro‘para turish holati haqida tushunchalar berilgan. Rasmda kuzatish nuqtasining meridian chizig‘i ko‘rsatilgan. Yupiter yonida Aldeberan nomli yulduz ko‘rinadi. 06.10.2024 sanadan boshlab uch oy davomida teskari harakat qilib, 05.02.2025 shu sanada to‘g‘ri harakatini boshlaydi. Savr yulduz turkumida sirtmoqsimon harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kuzatishda olingan natijalarni Oliy ta’limda amaliy darslarda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida va akademik litseylarda 6 soatlik amaliy mashg‘ulot darslarida, fakultativ mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda, anjumanlar uyushtirib, ularda tahlil qilinib, mohiyati o‘qituvchi tomonidan animatsiya va virtual usullar yordamida tushuntirib boriladi. Eng asosiy yuqoridagi olingan materiallar asosida astronomiya fanining mavzularga mos zamonaviy didaktik materiallar, prezintatsiya bazalari yildan-yilga boyitilib boriladi. Oliy va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida va akademik litseylarda Astronomiya fanidan to‘garaklar, fakultativ mashg‘ulotlar, mustaqil darslar tashkil etish maqsadga muvofiqdir[1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadazimov M., Rizayev T. Uzluksiz ta’lim tizimida Astronomiyani o‘qitishning muammolari. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. –355-b.

2. Sattorov U. Astrofizika I qism. – T.: Ta’lim nashriyoti, 2009. – 201-b.

3. Qahhorov S.Q., Avezmurotov O., Avezmurotova Z.A. Astranomiya fanidan Innovatsion texnologiyalar asosida amaliy kuzatishlarni tashkil qilish//O‘quv uslubiy qo‘llanma. Xiva-2021.

4. “Stellarium” programmasi.

[1] Qahhorov S. Q., Avezmurotov O., Avezmurotova Z.A. Astranomiya fanidan Innovatsion texnologiyalar asosida amaliy kuzatishlarni tashkil qilish//O‘quv uslubiy qo‘llanma. Xiva-2021.

Azizbek SAYFULLAYEV,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘ZLASHTIRISH FAOLIYATI METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda foydalaniladigan metodlar, ushbu maqsadga erishishga qodir bo‘lgan usullarni tanlash masalalari muhokama qilinadi. Har bir boshlang‘ich maktab o‘quvchisining individual o‘rganish qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslarni o‘qitish va o‘tkazishning klassik usullari va yangi, didaktik usullarni birlashtirish taklif etiladi. Guruhlash uslubiga alohida e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, pedagogik uslub, empirik usul, nazariy usul, ta’lim topshirig‘i, dars rejasi.

В статье рассматривается вопрос о эффективном обучении учеников начальных классов, выбор методов, способных к достижению данной цели. Предлагаются сочетать классические методы обучения и проведения занятий и новыми, дидактическими методами, учитывая при этом индивидуальные способности осваивания каждого ученика начальных классов. Особое внимание уделяется к методу группирования.

Ключевые слова. Начальное образование, педагогический метод, эмпирический метод, теоретический метод, учебная задача, план урока.


The article discusses the issue of effective teaching of primary school students, the choice of methods capable of achieving this goal. It is proposed to combine the classical methods of teaching and conducting classes and new, didactic methods, taking into account the individual learning abilities of each primary school student. Particular attention is paid to the grouping method.

Key words. Primary education, pedagogical method, empirical method, theoretical method, study assignment, lesson plan.

Hozirgi kunda zamonaviy boshlang‘ich umumiy ta’lim modernizatsiya va yangilanish sharoitida: uning ustuvor yo‘nalishlari, maqsadlari, qadriyatlari o‘zgargan, mazmuni yangilanmoqda. Bilimlarni shakllantirish va predmetli ko‘nikmalar qadriyatlaridan boshlang‘ich maktabni o‘rganish qobiliyatlari, ko‘nikmalari va istaklarini rivojlantirish qadriyatlariga yo‘naltiriladi.

Kichik maktab yoshi bola rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu davrda maqsadli pedagogik ta’sir ostida muhim aqliy yangi shakllanishlar shakllanadi, o‘quv faoliyatining shakllanishi, xususan, uning motivatsiyasi va o‘quvchining keyingi barcha ta’lim samaradorligini aniqlaydigan asosiy ta’lim qobiliyatlari shakllanadi. Shuning uchun ham o‘quv faoliyatining holati, uning yosh o‘quvchida shakllanishi va rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy faoliyatida diqqat mavzusi hisoblanadi.

Ta’lim faoliyati quyidagilarga asoslanadi:



Motivatsiya kuchi faoliyat muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi: kognitiv motivatsiya kuchining doimiy ravishda oshib borishi o‘quv faoliyati samaradorligini pasayishiga olib kelmaydi. Aynan kognitiv motivatsiya, xususan, kognitiv qiziqishlar bilan, o‘quv jarayonida shaxsning samarali ijodiy faoliyati bog‘liqdir. Bunday holda, o‘rganish bu bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan to‘laqonli faoliyatdir: bola yangi narsalarni o‘rganishga ehtiyoj sezadi, bu yangi taassurotlarga bo‘lgan ehtiyoj ma'lum bir sohadagi aniq bilimlar (bilim motivi) bilan aniqlanadi, uni bir vaqtning o‘zida olish faoliyatning maqsadi sifatida harakat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim va kognitiv motivatsiya ijtimoiyga bo‘ysunishi kerak (bilimlarni jamiyat ehtiyojlariga ko‘ra foydalana olish uchun bilish). Aks holda, o‘qitish mustaqil faoliyat bo‘lishni to‘xtatadi. Bu boshqa faoliyat doirasida, umuman boshqa maqsadga ega bo‘lgan alohida harakatga aylanadi.

Shunday qilib, ta'lim faoliyati asosidagi ehtiyojlar, motivlar va qiziqishlar har doim ham bilish mohiyatiga ega emas.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ongli maqsadga inson yanada faolroq va tezroq erishadi. Bundan tashqari, maqsadli faoliyatning natijasi o‘quvchilar uchun yanada yuqori va ahamiyatli, yuqori sifatli bo‘lib chiqadi. O‘quvchi uchun maqsad – faoliyatga yo‘naltirish. O‘quvchilar tomonidan maqsadni aniqlashtirish ma'lum bir hissiy holatni yaratadi, irodaviy harakatlarni safarbar qiladi. Maqsad amalga oshirilishi kerak.

O‘qitish jarayonida kelgusidagi faoliyatning maqsad va vazifalari odatda o‘quvchilarga tashqaridan beriladi. O‘quvchilarning harakatlarini uyushtiradigan va boshqaradigan bu o‘qituvchi. U ularni boshqaradi. Bu o‘quv jarayonini boshqarish maqsadlari ko‘pincha kichik o‘quvchilarning o‘quv jarayonidan chiqib ketishiga olib keladi.

Bilimni samarali o‘zlashtirish uchun faoliyat maqsadi motivga aylanishi muhimdir. Buning uchun o‘quvchi maqsadni aniq shakllantirishi kerak (nimani o‘rganish kerak), uning ma'nosi (nima uchun kerak), maqsadga erishish yo‘llarini (qanday qilish kerak), maqsadga erishishda kutilgan qiyinchiliklar, amalga oshirishning maqsadga qanday mos kelishini, maqsad sari taraqqiyot qanday rivojlanayotganligini nazorat qilish. Motivlar, hatto, eng ijobiy va xilma-xil bo‘lsa ham, o‘quvchining rivojlanishi uchun faqat potensial imkoniyat yaratadi, chunki motivlarni amalga oshirish maqsadlarni belgilash jarayonlariga, ya'ni maktab o‘quvchilarining maqsadlarini belgilash va ularga o‘rganishda ularga erishish qobiliyatiga bog‘liqdir. Maqsadni belgilash – bu kelajakdagi faoliyat natijasining ruhiy qiyofasini shakllantirish jarayonini, ushbu tasvirni anglash va qabul qilishni, shuningdek, natijaga erishishga qaratilgan o‘z faoliyatini tartibga solishni

ta’minlaydigan shaxsiy funksiya.

Ta’lim faoliyatini tashkil qilishning umumlashtirilgan usuli ostida, shunga muvofiq, tashkilot subyekti har qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

Maqsadni aniqlash juda muhimdir. Maqsadga quyidagilar kiradi:

1. Faoliyat natijasi va unga erishish yo‘llarini o‘ylash, ongda kutish bilan tavsiflanadigan xulq-atvor va ongli faoliyatning elementlaridan biri.

2. Kutilayotgan natijaning ongli tasviri, unga erishish uchun inson harakatiga qaratilgan.

Ilmiy maktabning asosiy g‘oyalariga va ularning izdoshlariga ko‘ra, ma’lum aqliy qobiliyatlar insonda faqat ma’lum bir faoliyat turlarini amalga oshirish jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Bundan tashqari, har bir yosh guruhida asosiy, yetakchi faoliyat ajralib turadi. Uning rivojlanishining ma’lum bir davrida bolaning psixologik xususiyatlaridagi asosiy o‘zgarishlarni aniqlaydigan yetakchi bunday faoliyatni aniqlaydi. 6 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan davrda asosiy va yetakchi ta’lim faoliyati bo‘lib, uni amalga oshirish kichik o‘quvchilarda asosiy aqliy neoplazmalarini shakllantiradi.

O‘quvchilar o‘quv jarayonida o‘zlashtiradigan ko‘nikmalar orasida umumiy ta’lim qobiliyatlari va qobiliyatlari guruhi ajralib turadi. Ushbu ko‘nikmalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular ma’lum bir o‘quv vositasi, bilimlarni o‘zlashtirish vositasi bo‘lib, har qanday mavzuni o‘qitish jarayonida shakllanishi va rivojlanishi mumkin, barcha mavzular bo‘yicha keyingi qo‘llanilishini topadi. Rivojlanishning ma’lum bir bosqichiga yetib, umumiy ta’lim qobiliyatlari va qobiliyatlari boshqa tarkibiy qismlar bilan birgalikda o‘rganish qobiliyati kabi muhim yangi shakllanishning asosiga aylanadi.

Ichki motivatsiya bilan kognitiv ehtiyoj qondiriladi va motivlardan biri kognitiv qiziqishdir. Uning ta’siri ostida ta’lim faoliyati yanada jadal davom etmoqda. Ichki motivlarga, shuningdek, qiziqish, yangi ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj (bilim va harakat usullari), o‘z madaniy darajasini ko‘tarish istagiga kiradi.

Ham ichki, ham tashqi motivlar amalga oshishi mumkin yoki bo‘lmasligi mumkin. Faoliyat paytida, ular, qoida tariqasida, amalga oshirilmaydi, ammo, har qanday holatda ham ular bolaning tajribalarida, uning nimadir qilishni xohlash yoki istamaslik tuyg‘usida aks etadi. Ushbu “tuyg‘u” motivatsiyani ijobiy yoki salbiy deb belgilaydi. Kichik o‘quvchilarning ta’lim faoliyati doirasidagi maqsadlarni belgilash jarayonini maqsadni tashqaridan qabul qilish jarayoni deb qarash mumkin, ya’ni aksariyat hollarda bola o‘qituvchi shakllantirgan maqsadni qabul qilishi kerak. Maqsadni qabul qilish bilan bir vaqtda, faoliyat shartlari va natijaga erishish yo‘llarini oldindan tahlil qilish jarayoni mavjud.

Motivlarni amalga oshirish va o‘quv faoliyatining maqsadlariga erishish har xil harakatlar turlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ular orasida ta’lim faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ushbu harakatlar motivatsion harakatlar bilan birga uning mohiyatini belgilaydigan ta’lim faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Bundan tashqari, ta’lim harakatlarining assimilyatsiya darajasi o‘quvchilarning bilim darajasini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun nostandart o‘quv faoliyati (darslari) orqali shaxsiyatni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanish, bu har bir talabaning o‘z ahamiyatini his qilishiga, biror narsa umuman ishlamagan taqdirda ham o‘zini anglashga yordam berishiga ishonch hosil qiladi. Ular doimo izlanishda bo‘lishni, huquqlari buzilganligini sezmaslikni, faol bo‘lishga, fikrdan, hayotdan mustaqil bo‘lishga, fuqaro va yuqori ma’noda inson bo‘lishga o‘rgatadilar.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

– dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi;

– mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;

– tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;

– o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;

– topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi;

– o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi;

– mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi;

– mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;

– o’z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Рациональная организация учебной деятельности” –М.: Знание, 2011 г.

2. Знаете ли вы своего ученика. –М.: Просвещение, 2011 г.

3. “Формирование учебной деятельности школьников” –М., 2016 г.

4. “Формирование интереса к содержанию и процессу усвоения знаний” – Волгоград, 2018 г.

5. Qahhorov S.Q., Jo‘rayev H.O., Atoyeva M.F. Fizika ta’limida senergetik texnologiyalardan foydalanish, Pedagogik mahorat.– Buxoro, 2008. – ¹ 3. – 44-47-betlar.

6. Атоева М.Ф. Периодичность обучения физике. Аспирант и соискатель. – М., 2010. – №6. – С. 41-43.

7. Atoyeva M.F. Interdisciplinary relations in physics course at specialized secondary education. The Way of Science. – Volgograd, 2016. – №9 (31). – P.22-24.

8. Atoyeva M.F. The significance of periodicity at teaching physics. The Way of Science. – Volgograd, 2016. – № 10 (32). – P.62-64.

9. Атоева М.Ф. Эффективность обучения электродинамике на основе технологии периодичности. The Way of Science. – Volgograd, 2016. – № 10 (32). – P.65-66.

10. “Технология формирования умений самоорганизации учебной деятельности у младших школьников” –Челябинск, 2015 г.

11. “Младший школьник – как субъект учебной деятельности”. –М.: ‘‘Начальная школа’’, 2010.

12. “Психология обучения младшего школьника”. –М., 2018 г.

Erkin MURODOV,
A. Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti, mustaqil tadqiqotchisi

BITIRUVCHI O'QUVCHILARNING EGALLASHI LOZIM BO'LGAN KOMPETENSIYALARNING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy davlat ta'lim standartlari va xalqaro tadqiqot tashkilotlari va institutlarining bitiruvchi o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarning xalqaro standartlari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tadqiqot tashkilotlari va institutlarining o'rtacha hisobda olgan o'smirlarning bilim darajalarini baholash me'yorlari va talablari o'rganilgan. Ushbu xalqaro standartlarning bitiruvchilar kompetensiyasi uchun ahamiyatini tahlil qilinib, milliy davlat ta'lim standartida bitiruvchilarga qo'yilayotgan kompetensiyaviy talablar o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Milliy davlat ta'lim standartlari, xalqaro tadqiqot dasturlari va o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar.

В данной статье рассматриваются национальные государственные образовательные стандарты и международные стандарты компетенций, которыми должны овладеть выпускники международных исследовательских организаций и институтов. Также в исследовании изучены стандарты и требования к оценке уровня знаний подростков, которые усредняются международными исследовательскими организациями и институтами. Анализируется значение этих международных стандартов для компетентности выпускников. Изучены компетентностные требования к выпускникам национального государственного образовательного стандарта.

Ключевые слова. Национальные образовательные стандарты, международные исследовательские программы и компетенции, которые должны приобрести студенты.

This article examines the national state education standards and the international standards of competences that graduates of international research organizations and institutes should acquire. Also, in the study, the standards and requirements for evaluating the knowledge levels of teenagers, which are averaged by international research organizations and institutes, were studied. The significance of these international standards for the competence of graduates is analyzed. Competency requirements for graduates of the national state educational standard were studied.

Key words. National educational standards, international research programs and competencies that students should acquire.

Zamonaviy davrda, tez o'zgarib borayotgan dunyoda bitiruvchilarga qo'yilayotgan bilim va malaka talablari ham takomillashib, rivojlanib bormoqda. Yuqoridagi paragraflarimizda bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar haqida ularning ahamiyati, turlari, bitiruvchi modeli sifatida va kompetensiyalarga ta'lim jarayonining ta'siri va boshqa omillar haqida fikr yuritgandik. O'rganishlarda shu narsa ayon bo'lgandiki, bir umumta'lim maktabi bitiruvchisi qanday kompetensiyalarga ega

bo‘lishi kerak degan savolga yagona va aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Bu ayniqsa, milliy standartlarda va xalqaro standartlarda o‘zini ko‘proq ifodasini topmoqda.

Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, davlatlarning ta’lim jarayonlarining sifat va samarasini o‘lchovchi va tadqiq qiluvchi ko‘plab xalqaro test-sinov markazlari tashkilotlari va institutlari umumta’lim muassasalarini bitiruvchi yoshdagi o‘smirlarda shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar borasida standartlarni ishlab chiqqanini ta’kidlashimiz lozim. Mavzuga kirishdan oldin shuni ta’kidlab aytish joizki, ko‘plab davlatlarda umumta’lim maktabi bitiruvchilarining yoshi har xil davrga to‘g‘ri keladi. Shu bois, ba’zi xalqaro tadqiqot tashkilotlari va institutlari o‘smirlik yoshi sifatida 15-16 yoshlarni tanlaydi, ba’zilari esa 18 va undan yuqori yoshda bo‘lgan o‘quvchilarni tanlaydi.

O‘zbekistonda davlat ta’lim standarti quyidagi qonun va qarorlar asosida ishlab chiqilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida’’ 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida’’gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori.

Vazirlar Mahkamasining ‘‘Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida’’gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarorida davlat ta’lim standartlarining maqsad va vazifalari quyidagilar deb ko‘rsatiladi:[1]

Davlat ta’lim standartlarining maqsadlari	Davlat ta’lim standartlarining vazifalari
ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta’minlash;	ta’lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;
mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;	ta’limga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarning bilimi va kasb-kor malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me’yoriy bazani yaratish;
ta’limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy	xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;	ta’limning barcha turlari mazmunini, ta’lim va tarbiyani kelishish va ularning o‘zaro bog‘liqligi, uzluksiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori ‘‘Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida’’. –T., 1998-yil 5-yanvardagi 5-son.. https://lex.uz/docs/622242

kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;	o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, uzluksiz ta’lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta’minlanishiga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me’yorlar va talablarni belgilash;
ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minlash, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;	ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minlash, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta’minlash.	kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;
	milliy standartlar talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

2017-yilga kelib, O‘zbekistondagi muhim siyosiy o‘zgarishlar bilan birga, ta’lim sohasida ham keng islohotlarning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Buni bir tomondan siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘lasak-da, boshqa tomondan shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ta’lim talablari yurtimizda qabul qilingan 1999 va 2000-yilgi ta’lim standartlari bo‘yicha talablarni isloh qilishga jiddiy ehtiyoj sezilayotgandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalar bo‘yicha talablar Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori va Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi 406-sonli buyrug‘iga binoan Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartida belgilab qo‘yilgan. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida davlat ta’lim standartlariga asoslangan holda umumta’lim fanlarini o‘rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:[2]

Standart darajalari	Darajalarning nomlanishi
A1	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
A1+	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
A2	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning tayanch darajasi
A2+	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning umumiy darajasi
B1+	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Shuningdek, ushbu standartda har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid boshqa umumiy kompetensiyalar ham shakllantirilishiga imkon berilgan.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyrug‘i “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida” Toshkent sh., 2021-yil 17-dekabr, 406-son.

Davlat ta’lim standartida ona tili, adabiyot, matematika, rus tili, tabiatshunoslik va geografiya fani, jismoniy tarbiya fani bo‘yicha (4, 9, 11-sinf), tarix, informatika va axborot texnologiyalari fani, biologiya bo‘yicha (5, 9, 11-sinf), davlat va huquq asoslari (8, 9, 11-sinf), iqtisodiy bilim asoslari (9-sinf), fizika, astronomiya fani (6, 9, 11 sinf), kimyo fani (7, 9, 11-sinf), musiqa madaniyati fani, tasviriy san’at fani (4, 7-sinf), chizmachilik fani (8, 9-sinf), texnologiya fani (4, 9-sinf), chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani bo‘yicha (11-sinf) bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari va umumiy kompetensiyalar belgilab qo‘yilgan. Jumladan, misol sifatida matematika fani bo‘yicha malaka talablari va umumiy kompetensiyalar quydagichadir[3]:

Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich 4-sinf bitiruvchilari	**A1**	Matematika fanini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
Matematika fani chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining boshlang‘ich 4-sinf bitiruvchilari	**A1+**	Matematika fanini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
Umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	**A2**	Matematika fanini o‘rganishning tayanch darajasi
Matematika fani chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari	**A2+**	Matematika fanini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Umumta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari	**B1**	Matematika fanini o‘rganishning umumiy darajasi
Matematika fani chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilari	**B1+**	Matematika fanini o‘rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Bundan helib chiqqan holda:

1. Matematika mazmuniga oid umumiy Kompetensiya	**2. Kognitiv kompetensiya** *(shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi)*
A1 • berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o‘qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turli ko‘rinishlarda tasvirlay oladi; • sodda sonli ifodaning qiymatini og‘zaki va yozma hisoblay oladi; • sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha oladi; • tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qiladi, taniydi va tasvirlay oladi; • obyektlarni xossalari bo‘yicha tartiblaydi va sodda kombinatsiyalar tuza oladi; • sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma’lumotlar kirita oladi, eng sodda diagrammalar shaklida tasvirlay oladi.	A1 • ma’lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi, rost va yolg‘on tasdiqlarni farqlay oladi; • zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo‘llay oladi; • o‘qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o‘z faoliyatini to‘g‘rilay oladi; • matematikani o‘rganish jarayonida o‘zida ijobiy hissiyotlarni shakllantira oladi; • mustaqil ravishda o‘z bilimlarini mustahkamlay oladi.

[3] Boshqa fanlar uchun batafsil qarang: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyrug‘i “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida” Toshkent sh., 2021-yil 17-dekabr, 406-son.

A1+ • arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi; • bo‘yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yecha oladi; • sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha oladi; • elektron axborot manbalaridan turli ko‘rinishdagi sodda matematik ma’lumotlarni izlab topadi, foydalana oladi.	A1+ • o‘qituvchi bilan hamkorlikda o‘quv va amaliy holatlarda maqsadni ifodalay oladi; • o‘qituvchi bilan hamkorlikda nostandart va qiziqarli masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o‘z faoliyatini to‘g‘rilab oladi.
A2 • natural, butun va ratsional sonlarni o‘qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turli ko‘rinishlarda tasvirlay oladi; • foizlar, proporsiyalar va kasrlarga oid sodda amaliy masalalarni yecha oladi; • ifodalarning yig‘indisi, ko‘paytmasi, butun ko‘rsatkichli darajalar), sodda radikallar, sodda trigonometrik ifodalarni o‘z ichiga olgan formulalar bo‘yicha aniq va taqribiy arifmetik hisob-kitoblar hamda ayniy almashtirishlarni bajarib, amalda qo‘llay oladi; • sodda ketma-ketliklar (jumladan, arifmetik va geometrik progressiyalar) va funksiyalarni taniy oladi hamda tahlil qila oladi; • tekislikda figuralarning xossalari, geometrik almashtirishlar, vektor va koordinatalar usullaridan foydalanib masalalarni yecha oladi, sodda tasdiqlarni isbotlay oladi; • sodda fazoviy jismlarni va ularning tarkibiy qismlarini tasavvur qiladi, sharhlay oladi, sirtlarining yuzalari va hajmlarini tayyor formulalardan foydalanib hisoblay oladi; • sodda kombinatorik masalalarni yecha oladi; • amaliy vaziyatlarda hodisalarning ro‘y berish-bermaslik imkoniyatlarini hisoblay oladi va baholay oladi.	A2 • Masalalar yechishda, nazariy tasdiqlarni asoslashda isbotlashning sodda ketma-ketligini tuza oladi, mulohazalarning mantiqiy to‘g‘riligini baholay oladi; • o‘rganilgan matematik tushunchalar, faktlar, algoritmlar, ma’lumotlar manbalarini va zarur hollarda hisoblash vositalarini qo‘llay oladi; • o‘rganilayotgan matematik vaziyatda bilishning asosiy usullaridan (masalan, klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish) foydalana oladi; • masala yechimiga ijodiy yondasha oladi, yechimga yaqinlashish darajasini va olingan natijani baholay oladi hamda zarur hollarda o‘z faoliyatini to‘g‘rilay oladi; • mustaqil ravishda o‘z bilimlarini oshiradi, yangi g‘oyalarni yaratadi va qabul qila oladi.
A2+ • sonlarning bo‘linish munosabatiga, Dirixle va matematik induksiya tamoyillariga, juft-toqlikka oid nostandart masalalarni yecha oladi; • ayniyatlarga, ko‘phadlarga, tenglamalar va tengsizliklarga oid nostandart masalalarni yecha oladi; • uchburchaklar haqidagi klassik teoremalardan va murakkab bo‘lmagan yassi figuralar xossalaridan foydalanib geometrik masalalarni yecha oladi; • graflarga, to‘plamlar, obyektlarning takrorsiz kombinatsiyalariga oid masalalarni yecha oladi; • sodda amaliy vaziyatlarda ro‘y beradigan hodisalarning ehtimolliklarini topa oladi, ro‘y berish-bermaslik imkoniyatlari bo‘yicha taqqoslay oladi; • turli manbalardan ma’lumotlarni izlab topadi, dastlabki ishlov bera oladi.	A2+ • nostandart matematik holatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullaridan foydalana oladi; • qabul qilingan mezonlarga asosan o‘z faoliyati samarasiga baho bera oladi.

B1 • kompleks sonlarni o‘z ichiga olgan sodda sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi; • formulalar bo‘yicha aniq va taqribiy arifmetik hisob-kitoblarni va ayniy almashtirishlarni bajara oladi; • o‘rganilgan turlardagi tenglamalar va tengsizliklarni hamda ularning tizimlarini aniq va taqribiy yecha oladi; • turli usullarda berilgan funksiyalarning xos-salarini aniqlay oladi, elementar funksiyalar grafiklarini tasvirlay oladi; • murakkab bo‘lmagan vaziyatlarda differensial va integral hisob usullaridan foydalana oladi; • o‘rganilgan yassi va fazoviy figuralar xos-salari, geometrik almashtirishlar, vektor va koordinatalar usullaridan foydalanib amaliy va o‘quv masalalarni yecha oladi, sodda geometrik tasdiqlarni isbotlay oladi; • sodda tasodifiy hodisalarning modellarini qura oladi va tahlil qila oladi; • mulohazalar va predikatlar hisobi, to‘plamlar nazariyasi, kombinatorikaga oid amaliy va o‘quv masalalarni yecha oladi.	B1 • murakkab bo‘lmagan hodisa va jarayonlarni matematik modellashtira oladi; • o‘rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o‘quv va amaliy masala ye-chishda qo‘llay oladi; • standart vaziyatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi.
B1+ • sonlar nazariyasiga oid masalalarni yecha oladi; • nostandart tenglama va tengsizliklarni yecha oladi; • sodda funksional va differensial tenglamalarni yecha oladi; • o‘rganilgan yassi va fazoviy figuralar kom-binatsiyalariga oid geometrik masalalarni yecha oladi; • kombinatorikaga oid nostandart masalalarni yecha oladi; • amaliy vaziyatlarda ro‘y beradigan ayrim hodisalar va jarayonlarning modellarini qura oladi va tahlil qila oladi; • sodda amaliy vaziyatlarni graflar yordamida modellashtira oladi.	B1+ • nostandart vaziyatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi.

Yuqorida milliy davlat ta’lim standartlarining qisqacha tarixi va uning bugungi holati, qonunchilik asoslari, ta’lim, bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiya talablari haqida ma’lumot berib o‘tdik. Endi xalqaro ahamiyatdagi ta’lim standartlarini o‘rganib chiqamiz undagi kompetensiya talablarini ko‘rsatib o‘tamiz.

Ilk va asosiy xalqaro ta’lim standarti YUNESKO tarafidan ishlab chiqilganligini ta’kidlashimiz mumkin. Zero, YUNESKOning asosiy vazifasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida belgilangan irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, barcha xalqlar uchun umumbashariy hurmat, adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlari, shuning-dek, asosiy erkinliklarni ta’minlash maqsadida xalqlarning ta’lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo‘shishdan iborat[4].

[4] Международная стандартная классификация образования: МСКО 2011. Институт Статистики ЮНЕСКО. Canada, 2013.

YUNESKO ta’lim sohasida hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish va ta’lim sohasi taraqqiyotida muhim bo‘lgan ko‘plab amaliy ishlarni olib borgan. Shunday ishlardan biri – Ta’limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasi (ing.: ISCED, ruscha: MSKO) bo‘lib, bu davlatlarning milliy ta’lim tizimlarining tuzilishi va ta’lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlar ta’lim yutuqlarini solishtirish va ta’lim tizimlarning jihatlari va jarayonlarini tushunish imkonini ortirdi.

Klassifikatsiya (ISCEDga ko‘ra, ‘‘kvalifikatsiya’’ so‘zi, ‘‘sertifikat’’, ‘‘daraja’’ yoki ‘‘diplom’’ so‘zlari bilan sinonimdir) – odatda ta’lim dasturini yoki ta’lim dasturi bosqichini muvaffaqiyatli tugatganligini tasdiqlovchi hujjat shaklidagi rasmiy tasdiqdir. Klassifikatsiya (malaka) quyidagi yo‘llar bilan olinishi mumkin: 1) butun ta’lim dasturini muvaffaqiyatli yakunlash; 2) ta’lim dasturining bir bosqichini muvaffaqiyatli yakunlash (oraliq ta’lim malakasi); yoki 3) ta’lim dasturida ishtirok etishga bog‘liq bo‘lmagan bilim, ko‘nikma, kompetensiyalarni sinovdan o‘tkazish. Dasturni muvaffaqiyatli yakunlashi o‘quvchining ma’lum o‘quv maqsadlariga erishgan, deb hisoblaydi. Bunda ta’lim dasturlari, kurslar (masalan, modullar yoki fanlar) ISCED bo‘yicha malakali deb topilishi uchun ISCED talablariga (darajalar, dars soatlari, ballar va boshqa mezonlar) to‘g‘ri kelishi kerak[5].

ISCEDning ta’lim daraja va mezonlarini bizga tegishli bo‘lgan daraja 3 ya’ni, ikkinchi bosqich (to‘liq) o‘rta ta’lim haqida batafsilroq ma’lumot berib o‘tamiz. Bu daraja har xil nomlanadi: yuqori sinf, to‘liq o‘rta maktab, ikkinchi bosqich. Bu darajadagi dasturlar o‘quvchilarga ISCED 2 daraja dasturlardan ko‘ra turli xil, ixtisoslashtirilgan va fanlarni chuqurroq o‘rganishni taklif qiladi. Ko‘proq va kengroq imkoniyatlar va yo‘nalishlarni tanlash imkonini beradi. O‘qituvchilar odatda o‘zlari o‘qitadigan fanlar yoki ixtisoslik yo‘nalishlari bo‘yicha, ayniqsa, yuqori sinflar uchun yuqori malakaga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, YUNESKOning ta’lim standartlari yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, ta’lim bo‘yicha umumiy mezonlarni taqdim qilayotgan bo‘lib individual o‘quvchilarning kompetensiyalarini bevosita baholash uchun mo‘ljallanmagan. Buning sababi, YUNESKOga ko‘ra, ta’lim dasturlari yoki malakalari va haqiqiy ta’lim yutuqlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik yo‘q. Shaxsni o‘qigan va muvaffaqiyatli bitirgan dasturlari, eng yaxshi holatda, dasturni tugatish vaqtida olingan ko‘nikmalar, bilim va kompetensiyalar yaqinroqdir[6].

Shu bois, YUNESKO milliy va mintaqaviy malaka tizimlari malaka va dasturlar bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni farqlash uchun foydali vosita bo‘lishi mumkinligini ilgari suradi. Ko‘pgina mamlakatlar aholining ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha kompetensiya va ko‘nikmalar darajasini tavsiflash va solishtirish uchun milliy va mintaqaviy tizimlardan foydalanadi. Mamlakatlarga milliy va mintaqaviy malaka tizimini ISCED bilan aniq aloqa o‘rnatish tavsiya etiladi[7].

Individual o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholaydigan mintaqaviy va xalqaro sinov va standart tizimlardan biri Programme for International Student Assessment (PISA, o‘zb.: Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi) dasturi bo‘lib, u OECD[8]ning xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturidir. PISA 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hayotdagi qiyin-

[5] MCKO 2011, o‘sha manba. 8-b.

[6] MCKO 2011, o‘sha manba. 8-b.

[7] MCKO 2011, o‘sha manba. 8-b.

[8] Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) – o‘zbekchasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) – 100 dan ortiq mamlakatlar bilan hamkorlik qiluvchi global siyosat forumi bo‘lib, butun dunyodagi odamlarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini yaxshilash siyosatini ilgari suradi. https://www.oecd.org/about/

chiliklarni hal qilishda qo‘llay olish qobiliyatini o‘lchaydi[9].

Xalqaro miqyosda boshqa tadqiqot markazlari International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) – Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi, International Assessment of Educational Progress (IAEP) – Ta’lim taraqqiyotini xalqaro baholash va boshqalar haqida ham fikr yuritishimiz mumkin. Lekin, ular OECD/PISA kabi tizimli va keng miqyosli tadqiqot olib bormaydi. Qolaversa, PISA o‘rta ta’limni bitiruvchilarning hayotlarida egallashlari kerak bo‘lgan kompetensiyalar nuqtai nazardan katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim malakalari kompetensiyasini joriy etish va undan foydalanish yangi ta’lim standartlarini ishlab chiqish hamda o‘quv yurtlarining ta’lim, kasbga oid dasturlarini tuzishda tayanch vazifasini o‘taydi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u davlatning iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shadigan ta’lim tizimi bilan mehnat bozorini o‘zaro bog‘lovchi muhim vositadir. Ta’lim sohasidagi bugungi kamchiliklarning bartaraf etilishi, xalqaro me’yor va qoidalarning tezroq qabul qilinishi hamda jahon standartlariga asoslangan milliy ta’lim kompetensiyasi standarti va milliy kasblar klassifikatsiyasi standarti yaratilishi yangi O‘zbekistonning xalqaro ta’lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga va malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga olib keladi.

Ushbu xalqaro standartlar va tadqiqotlarning ahamiyati milliy ta’lim dasturlari va standartlari uchun ahamiyati juda kattadir. Xalqaro standartlar va OECD/PISA kabi xalqaro tadqiqot markazlarining o‘rganishlari zamonaviy talablardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu global rivojlanishda, texnologiya va innovatsiyalarni o‘zlashtirishda, zamonaviy hayot shartlariga moslashishda o‘rta ta’lim bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar borasida muhim talablarni ilgari suradi. Shu bois, milliy ta’lim dasturlari va standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, xalqaro tadqiqotlarning xulosalarini diqqat bilan o‘rganish va ular asosida ta’lim islohotlarini olib borish, ta’lim dasturlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar qo‘shish milliy kadrlarimizni sifatli va talabgor kadrlar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori ‘‘Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida’’ Toshkent sh., 1998-yil 5-yanvardagi 5-son. https://lex.uz/docs/622242

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyrug‘i “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida.” –T., 2021-yil 17-dekabr, 406-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyrug‘i “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida.” –T., 2021-yil 17-dekabr, 406-son.

[9] What is PISA? https://www.oecd.org/pisa/

Zarifa AMIROVA,
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti, “Umumtexnika fanlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

KURSANTLARNING HARBIY-TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH DARAJASI

Annotatsiya

Maqolada harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida metodika nuqtai nazaridan texnik tafakkur elementlarining o‘zaro aloqadorligini muntazam ravishda rivojlantirishni dominant (turli) pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash asosida texnik tafakkurini rivojlantirishning zarurati va ahamiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Dastlabki bosqich, “Piktogramma”, ‘‘Klaster’’, ‘‘BBB’’ texnologiyalari, texnik tafakkur, tajriba va nazorat, matematik-statistika metodi.

В статье представлена необходимость и важность развития технического мышления на основе выявления доминирующих (разных) педагогических условий системного развития взаимосвязи элементов технического мышления в процессе подготовки военнослужащих.

Ключевые слова. Начальный этап, технологии ‘‘Пиктограмма’’, ‘‘Кластер’’, ‘‘BBB’’, техническое мышление, опыт и контроль, математико-статистический метод.

The article presents the necessity and importance of the development of technical thinking on the basis of identifying the dominant (different) pedagogical conditions for the systemic development of the relationship between the elements of technical thinking in the process of training military personnel.

Key words. Initial stage, technologies ‘‘Pictogram’’, ‘‘Cluster’’, ‘‘BBB’’, technical thinking, experience and control, mathematical and statistical method.

Muhandislik yo‘nalishida ta’lim olayotgan kursantlarning texnik bilimlarini oshirish, ularning texnik tafakkurini rivojlantirishda avvalo, kursantning bilish jarayonlari – sezgi, idrok, xotira, diqqat va tafakkurni faollashtirishga e’tibor qaratish va ta’limning ilg‘or metodlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Texnik tafakkur darajasi bo‘yicha kursantlarni taqsimlanishi 2-bosqichda juda past, past va o‘rta natijalar ko‘rsatgan kursantlar soni kamaygan, lekin yuqori va juda yuqori natijalar ko‘rsatgan kursantlar soni ko‘paygan. $\chi 2$ – mezoni bo‘yicha statistik ahamiyatlilikni tekshirib ko‘rish, darajalar bo‘yicha taqsimlanishdagi farqlar aniq. O‘z navbatida, qaralayotgan ko‘rsatkichlarni o‘sishi ta’lim jarayonida rivojlanuvchi effektning mavjudligini tasavvur qilishga imkon beradi.

Bu jarayonda “Piktogramma” metodidan foydalanish, kursantda texnik tafakkurni rivojlantirish uchun imkon yaratib beradi.

Tajribaning dastlabki bosqichda kursantlarning texnik faoliyatga tayyorlik darajasi past bo‘lganda, asosiy e’tibor ularning hissiy-shaxslik xususiyatlari darajasini ko‘tarishga qaratiladi. Kursantlarni texnik faoliyatga qiziqtirish, bu faoliyatning ahamiyatini tushuntirish va uni amalga oshirishga yaraydigan bilimlarni egallashga yo‘naltirish diqqat markazida bo‘ladi. Bu bosqichda kursantlarda texnik faoliyat ehtiyojini qo‘zg‘ash muhim sanaladi.

Shu bois “Piktogramma”, ‘‘Klaster’’, ‘‘BBB’’ texnologiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiq[1].


1-jadval

Kursantlarda texnik tafakkurni shakllanganligining dastlabki darajasi

Guruhlar/ darajalar	Tajriba-sinov guruhlari n_2 = 180 nafar			Nazorat guruhlari n_1 = 172 nafar		
	Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
	Nafar hisobida					
Texnik tafakkurni rivojlanganlik darajasi						
Tajr. avv	34	49	97	36	42	94
% da	18%	28%	54%	21%	24%	55%
1-rasm. Tanlanmalarga mos kelgan diagramma Demak, diagrammadan ko‘rinadiki, tajribaning dastlabki o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari orasida deyarli farq sezilarli emas. Bu o‘z navbatida ilmiy tadqiqot ishlarida qo‘yilgan muammolarning dolzarbligini aks ettiradi.						
1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kursantlarda texnik tafakkurning rivojlanganlik darajasi talab darajasida emas. Bu esa tadqiqot ishimizning keyingi bosqichlarida kasbiy faoliyat jarayonida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy asosga ega metodikani ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Keyingi ikkinchi bosqichda kursantlarda texnik faoliyatga ehtiyoj qo‘zg‘atilgan (aktuallashgan), ammo xabardorlik, bilim darajasi yetarli bo‘lmasligi hisobga olinadi. Shu bois ta’lim jarayonida “T-Sxema”, “To‘rt pog‘ona” kabi metodlardan foydalanish nazarda tutiladi. So‘nggi bosqich. Kursantlarning xabardorlik va onglilik darajasi ortgandan keyin urg‘u mavjud nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratiladi. Ya’ni, olingan bilim va shakllantirilgan ko‘nikmalarni mustaqil texnik soha amaliyotiga qo‘llashdan iborat bo‘ladi. Mazkur jarayonda “Assisment” texnikasidan foydalanish ko‘zda tutiladi. Tajriba yakunida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlanganlik darajasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (2-jadvalga qarang). 2-jadval natijalariga asoslangan holda tajriba-sinov guruhida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlanganlik ko‘rsatkichlari yuqori ekan. Buni quyidagi diagramma ham isbotlaydi.						
2-jadval. Kursantlarda texnik tafakkurni rivojlanganligini samaradorlik darajasini aniqlash ko‘rsatkichlari (tadqiqot yakunida tajriba-sinov va nazorat guruhlaridagi natijalar son va foizlarda)						
Guruhlar / darajalar						

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida harbiy ta’lim tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-2193-sonli Farmoyishi. https://lex.uz/ru/docs/1285123.

Texnik tafakkurni rivojlanganlik darajasi						
Tajr. avv	34	49	97	36	42	94
% da	18%	28%	54%	21%	24%	54%
Taj. keyin	47	66	67	37	40	95
% da	26%	36%	37%	22%	23%	55%



2-rasm. Nazorat va tajriba-sinov guruh kursantlarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari diagrammasi

Yuqoridagi jadvalga asosan texnik tafakkurni rivojlantirishning samaradorligi darajasini aniqlash yuzasidan tajriba boshidagi va yakunidagi natijalarni aniqlash bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishlari yuqoridagi mezonlar bo‘yicha matematik-statistika metodi yordamida tahlil etildi.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarning o‘zlashtirgan muayyan mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikmalarini amaliy mashg‘ulotlar davomida yanada mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunda kursantlarning texnik tafakkurini rivojlantirish uchun ko‘proq mulohaza yuritishga undaydigan faol metodlardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi 2001-yil 11-maydagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi 211-11-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/108083.

2. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida harbiy ta’lim tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-2193-sonli Farmoyishi. https://lex.uz/ru/docs/1285123.

Sevara YAROVA,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti, "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrasi tayanch doktoranti

TALABALARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI INNOVATSION HAMKORLIK ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning zaruriyati, shuningdek, kommunikativ kompetentlik tushunchasi, shaxsiy muvaffaqiyat, raqobatbardoshlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik masalalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar. Yondashuv, kasbiy ko'nikmalar, kommunikativ kompetentlik, kompetentlik, rivojlantirish, shakllantirish, ta'lim, talaba.

В данной статье трактуется необходимость развития коммуникативной компетентности студентов в образовательном процессе, а также понятия коммуникативной компетентности, личной успешности, конкурентоспособности, высокой профессиональной подготовки.

Ключевые слова. Подход, профессиональные умения, коммуникативная компетентность, компетентность, развитие, формирование, воспитание, студент.

This article interprets the need to develop the communicative competence of students in the educational process, as well as the concepts of communicative competence, personal success, competitiveness, and high professional training.

Key words. Approach, professional skills, communicative competence, competence, development, formation, education, student.

Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko'plab olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o'zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ xatti-harakatlarini nazariy o'rganishga e'tibor qaratilgan. Biroq, odamning ijtimoiy funksiyalarni bajarishda uning nutqiy tayyorligini ham amaliy o'rganish zarur hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentlik tushunchasi, bizning fikrimizcha, ijtimoiy gumanitar bilimlarni talabalarning barcha hayotiy jarayonlarida barkamol aloqa qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish va shuning uchun ularning ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun amaliy harakatlari bilan bog'lashga yordam beradi. Shunga ko'ra, turli xil ta'lim islohotlarini amalga oshirishda, xususan, ta'lim tizimi ning yangi davlat standartlariga o'tishida va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda e'tiborga olinishi mumkin bo'lgan ilmiy tavsiyalarning ahamiyati o'sib bormoqda. Zamonaviy o'quv jarayonidagi asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish, ular

nafaqat akademik bilimlarga, balki turli sohalar va faoliyatlardagi muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur sanaladi. Mamlakatimizdagi ta’lim islohotlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxsning eng ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlari: muloqotchanlik, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, biznesga ijodiy yondoshish, qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Bunday fazilatlarni bo‘lajak mutaxassislarda shakllantirish, ularga kelajakda samarali faoliyatni sifatli olib borishga imkon beradi. Muammo shundaki, nutq mas’uliyatini oshirish bilan bog‘liq kasblar uchun yuqori sifatli samarali muloqotni, so‘zni o‘zlashtirish qobiliyati, so‘z yordamida professional muammolarni hal qilishga o‘rgatishdir. Bizning tadqiqotdan ko‘zlagan maqsadimiz pedagogika fanlarini o‘qitish jarayonida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, nazariy jihatdan asoslash hisoblanadi. Tadqiqot obyekti texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining pedagogika fanlarni o‘rganishida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni. Mavzu bo‘yicha boshqa olimlarning ilmiy asarlari tahlili. Ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur ahamiyatga ega ekanligi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lgan Taniqli olim N.A.Muslimovning ta’kidlashicha, shaxsga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali amalga oshirish uchun talabalar zarur darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lishi, ta’limtarbiya jarayonida o‘zaro ta’sir jarayonlariga moslashuvchan bo‘lishi, kommunikativ texnologiyalarni qo‘llaganda talabalar va o‘qituvchi o‘zaro bir-birini tushunishi talab etiladi. Pedagog olim Sh.S.Sharipov oliy ta’lim tizimidagi o‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat bilim va ko‘nikmalar to‘plami bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni haqiqiy o‘quv amaliyotida qo‘llash samaradorligi bilan belgilanadi. Kompetentlikka ega bo‘lish qobiliyatlilikni anglatadi, mavjud bilimlarni, tajribani muayyan vaziyatlarda muammoni hal qilish uchun safarbar eta olishlikni anglatishini qayd etadi. Hamdo‘stlik mamlakatlari olimlaridan F.E.Zeer ta’lim jarayonidagi qulay axloqiy va ruhiy muhit, talabalar bilan muloqotning insonparvarligi va demokratlashuvi, o‘zaro aloqalarning samaradorligi, muammolarni hal qilishdagi samaradorlik, o‘qituvchi va talabalarning o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kommunikativ kompetentligiga bog‘liq ekanligini e’tirof etadi. M.I.Luk’yanova asosiy tushuncha bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning tuzilmasi bu kompetentlikdir. Kompetentlik o‘quv jarayoni natijalari va kasbiy faoliyatga bo‘lgan talablarni anglashning hozirgi yo‘nalishlarini aks ettiradi va ta’lim sifatini baholash jarayonlarini tavsiflash va uni takomillashtirishni ta’minlash uchun zarurligini aytadi. Mualliflar muhandislik-texnika oliygohlarida gumanitar ta’lim muammolarini ta’kidlaydilar, muhandislik va gumanitar fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan usullarni izlash va amalga oshirish, gumanitar, shu jumladan psixologik va pedagogik fanlarni o‘rganish jarayonini faollashtirishga qaratilgan interfaol muloqotning yangi shakllarini izlash zarurligini ta’kidlaydilar. Biroq, muhandislik ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish uchun nazariy va uslubiy yordamni rivojlantirishga qaramay, kelajakdagi muhandisning universal, shu jumladan, kommunikativ kompetentligi rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari aniqlanmagan. Kompetentlik – bu bilimga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat hisoblanib, shaxsning intellektual va shaxsan aniqlangan ijtimoiy va kasbiy shakllanishidir. Kompetentlik – bu muayyan obyektlar va jarayonlar bilan bog‘liq holda aniqlangan va ularga

nisbatan yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq xususiyatlar to‘plamini (bilim, ko‘nikma, faoliyat usullari) o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, ushbu tushunchalarni aniqlaydigan olimlar, kompetentlik deganda, talabaning ta’lim jarayonidagi tayyorgarligiga bo‘lgan ma’lum bir ajratib olingan, maxsus talabni nazarda tutishgan. Kompetentlik, shuning uchun nafaqat insonning faoliyatini, balki, insonning o‘zini ham faoliyat sub'ekti sifatida tavsiflaydi. Kasbiy kommunikativ kompetentlik tarkibiga har qanday kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan quyidagi sifatlar kiradi:

– biznes sohasida yozma va og‘zaki muloqot qobiliyatlari;

– ish yuzasidan muzokaralar olib borish qobiliyati;

– ish etiketiga mos ravishda aloqa o‘rnatish qobiliyati;

– jamoa a’zolari bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati;

– hamkasblar bilan, rahbariyat va xizmatchilar bilan konstruktiv shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati (sheriklar bilan aloqa);

– nizolarni oldini olish va hal qilish qobiliyati;

– turli xil biznes vaziyatlarida o‘zlarining xatti-harakatlarini va suhbatdoshning xatti-harakatlarini modellashtirish va tartibga solish qobiliyati;

– professional va shaxsiy muammolarni hal qilishga tayyorlik (qaror qabul qilish, tahlil qilish, shakllantirish, muhokama qilish va hal qilish);

– suhbatdoshni tinglash va eshitish qobiliyati va boshqa ba’zi ko‘nikmalar. O‘qituvchi uchun ham kommunikativ kompetentlikning ahamiyati kasbiy faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega, chunki o‘quv jarayonining ikkita asosiy subyekti;

– o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri asosan muloqotdir va bu so‘zlashuv yordamida amalga oshiriladi. O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi, shuningdek, talabalar bilan birgalikda ishlash sharoitida o‘z maqsadlariga erishish uchun uning hamkasblari, ota-onalar va o‘quv jarayonining boshqa subyektlari bilan ish munosabatlarining butun tizimini tartibga soladi. Pedagogik sohadagi muloqot o‘qituvchining kommunikativ kompetentligining tarkibini belgilaydigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, kundalik ish hayotida o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi so‘z boyligi, bilim, ko‘nikma va malakalarini darajasi, pedagogik vaziyatni obyektiv baholashga tayyorligi bilan namoyon bo‘ladi, shu munosabat bilan uning namoyon bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan maxsus pedagogik topshiriqlarni taqdim eta olishi zarur. Bunday holatlar juda ko‘p va juda xilma-xil. Ulardan ba’zilarini keltiramiz:

1) o‘qituvchilarning talabalar bilan tanishish holati;

2) mavzuni izohlash, tushuntirish – tushunish;

3) tayanch ilmiy ma’lumotlar berish;

4) talaba faoliyatini baholash;

5) o‘qituvchi xatosi va boshqa holatlar.

6) xulq-atvor me’yorlarining buzilishi (shovqin, baland ovozda gapirish va h.k.);

Har bir pedagogik vaziyat o‘qituvchidan ma’lum nutq janrlariga ega bo‘lishni talab qiladi. Shunday qilib, birinchi tur dagi holatlar uchun salomlashish, muomala, taqdimot kabi janrlarini o‘zlashtirishi kerak. Vaziyatlarning ikkinchi guruhi uchun – suhbatlar, ma’ruzalar, savollar; uchinchisi uchun – buyurtmalar, talablar, buyruqlar, rag‘batlantirish, maslahat, so‘rovlar, ishontirish; to‘rtinchisi – maqtov, iltifot, ma’qullash kabilar. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida ta’lim tizimi madaniy va tarixiy rivojlanish modelining o‘zgarishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ta’lim tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmasin, baribir ular ishtirokchiga – ya’ni, o‘qituvchi

shaxsi zimmasiga yuklanadi. Aynan o‘qituvchi turli xil innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy shaxs hisoblanadi. Yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun (va ta’limni modernizatsiyalashning asosiy g‘oyalaridan biri – bu kompetentliklarni rivojlantirish), yangi sharoitda unga qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun o‘qituvchi zarur darajadagi kasbiy mahoratga ega bo‘lishi kerak. Kommunikativ kompetentlik (lotincha competens – to‘g‘ri, qodir) – boshqa odamlar bilan samarali aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati, degan ma’noni anglatadi. Kommunikativ kompetentlik o‘qituvchining asosiy qobiliyatlaridan biri sifatida belgilangan. Agar o‘qituvchi yetarli darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lmasa, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zaro ta’sir o‘tkazish jarayonini moslashuvchan boshqarishga tayyor bo‘lmasa, shaxsga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mumkin emas (chunki, o‘qituvchilik kasbi ham o‘zgaruvchan, ham boshqaruvchidir), talabalar bilan o‘zaro teskari aloqa texnologiyalarini qo‘llaydi, o‘zaro bir-birini tushunishni rivojlantiradi va hokazolar. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni o‘quv jarayoni ishtirokchilarining rivojlanishi va o‘zini namoyon qilish usullaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlik shaxsiy muvaffaqiyat, raqobatbardoshlik va shaxsiy qoniqish, shuningdek, ta’limning sifatiga bog‘liq bo‘lgan yuqori kasbiy darajaning asosiy qismlaridan biriga aylanadi. Faol va samarali tinglash konstruktiv muloqotning asosiy shartlaridan biridir.

Kommunikativ kompetentlikning quyidagi turlari mavjud: – qo‘llanilishi bo‘yicha: umumiy va kasbiy;

– sifat jihatidan: ijodiy va reproduktiv;

– o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha:

tinglovchining va ma’ruzachining kompetentligi. Kommunikativ kompetentlik shartlaridan biri bu muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ilmiy mohiyati. Ta’lim jarayonida talabalar kommunikativ kompetentligini shakllantirish maqsadida o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasi tipologiyasini rivojlantirish modellarining samarali imkoniyatlarini ish tajribamiz davomida aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

1. “Suqrot” modelining imkoniyatlari. O‘qituvchi faol bahs-munozaralarni tashkil qilish orqali auditoriyada keng e’tiborga sazovor bo‘ladi. Faol munozarada o‘ziga xos individualikka, doimiy intellektual bellashuv muhitini yaratishga asoslanadi, talabalar o‘z qarashlarini asoslashga izchil harakat qiladilar.

2. “Guruhiy munozara” modelining imkoniyatlari. Munozara asosan juftlikda va shamoaviy shaklda amalga oshiriladi. O‘qituvchi uchun o‘quv jarayonidagi asosiy jihat talabalar pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir.

3. ”Mahorat” modelining imkoniyatlari. O‘qituvchi ibrat namunasi sifatida harakat qiladi, o‘zining har bir harakatini talabalarning e’tiborini tortishga qaratadi.

4. “Intizom” modelining imkoniyatlari. O‘qituvchi har qanday noaniqlikdan qochadi, talabchanlikni ta’kidlaydi, har doim har qanday vaziyatni tezkor tahlil qiladi va ijobiy yechim bo‘ladigan maqbul fikrni ilgari suradi. Bu uslub pedagogik amaliyotda ahamiyatlidir.

5. ‘‘Menejer’’ modelining imkoniyatlari. Talabalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini rag‘batlantiradigan samarali, auditoriya muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lib unda o‘qituvchi har bir talaba bilan hal qilinayotgan muammoning ma’nosini, sifat nazorati va yakuniy natijani baholashni muhokama qilishga intiladi.

6. ‘‘Murabbiy’’ modelining imkoniyatlari. Auditoriyadagi muloqot muhiti o‘zaro hamkorlik ruhi bilan qoplangan. Bu holatda talabalar bitta jamoaning o‘yinchilariga o‘xshaydi, bu yerda har biri alohida shaxs sifatida muhim emas, lekin ular birgalikda ko‘p ish

qilishlari mumkin. O‘qituvchining asosiy maqsadi – yakuniy natija, ajoyib muvaffaqiyat va g‘alaba uchun guruh a’zolari harakatlarini ilhomlantirish hisoblanadi. O‘qituvchilar talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga e’tibor va mas’uliyat bilan yondashishlari hamda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda auditoriyada quyidagilarga amal qilishi kerak deb hisoblaymiz:

1. “Muloqotga doimiy tayyorlik”. Muloqot jarayonidagi umumiy va shaxsiy to‘siqlarning mavjudligi ko‘pincha ma’lumotlarni talabalar tomonidan chala va noto‘g‘ri tushunishiga olib keladi.

2. “Aniqlik”. O‘qituvchi mavhum iboralar va so‘zlardan foydalanmasligi va juda keng tarqalmagan atamalarni ishlatmaslik kerak.

3. “Xatti-harakatlarni tizimlashtirish”. O‘qituvchi faqat nutqi va muloqot tarkibini boshqarishi emas, balki, yuz ifodalarini, imo-ishoralarni, intonatsiyani va xulq-atvorini ham nazorat qilish kerak.

4. “Shaxsiy xatolik”. Muloqotda har doim o‘z shaxsiy nuqtai nazarimizni noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin deb taxmin qilishimiz kerak. Bu bizni jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yishdan saqlaydi.

5. “Joy va vaqt”. Agar biror ma’lumotni yetkazish o‘z vaqtida va eng maqbul vaziyatda amalga oshirilsa, har qanday ma’lumotning ta’sirchanligi keskin oshadi.

6. “Ochiqlik”. O‘z nuqtai nazarimizni bahsli holatlar ta’sirida yuzaga kelgan yangi vaziyatlarda qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik, suhbatdoshning fikrini qabul qilish va hisobga olish qobiliyati.

7. “Qaytar aloqa”. Aloqa jarayonining asosiy maqsadiga erishishni ta’minlash – o‘zaro bir-birini tushunish. Kommunikativ kompetentlik tarkibi quyidagi qismlarga bo‘linadi: kommunikativ bilimlar, kommunikativ ko‘nikmalar va kommunikativ qobiliyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. –https://lex.uz/docs/3107036

2. Ашихмина Т.А. Формирование коммуникативной компетентности студентов // Мир науки, культуры, образования. –2012.– №4(35). –С. 52-54.

3. Jumanov Alisher Asatullayevich, Ibragimova Gulzoda Nabiyevna, Abduraxmonova Shohijaxon Abduqodirovna Model Of Diagnostics And Improve ment Of Quality Of Preparation For Professional Activity Based On Integration Of Pedagogical And Technical Knowledge The American Journal of Social Science and Education Innovations Published: December 18, 2020 | Pages: 107-114 https://usajournalshub.com/index.php/tajssei/article/view/1644/1562

Yaxyo ERGASHEV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti,
''Jismoniy tarbiya va sport'' kafedrasi katta o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TA'LIMIGA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ QILISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarini yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, innovatsiya, modernizatsiya, mexanizm, pedagog, intellektual, bilim, ko'nikma, malaka, model, raqobat.

В данной статье идет речь о повышении способности учителей физической культуры к новаторству, способности к самостоятельной работе, возможности проведения уроков и внеурочной деятельности с использованием современных педагогических технологий и интерактивных методов.

Ключевые слова. Учитель физической культуры, инновация, модернизация, механизм, педагог, интеллектуал, знание, умение, мастерство, модель, конкуренция.

This article is about increasing the ability of physical education teachers to innovate, the ability to work independently, the possibility of conducting lessons and extracurricular activities using modern pedagogical technologies and interactive methods.

Key words. Physical education teacher, innovation, modernization, mechanism, teacher, intellectual, knowledge, skill, mastery, model, competition.

Dunyo miqyosida oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, intellektual va jismoniy kamolotini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, o'quv predmetlariga sog'lomlashtiruvchi texnologiyalarni joriy etish, uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash, mutaxassislarni, shu jumladan, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kreativligi, ijodkorligini oshirish vazifalari qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qilar ekan, uni boshqaradi, davlat ahamiyatiga molik vazifalarni amalga oshiradi, davlat maqsadlari asosida yangi avlodni jamiyat uchun shakllantiradi. Shunga ko'ra, o'qituvchi o'z faoliyatini yangi uslubda tashkil qilishga tayyor bo'lsagina, hali kashf qilinmagan kashfiyotlarga boy bo'lgan kasbiy pedagogik jarayonni tashkil qiladi hamda har tomonlama barkamol shaxs shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratadi. Demak, ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishda ilk qadamlaridan biri bu – o'qituvchilarni kasbiy pedagogik jarayonga tayyorligini ta'minlashdir. Respublikamizda ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ish uslubini takomillashtirishda optimal-pedagogik usullar izlanmoqda.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat ekan unda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiy faoliyatda quyidagi qobiliyatlarini namoyon etishi lozim:

● dars mashg‘ulotlarida ijodiy motivatsiyani qo‘llaydi, kasbiy faoliyatni baholaydi;

● talabalarning ijodiy o‘zaro faoliyatiga hamkorlik qiladi; qat’iyatlilik, mas’uliyatlilik va halollik bilan ishini tashkil etadi; kasbiy faoliyatga bo‘lgan zaruratni aniqlaydi; ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik ko‘radi;

● shaxsiy maqsadlarni kasbiy faoliyat bilan moslashtiradi va boshqalar. Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi funksiyalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

● milliy g‘oya, umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni jismoniy tarbiya darslari tarkibiga singdirish;

● bo‘lajak kasbiy faoliyatga ongli yondashuv tahlili, me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

● kasbiy yangiliklarga nisbatan ishtiyoqmandlik; ijodkorlikni shakllantirish; o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish;

● samarali va ahamiyatli me’yorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish; shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi asosida o‘z rivojlanishini ta’minlash;

● ta’lim va tarbiyani uyg‘un olib borish, yoshlarni nafaqat jismonan, balki, ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo‘yicha ta’sirchan pedagogik choralarni belgilash;

● ta’lim muassasalarida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg‘or kasbiy, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish;

● yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

● yoshlarni diniy-ekstremistik g‘oyalar, turli axborot xurujlari ta’siridan himoya qilish, ularda vatanparvarlik, yurtga sadoqat va uning taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini tarbiyalash;

● maktabdan tashqari ta’limning shakllari va mazmunini tubdan yangilash, hududlarning xususiyatlari, tahsil oluvchilarning qiziqishlari, xohish-istaklari asosida bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish;

● pedagogika sohasidagi innovatsiyalar ko‘lamini kengaytirish, pedagogik diagnostika, talaba shaxsiga individual yondashishga doir tadqiqotlarga keng yo‘l ochish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish;

● pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonida talaba faoliyatini boshqarish uchun loyihalangan jismoniy tarbiya darslarining barkamol shaxs tarbiyasiga yo‘naltirish tendensiyasini kuchaytirish. Ushbu faoliyatni amaliyotda qo‘llash parametrlari takomillashtirilsa, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatini samaradorligi oshishiga olib keladi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fani mutaxassislikka yo‘naltirilgan o‘quv predmeti sifatida jismoniy tarbiya mutaxassislari uchun fundamental bilimlar tizimi, inson jismoniy barkamolligi va unga erishish hamda boshqarishning umumiy qonuniyatlarini o‘rgatadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi ilmiy fan tarzida jismoniy tarbiyaga oid mavjud dalil-

larni izohlab beradi va umumlashtiradi. Amaliy fan sifatida insonni jismoniy kamolotining vositalari, jismoniy tarbiyasi shakllari va uning uslubiyatlari haqidagi amaliy, nazariy bilimlarni beradi, hayotiy-zaruriy harakat malakalari, ko‘nikmalari zaxirasini oshiradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uning amaliyoti hamisha rivojlanib va takomillashib boradi. Amaliyot natijalari, ilmiy tadqiqot ma’lumotlari jismoniy tarbiya nazariyasini va uslubiyatini yangicha tamoyillar va qonunlar bilan boyitib boradi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanining rivojlanishi, takomillashi uchun quyidagilar asosiy manba hisoblanadi:

– mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni yuksaltirishning yo‘llari, hozirgi paytdagi ahvoli haqidagi hukumat qarorlari, qonunlari;

– jamiyatning rivojlanishi davomida insonni har tomonlama kamol toptirish haqidagi progressiv ta’limotlar. Bu ta’limotlar insonning har tomonlama rivojlanishi huquqinigina ovoza qilish bilan kifoyalanmay, uning mazmunini ochishga urinish hamda shu g‘oyalarni amalga oshirish yo‘llarini nazariya amaliy jihatdan asoslashdan iboratdir; jismoniy tarbiya nazariyasi, uslubiyati sohasi bo‘yicha olib borilgan hamda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va boshqa aralash fanlarning jismoniy tarbiyaga oid to‘plagan nazariy, amaliy bilimlari tizimi;

– ijtimoiy turmush tarzi uning hayotiy amaliyoti tajribasi, jamiyatning yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilarga bo‘lgan talabini qondirish bo‘yicha to‘plangan amaliy tajribalar;

– jamiyat a’zolarini jismoniy tarbiya qonuniyatlarini bilishi va shu asosda inson jismoniy kamoloti tizimini tuzish va uni boshqarishga oid bilimlar;

– mavjud jamiyat ma’naviyatining bir bo‘lagi hisoblangan jismoniy tarbiya tizimiga jismoniy madaniyat konsepsiyalari; jismoniy tarbiya praktikasi – manba sifatida nazariy qoidalarning hayotiyligini tekshiradi, amaliyotdagi tug‘ilgan asl g‘oyalardan foydalanadi, ular esa tarbiya nazariyasi va uslubiyatini boyitadi;

– arxiv materiallari, shaxsiy kuzatish natijalari (kundaliklar, sportchilar va ularning murabbiylarining rejalari, musobaqa bayonnomalari, konspektlar, ma’ruza matnlari va h.k.lar) jismoniy tarbiya nazariyasini boyitadi va unga manba bo‘lib xizmat qiladi;

– sog‘lom turmush tarzi nazariyasi va amaliyoti tajribalarining nazariy bilimlari, odam ekologiyasi. Sharq mutafakkirlari ma’naviy boy, jisman barkamol, komil inson masalasiga azal-azaldan alohida e’tibor berganlar. Komillik fazilatlaridan eng ulug‘i tanning inson jismining, barkamolligidadir deyiladi. Insonning matonati, diyonati, riyozati, qanoati, ilmi, sabri, intizomi, nafsi, vijdoni, haqqoniyligi, nazari, ibrati, iffati, hayosi, idroki, zakovati, iqtisodi, itoati, haqshunosligi, avf eta olishi, vatanni sevishi kabi ijobiy xislatlariga faqat sog‘lom jism, tani sixatlilik orqali erishiladi deb qaralgan.

Jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganligi tamoyili shug‘ullanuvchilarning jismoniy mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lishida ularni sog‘lig‘iga javob berish ma’suliyatini o‘rtaga tashlaydi. Jismoniy madaniyat tashkilotchilari, trenerlar, davlat, xalq oldida shug‘ullanuvchilarning sog‘lig‘iga javob beribgina qolmay, uni mustahkamlashga va takomillashtirishga ham javob beradilar. Jismoniy mashqlar bilan shifokor va pedagog nazorati ostida shug‘ullanilsagina, u ijobiy natija beradi. Noto‘g‘ri foydalanish esa shug‘ullanuvchi sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun biologik xususiyatlari, yoshi, jinsi, sog‘ligini hisobga olish, tizimli shifokor va pedagog nazorati tarbiya jarayonida yetakchi omildir. Amalda rejasiz ishlash o‘ta salbiy oqibatlarga olib keladi. Tanlangan uslubiyatlar, mashqlarning me’yori, bajarish intensivligi, yuklamaning umumiy miqdorini tanlashdagi pedagogning arzimas xatosi shug‘ullanuvchi uchun o‘ta

qimmatga tushishi mumkin. Shunday hollarga duch kelish mumkinki, sport natijalarini vaqtinchalik o‘sishi, jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining ortishi, organizmda vaqtinchalik sportchi uchun sezilmaydigan patologik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Kelib chiqadigan yomon oqibatlar jismoniy madaniyat va sportning obro‘siga salbiy ta’sir etadi. Shu sababli shifokor nazorati dalillarini e’tirof etish bilangina cheklanmay, asosiy e’tibor ularning tahliliga qaratilishi lozim. Nazoratni tizimli emasligi salbiy oqibatlarga olib kelishi muqarrardir. Jismoniy tarbiyani sog‘lomlashtirish bilan bog‘lab olib borish tamoyili shifokor, pedagog va shug‘ullanuvchining kunlik muntazam muloqotini talab qiladi. Jismoniy tarbiya tamoyillari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikni taqozo etadi. Shundagina ular ahamiyatini saqlab qoladi. Jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog‘liqligi uning yetakchi tamoyilidir.

Ta’limning har bir bosqichi o‘zining xususiy va ayrim yetakchi tushunchalari bilan ta’riflanadi. Faqat vazifalar ketma-ket bo‘lsagina o‘qituvchi ta’lim uslubiyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, shu qatorda ta’lim tamoyillarini, tayyorlov va yo‘llanma beruvchi mashqlardan foydalanishi, usullar va usuliyatlarni maqsadga muvofiq qo‘llay olishi mumkin. Ta’lim jarayonining tuzilishi – xususiy vazifalar, tamoyillar, vositalar va usuliyatlarning o‘qitish bosqichlaridagi o‘zaro nisbati turg‘un aloqalari orqali vujudga keladi. Harakat faoliyatini o‘rgatish jarayonida jismoniy tarbiya ta’limining tuzilishida deb qaraladi. Ta’lim jarayonining barcha elementlari (xususiy vazifalar, yo‘llanma beruvchi va tayyorlov mashqlari, uslubiyatlar va boshqalar) harakat faoliyatini o‘rgatishning yakuniy vazifasi bilan bog‘liq.

Jismoniy tarbiya nazariyasida amal qilinadigan “jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog‘liqligi”, “jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganligi”, “shaxsni har tomonlama rivojlantirish” tamoyillaridan tashqari ta’lim jarayonining uslubiy tamoyillari ham mavjud. Tarbiya jarayonidagi barcha tamoyillar jismoniy tarbiya uchun qo‘llanilishi mumkin, lekin inson tarbiyasining bu yo‘nalishining xususiyligi o‘qitishning tamoyillariga alohida mazmun va talablar qo‘yadi. Inson faoliyatining biologik, fiziologik, bioximik, biomexanik qonuniyatlari esa fikrimizning dalilidir. “Onglilik va faollilik (aktivlik)”, “Ko‘rgazmalilik”, “Munatazamlilik”, “Kuchiga yarashalik va individuallashtirish”, “Talablarni asta-sekinlik bilan oshirish”dek uslubiy tamoyillar hamda qoidalarga tizimli rioya qilish orqaligina o‘qitish jarayonida kutilgan muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Jismoniy tarbiyaning o‘qitish predmeti sifatidagi maxsus bilim va harakat faoliyatlari o‘qituvchidan o‘qitishga xos ma’lum usullar va uslubiyatlarni bilishni talab etadi. Ta’lim (o‘qitish)ning uslubiyatlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularning hech biri universal emas. Ta’lim uslubiyatlarining tavsifini bilish bu uslublar tarkibidan qulayini tanlab olishga, o‘qitish vazifalarini hal qilish uchun nisbatan samaralilarini ajratib olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рихсиева О.А. ‘‘Абу Али ибн Сино о роли физических упражнений в сохранении здоровья человек’’, –Т.: O‘qituvchi, 1982.

2. Кошбахтиев И.А. ‘‘Основ оздоровительной физкультур молодежи’’. –Т., 1994.

3. Tursunov U. ‘‘Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi’’, o‘quv qo‘llanma, Qo‘qon, 1992.

4. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, darslik, tarjima. –Т.: O‘qituvchi, 1967.

Mehriddin ABDULLAYEV,
Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti, ‘‘Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati’’ kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) professor

YENGIL ATLETIKA SPORT TO‘GARAKLARIDA MASHG‘ULOT OLIB BORAYOTGAN 10-SINF QIZLARINING JISMONIY TAYYORGARLIK DINAMIKASI

Annotatsiya

O‘tkazilgan tadqiqot ishida yengil atletika sport to‘garaklarida muntazam ravishda mashg‘ulotlar olib borayotgan 10-sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik jarayonlari hamda jismoniy sifat darajalarining shakllanib borishi, jismoniy tayyorgarlik tizimlari, jismoniy sifat ko‘rsatkichlari, tayyorgarlik dinamikasi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat, kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, jismoniy rivojlanish.

В проведенном исследовании изучаются процессы физической подготовки и формирования уровней физических качеств, системы физической подготовки, показатели физического качества, динамика подготовки девочек 10-х классов, регулярно занимающихся в легкоатлетических спортивных секциях.

Ключевые слова. Физическая подготовленность, физические качества, сила, скорость, выносливость, гибкость, физическое развитие.


In the study, the processes of physical training and the formation of physical qualities levels, systems of physical training, indicators of physical quality, dynamics of training of 10th grade girls regularly involved in athletics sports sections are studied.

Key words. Physical fitness, physical qualities, strength, speed, endurance, flexibility, physical development.

Butun jahon hamdo‘stligi davlatlari orasida xotin-qizlar sportiga bo‘lgan talab va e’tiborning ortib borayotgani mamlakatimizda ham qizlar uchun jismoniy tarbiya hamda sport bilan muntazam ravishda mashg‘ulotlar olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ushbu berilgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda umumta’lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 10-sinf qizlarining jismoniy tarbiya darslari, sport to‘garaklari davrida jismoniy sifat darajalari hamda tayyorgarlik bosqichlarining takomillashib borishi aniqlandi.

Tadqiqot o‘tkazishning asosiy maqsadlaridan biri – bu o‘sib kelayotgan yosh qizlarning sog‘lom turmush tarziga tayyorlash, ulardagi jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda yuqoriroq natijalarni qayd etib, mamlakatimiz sharafini himoya qilish har bir insonning eng oliy maqsadidir. O‘tkazilgan tajriba davomida 10-sinf qizlarning jismoniy sifat ko‘rsatkichlari va tayyorgarlik darajalari baholash mezonlari asosida baholab borildi. Qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajalari dastlab gardishni belda 1 daqiqa aylantirish nazorat sinovi orqali aniqlandi. 1-rasmda tasvirlangan diagrammada 10-sinf qizlarining gardishni belda 1 daqiqa aylantirish amaliyotida ko‘rsatgan natijalari aniq keltirilgan. Olingan natijalarga asosan qizlarning 20 foizida jismoniy ko‘rsatkich darajalari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, gardishni belda

1 daqiqa aylantirish 10-sinf qizlarining egiluvchanlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi. Qizlarning 25 foizida ushbu jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarli darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan 3 baho bilan qayd etildi.



1 rasm. 10-sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari.


Jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash maqsadida navbatdagi nazorat sinovi o‘tkazildi. Ushbu nazorat sinovi gimnastik o‘rindiqqa tayanib qo‘llarni bukish va yozishdan iborat. Tanlab olingan bu nazorat me’yori kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. O‘tkazilgan tadqiqot ishida qizlarning 25 foiz qismida kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan 2 baho bilan baholanishdi. 10-sinf qizlarining 30 foizida qoniqarli natija qayd etildi hamda 3 baho bilan sinovdan o‘tishdi. Kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini rivojlanish darajalari 55 foiz qizlarda past ko‘rinishda ekanligi o‘tkazilgan tadqiqot davomida aniqlandi. (1-rasmga qarang).

Keyingi nazorat mashqi kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashga yordamlashadi. Ushbu nazorat mashqi arg‘amchida 1 daqiqagacha sakrash amaliyoti bo‘lib, 10-sinf qizlarining jismoniy rivojlanish bosqichlarini ketma-ketligini ta’minlaydi. O‘tkazilgan nazorat sinov mashqida qizlarning 20 foizida kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan 2 baho bilan baholanib berilgan topshiriqdan yiqilishdi. Bu nazorat sinovini qoniqarli ko‘rsatkichda bajargan qizlar 30 foizni tashkil etishdi va ular ham baholash mezonlariga asosan 3 baho bilan qayd etildi. Yakuniy xulosa 10-sinf qizlarida ushbu olingan nazorat sinovi yakuniga ko‘ra past darajada ekanligi aniqlandi. (1-rasmga qarang).

Navbatdagi nazorat sinov mashqi 60m masofaga yugurish amaliy mashg‘uloti bo‘lib ushbu mashq maktab qizlarining tezkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. 60 m ga yugurish nazorat sinovida olingan natijalarga asosan 10-sinf qizlarining 25 foiz qismida ushbu jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan 2 baho bilan qayd etildi. Qoniqarli natija bilan belgilangan vaqt ichida belgilangan masofani bosib o‘tgan qizlar 35 foizni tashkil

etishdi. Ushbu nazorat sinovida olingan natijalar asosida umumiy xulosaga keladigan bo‘lsak, 10-sinf qizlarining tezkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlari 60 foiz qizlarda past darajada ekanligi aniqlandi va o‘sib borish ko‘rsatkichlari talab darajasida emasligi o‘z isbotini topdi. (2-rasmga qarang).

Tezkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashning navbatdagi bosqichi 4x10 mokisimon yugurish nazorat sinovi orqali amalga oshirildi. 4x10 mokisimon yugurish amaliyotida 10-sinf qizlarining qay darajada tez harakatlanishi va ulardagi reaksiya kuchlanishini ham aniqlash uchun bu amaliyot tanlab olindi. Natijalarga ko‘ra, qizlarning 30 foiz qismida tezkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich harakat tezligining cheklanishiga olib keladi. 10-sinf qizlarining 35 foizida tezkorlik jismoniy sifati qoniqarli ekanligi qayd etildi va baholash mezonlariga asosan 3 baho bilan belgilab borildi. (2-rasmga qarang).




2-rasm. 10-sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari.

To‘pni uzoqqa uloqtirish amaliy nazorat sinov mashqi orqali kuch, jismoniy sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi. O‘tkazilgan tadqiqot ishlarida 10 sinf qizlarining 20 foizida kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz darajalarda ekanligi aniqlandi. Nazorat sinovini qoniqarli darajalarda topshirgan qizlar 30 foizni tashkil etishdi. Kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari 10-sinf qizlarining qariyb 50 foizida past darajalarda ekanligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlarni yaxshilash maqsadida qizlarning individual ko‘rsatkich darajalarini ham hisobga olib yuklamalar berish ijobiy samaralarga erishishga xizmat qilishi o‘z isbotini topgan. Jismoniy tayyorgarlik darajalari yengil atletika mashg‘ulotlarining to‘g‘ri olib borilishi va har bir sportchiga individual yondashgan holda yuklamalar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. (2-rasmga qarang).

Yugurib kelib balandlikka sakrash, ushbu nazorat sinovi davomida kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi va baholash mezonlariga asosan baholanib boriladi. Nazorat sinovi jarayonida aniqlangan ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ldi: unga ko‘ra 25 foiz qizlarning kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz ekanligi va 30 foiz qizlarning

ushbu jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarli darajalarda shakllanayotganligi aniqlandi. O‘z navbatida ushbu ko‘rsatkichlar baholash mezonlariga asosan 2 va 3 baholar bilan qayd etildi. Nazorat sinovi yakunida 50 foizdan ortiq 10-sinf qizlarida kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari pastligi aniqlandi. (3-rasmga qarang).



	Chalqancha yotgan holda gavdani 90* ko'tarish	1000 m ga yugurish	Yugurib kelib uzunlikka sakrash	Yugurib kelib balandlikka sakrash
5 baho	20%	15%	15%	20%
4 baho	25%	20%	20%	25%
3 baho	30%	35%	35%	30%
2 baho	25%	30%	30%	25%

3-rasm. 10-sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari.

Jismoniy tayyorgarlik darajalari turli nazorat me’yorlarida turlicha natijalarni ko‘rsatmoqda. Jismoniy rivojlanish jarayonlarini to‘g‘ri baholash maqsadida yordamchi nazorat mashqi yugurib kelib uzunlikka sakrash amaliyoti orqali amalga oshiriladi. Ushbu nazorat sinovida 10-sinf qizlarining 30 foiz qismida kuch hamda tezkorlik, jismoniy sifat ko‘rsatkichlari qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi hamda baholash mezonlari asosida 2 baho bilan baholanib nazorat sinovidan o‘ta olishmadi. Nazorat sinovini qoniqarli baholar bilan bajargan qizlar 35 foizni tashkil etdi. Qizlarning 20 foizida ushbu ko‘rsatkich 20 foizni tashkil etdi va baholash mezonlari asosida 4 baho bilan nazorat sinovini yakunlashdi. (3-rasmga qarang).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-iyundagi PQ 3031– sonli qarori. LEX.Uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ning 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli farmoni.

Qahramon MELIYEV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, ‘‘Jismoniy tarbiya va sport’’
kafedrasi o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagoglik kasbining ijtimoiy mohiyati, pedagoglik kasbiga xos qobiliyatlar aks ettirilgan. Pedagogik kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, pedagogik kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, qiziqish, qobiliyat, iste¸dod, e¸tiqod, amaliy ko‘nikmalar, rivojlantirish, pedagog, kompetentlik, didaktik, kommunikativ, perseptiv.

В статье описывается развитие профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры, социальная сущность педагогической профессии, способности, характерные для педагогической профессии. Объясняется сущность понятия педагогической компетентности, специфические аспекты формирования педагогической компетентности.

Ключевые слова. Учитель физической культуры, интерес, способность, талант, убеждение, практические навыки, развитие, педагог, компетентность, дидактическая, коммуникативная, перцептивная.

The article describes the development of professional competence of future teachers of physical culture, the social essence of the teaching profession, the abilities characteristic of the teaching profession. The essence of the concept of pedagogical competence, specific aspects of the formation of pedagogical competence are explained.

Key words. Physical education teachers, interests, abilities, talents, beliefs, practical skills, comprehensive development, pedagogue, competence, didactic, communicative, perceptive.

Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog yosh qalblar kamolotining me¸moridir. Bugun yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o‘rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb-hunar egallashlariga ko‘maklashishi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifani hal etishga chog‘lamog‘i darkor. Ana shu ma’suliyat bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchi-yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste¸dodi, e¸tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart-sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy-metodik yordam ko‘rsatishi hamda o‘qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko‘maklashadi.

Zamonaviy pedagog quyidagi qobiliyatlarni o‘zida aks ettirishi lozim:

1. Tashkilotchilik qobiliyati – talabalarni birlashtirish, vazifalar bilan band qilish, javobgarlikni taqsimlash, umumiy topshiriqlar bajarishda ko‘rinadi.

2. Didaktik qobiliyati – o‘quv materialini, ko‘rgazmalarni tanlash va tayyorlash, talabalarning bilishga nisbatan qiziqish va ehtiyojlarini rag‘batlantirish, o‘quv faolligini

oshirishda namoyon bo‘ladi.

3. Perseptiv qobiliyati – talabaning ma’naviy dunyosiga kira olish, ruhiy-emotsional holatini aniqlash va obyektiv baholay olish, pedagogik intuitsiya va empatiyada ko‘rinadi.

4. Kommunikativ qobiliyati – talabalar, hamkasblar va rahbariyat bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabat o‘rnatish, muloqotga tez kirishish, ekstrovertlikda namoyon bo‘ladi.

5. Suggestiv qobiliyati – talabalarga emotsional irodaviy ta’sir ko‘rsatish, ularni o‘z imkoniyatlariga ishontira olishda ko‘rinadi.

6. Ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyati – pedagogik vaziyat, jarayonlarni o‘rganish va baholash malakalari tushuniladi.

7. Nutq qobiliyati – aniq va ishonchli, emotsiyali, madaniyatli, lug‘atiy jihatdan boy nutq texnikasiga ega bo‘lish. O‘quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogning insoniy xislatlari alohida muhimlik kasb etadi.

Bu xislatlar qatoriga insoniylik, adolatlilik, mehribonlik, sabr-bardosh, to‘g‘rilik, haqiqatgo‘ylik, javobgarlik, adolatlilik, majburiylik, obyektivlik, saxiylik, insonlarga bo‘lgan muhabbat, hurmat, yuqori ma’naviyatlilik, optimizm, emotsional vazminlik, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, tarbiyalanuvchilar hayotiga bo‘lgan qiziqish, oliyjanoblik, o‘z-o‘zini tanqid qilish, do‘stsevarlik, vazminlik, qadr-qimmat, vatanparvarlik, diniy e’tiqod, prinsipiallik, emotsional madaniyat va boshqalar kiradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o‘quvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘zini-o‘zi va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qiladigan, obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta’lim oluvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o‘quvchilar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko‘rish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan hamda ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta’minlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan pedagogni kompetentli o‘qituvchi deyishimiz mumkin.

Tahlillar uzluksiz malaka oshirish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bugungi kun talablari darajasida emasligini ko‘rsatmoqda. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan aksariyat jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari tizimda olib borilayotgan islohotlar, fanga doir yangiliklar bilan faqat davriy ravishda besh yilda bir marta malaka oshirish kurslarida o‘qish jarayonidagina tanishish bilan chegaralanib qolmoqdalar. Amaliyotdan ma’lumki, har bir pedagog kadr davriy ravishda besh yilda bir marta malaka oshirish kurslarida o‘qish bilan chegaralanib qolmasdan, tizimli ravishda har kun, har doim o‘z faniga hamda barkamol avlod tarbiyasiga doir, kundalik axborotlarni muntazam o‘rganib, o‘z faoliyatiga tatbiq etib borishi lozim. Mustaqil o‘qib bilim orttirish – ta’limning rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlari tomonidan kasb mahoratini oshirishga, kasbiy layoqatini va ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning o‘z lavozimi va mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni uzluksiz ravishda

mustaqil o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Aslida o‘qituvchining mustaqil mutolaasi uzluksiz ravishda o‘qib bilim orttirishning eng samarali usullardan biridir. Sohaga oid jurnal va gazetalardagi yangiliklar bilan doimiy ravishda tanishib borish, yangi nashr etilgan adabiyotlarni mutolaa qilish, kasbiy mahoratini oshirish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirish, metodik mahoratini oshirish, pedagogik va psixologik bilimlarini boyitish o‘qituvchining mustaqil o‘qish jarayonidagi asosiy vazifalardandir. Mustaqil o‘qib bilim orttirish jarayoni umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining mamlakatimiz xalq ta’limi hamda jismoniy tarbiya va sport sohalaridagi yangiliklar bilan qurollantirib, ularni mustaqil o‘zlashtirishlari, kasbiy mahoratlarini muntazam oshirib borishlari sari metodik jihatdan yo‘naltiradi. Shuning uchun ham ular o‘z ustida muntazam ishlashlari, kasbiy mahoratlarini doimiy oshirib borishlari uchun malaka oshirish kursidan keyingi samaradorlikni ta’minlash uchun besh yillik istiqbol rejalarini tuzib, shu asosda pedagogik faoliyatlarini davom ettirishlari lozim. O‘qituvchining ijodi hamma vaqt ma’lum tajribaga asoslanadi. O‘qituvchilar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalarning murakkablashib, kundan-kunga kengayib borishini hisobga olgan holda muassasa ma’muriyati ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borishi zarur. Shunda mustaqil ta’limga ko‘nikma hosil qilgan o‘qituvchi faqat umumiy o‘rta ta’lim maktabi ma’muriyati yoki metodika kengashi rahbari tomonidan uzluksiz malaka oshirish jarayoni uchun belgilab berilgan vazifalarni bajaribgina qolmay, o‘zining kasbiy ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab o‘zi zarur deb hisoblagan qo‘shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o‘zlashtirishga o‘rganib boradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari Davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘zlarining kasbiy va pedagogik mahoratini doimiy ravishda o‘stirib borishi, mutaxassisligi, o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlarini kengaytirishi, nazariy va amaliy bilimlarini yangilash, tegishli me¸yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini puxta o‘zlashtirishi zarur. Albatta, mazkur talablar faoliyatini davom ettirayotgan har bir pedagogdan o‘z ustida qunt bilan ishlash, tinimsiz izlanish, eng ilg‘or pedagogik texnologiyalarni dadil o‘zlashtirish va takomillashtirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston – 2018. 2-jild.
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: O‘zbekiston. 4-jild.
3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T., 2003.
4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013.
6. Abidov B.K. Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi / “Zamonaviy ta’lim” jurnali, 2014-yil №9, 58-b.
7. Olimov Sh.Sh., Axmetjanov M.M. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishning ayrim yo‘llari. “Развитие науки и технологий” Научно-технический журнал. 2016-yil №4, 118-b.

Matluba SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING AKMETEXNOLOGIYALARI VA UNI QO'LLASH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish zaruriyati ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishga doir akmeologik texnologiyalarning tuzilishi va vazifalari, qo'llash metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalari, akmeologik texnologiyalar, texnologiya, texnologiyalashtirish, akmeologik ta'sir, "Ijodiy faoliyatni rivojlantirish" texnologiyasi.

Данная научно-педагогическая статья обоснована необходимостью решения задач непрерывного совершенствования технологии непрерывного профессионального развития учителей начальных классов. Описаны этапы технологизации образовательного процесса, структура и задачи акмеологических технологий повышения квалификации учителей начальных классов, способы их применения.

Ключевые слова. Технологии непрерывного профессионального развития, акмеологические технологии, технология, технологизация, акмеологическое воздействие, технология "Развитие творческой деятельности".

This article is scientifically and pedagogically based on the need to solve the problems of continuous improvement of the technology of continuous professional development of primary school teachers. The stages of technologicalization of the educational process, the structure and objectives of acmeological technologies for improving the qualifications of primary school teachers, methods of their application are described.

Key words. Technologies of countinuous professional develepment, acmeological technologies, technology, technologicalization, acmeological impact, ''Development of creative activity'' technology.

Yurtimizda ro'y berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar madaniy va ijtimoiy hayotning bir qismi bo'lgan ta'lim sohasiga bevosita ta'sir qiladi. Ta'limda yuz berayotgan o'zgarishlarni amalga oshirishda o'qituvchilar tarkibi muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, o'qituvchilar zimmasiga ta'lim sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, uzluksiz shaxsiy va kasbiy rivojlanish talablari qo'yiladi.

Kasbiy rivojlanish shaxsning kasbiy faoliyatida o'qitish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlarining miqdoriy, sifatli o'zgarishi sifatida izohlanadi. Kasbiy rivojlanish muammosi shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining integratsiyasiga asoslangan akmeologik yondashuv doirasida insonni o'zining eng yuqori yutuqlariga, o'zini to'liq anglashiga bo'lgan munosabatini safarbar qilish shartlarini aniqlashdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, yetuk professional kadrlarni kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni o‘qitish uchun mas’ul bo‘lgan o‘qituvchi-pedagoglarni uzluksiz o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda. Ushbu mexanizmlardan biri – o‘qituvchi-pedagoglarni uzluksiz o‘zini o‘zi rivojlantirishning innovatsion yo‘llarini izlab topish, shuningdek, mazkur jarayonda ehtiyojlarga asoslangan, individual, differensial, akmeologik yondashuv tamoyillarining qo‘llanilishi hisoblanadi.

Kasbiy rivojlanganlikning amaliyligi, tamoyilii ilmiy va pedagogik bilimlarni o‘qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning amaliy vazifalarini tizimli qo‘llashga qaratilgan. Kasbiy rivojlanganlikning texnologik jarayoni – bu har bir o‘qituvchining ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etishga doir o‘quv-metodik vazifalar to‘plamiga asoslangan harakatlar (usullar) ketma-ketligidir. Shunga muvofiq o‘quv va metodik vazifalarni kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini amalga oshirish imkoniyati bilan bog‘lash lozim.

Har qanday fan va amaliyot sohasi ilmiy va amaliy maqsadlarda konseptual va instrumental tamoyillardan foydalanadi.

Birinchisi, konseptual tamoyillar, tushunchalar, atamalar, toifalar tizimi, nazariyalar, tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchisi, instrumental – ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan usullar, texnikalar va texnologiyalardan iborat.

Texnologiya (yunoncha, “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqalar) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi.

Ta’lim texnologiyasi:

– bu mavjud sharoit va o‘rnatilgan vaqtda belgilangan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l va o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi (ta’lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

– bu mavjud yuzaga kelgan ta’limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati) tartibi.

Rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyalari doirasida maqsadli yo‘nalishlarda mazmun va metodikada farq qiladigan bir qator texnologiyalar ishlab chiqilgan. L.V.Zankovaning rivojlanish ta’lim texnologiyasi, shuningdek, uning dastlabki nazariy qoidalari shaxsning umumiy, har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning zamonaviy konsepsiyalarida Y.V.Bondarevskaya, V.V.Serikov, N.K.Sergeyev, V.A.Slastenin, S.A.Kotova, A.V.Petrovskiy, I.S.Yakimanskaya va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ta’limga shaxsiy yo‘nalishni belgilab berishga yordam beradi. Ular shaxsiy-semantik rivojlanishning ustuvorligi, ta’lim oluvchining subyektiv tajribasi, uning individualligini pedagogik qo‘llab-quvvatlash, o‘z-o‘zini harakat qilish uchun sharoit yaratish, shaxsni rivojlantirish, ta’lim oluvchini ta’lim va hayot subyekti sifatida shakllantirish g‘oyalariga asoslangan.

M.V.Belov va D.A.Novikov tadqiqotlarida texnologiyani maqsadga izchil erishish shart-sharoitlari, mezonlari, shakllari, usullari va vositalari tizimi sifatida talqin qiladi.

G.Ernazarovaning ilmiy tadqiqotlarida fanni o‘qitishda ta’limning pedagogik-psixologik-akmeologik vazifalari integratsiyasini ta’minlash asosida munozarali akmetexnologiya, rivojlantiruvchi akmetexnologiya, treningli akmetexnologiya va o‘yinli akmetexnologiyalarni qo‘llash metodikalari ishlab chiqilgan.

Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko‘rinishi bo‘lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

– loyihani yaratish;
– tinglovchi-o‘qituvchilar faoliyatini tashxislash;
– pedagogik jarayonni tashkil etish;
– pedagogik jarayonning samarali kechishini ta’minlash;
– tinglovchi-o‘qituvchilar faoliyatini nazorat qilish.

“Texnologiya” fenomenini tahlil qilishda akmeologik yondashuv zamonaviy amaliyotda ta’kidlash va uning namoyon bo‘lishining to‘rtta asosiy mohiyatini tahlil qilishga imkon beradi: ishlab chiqarish; fan; ijtimoiy munosabatlar; inson faoliyatining bir usuli sifatida.

“Texnologiya” toifasi o‘zining katta ahamiyati va amaliy imkoniyatlari tufayli tezda akmeologiyada muhim o‘rin egalladi.

Akmeologik texnologiya – shaxsning ichki imkoniyatlarini ochishga, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, kasbiy mahoratning yuqori darajasiga erishishga yordam beradigan xususiyatlar va fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan vositalar to‘plami. Keyingi yillarda akmeologik texnologiyalarni yaratish muammolari va ularni uslubiy ta’minlash faol rivojlana boshladi. “Texnologik jihat” asosiy akmeologik kategoriyalarning aniqlanishiga ta’sir qila boshladi, xususan, ba’zi akmeologlarning ta’kidlashicha, professional mukammallikni birinchi navbatda samarali psixotexnologiyalar va kasbiy faoliyat texnologiyalariga ega bo‘lish deb hisoblash mumkin.

Akmeologik ta’sir – bu shaxsga yoki guruhga nisbatan amalga oshiriladigan, gumanistik tarkibga ega va asosan shaxs yoki guruhni rivojlantirishga qaratilgan integral va maqsadli ta’sir.

Akmeologiyada texnologiyani inson faoliyatining usuli, turi, faoliyati (faoliyat texnologiya deb nomlanish huquqiga ega bo‘lishi uchun uni ma’lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladigan elementlarga bo‘lish kerak) sifatida o‘rganiladi. Akmeologik texnologiyalar ichki salohiyatni rivojlantirishga, o‘qituvchilarning professionalligi va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan.

Akmeolog mutaxassislar ta’kidicha, akmeologik texnologiyalarning psixologik (hissiyotlar, irodalar, idroketish, fikrlash, aqliy tartibga solish), fiziologik (funksional holatlar, individual farqlar), tibbiy (psixoterapiya, psixogigiyena, psixoprofilaktika, psixokorreksiya) aspektlari aqliy faoliyatning intellektual, hissiy, ixtiyoriy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Ijodiy faoliyat – amaldagidan farq qiluvchi biror bir yangilik yaratishdir. Yangi bilim, o‘quv va malakalar ko‘rinishida ushbu subyekt uchun oldindan noma’lum bo‘lgan yangilik yaratish borasidagi ijodiy faoliyat.

Xulosa qilib aytganda, akmeologik yondashuv nuqtayi nazaridan o‘qituvchi shaxsining rivojlanishidagi qonuniyatlar va xususiyatlar, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini takomillashtirish, ichki resurslarni bo‘shatish va qiyinchiliklarni (tashqi va ichki) ongli ravishda yengish qobiliyati ajratib ko‘rsatiladi. Shunday qilib, kasbiy rivojlanishning yetakchi hal qiluvchi omili ijodiy tashabbus va shaxsning mustaqilligi bo‘lib, o‘zini takomillashtirish, o‘zini anglash, shaxsiyatning o‘zini namoyon qilishida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акмеология. Учебник. Под общей редакцией доктора психологических наук, профессора, академика РАО А.А.Деркача. –М.: Издательство РАГС. 2004. – С. 299.

2. Akmeologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma / G.Tillayeva.–T.: Tafakkur bo‘stoni, 2014. –192-b.

Oygul SOBIROVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi tayanch doktoranti

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarini amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishda, rag'batlantiruvchi va to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash, amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish yoritilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, metodika, uslublar, ma'naviyat, texnologiya, allomalar, axloqiy qarashlar.

Статья посвящена выявлению мотивирующих и сдерживающих факторов в развитии практических компетенций будущих учителей музыки, развитию профессионального творчества, а также учету педагогических и психологических особенностей в развитии практических компетенций.

Ключевые слова. Музыка, методология, стили, духовность, технология, ученые, нравственные воззрения.

The article is devoted to the identification motivating and constraining factors in the development of practical competencies of future music teachers, the development of professional creativity, as well as taking into account pedagogical and psychological characteristics in the development of practical competencies.

Key words. Music, methodology, styles, spirituality, technology, scientists, moral views.

Amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishda nafaqat cholg'u ijrochiligi bo'yicha mohir sozanda, u qo'shiq ijrochiligi, dirijyorlik, musiqiy nazariy hamda pedagogik bilimlarni puxta egallashi, dars jarayonida axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning ta'limiy asoslarini o'zlashtirgan, o'ta sezgir, adolatli, yaxshi orator, chuqur bilim oladigan, fikrlay oladigan inson bo'lishi lozim.

Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u-bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-xaqoyiq", Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Ibn Sinoning "Tadbir-

al-manozil”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muxsiniy” va boshqa asarlarida farzand ota-onaning baxti, uning to‘g‘ri tarbiyalanishi esa hammaning baxti, degan umumiy xulosa chiqariladi. O‘tmishdagi mutafakkirlar tarbiya atamasining ma’nosini, tarbiyalashning mazmunini alohida bayon qilmagan bo‘lsalar ham o‘z asarlarida tarbiyaning qirralarini ifodalaganlar.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari talab qilinadi: umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va shu asosda musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy talablarni bilishi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, metodik ishlarni olib borish talablarini bilishi, amaliyotga tatbiq eta olishi, har bir darsga tegishli jihoz, vosita, musiqa cholg‘u asboblari, ko‘rgazmali qurollar, didaktik materiallardan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini mahorat bilan o‘tkazish tajribasiga ega bo‘lish, o‘qitish (dars berish) va tarbiyalash mahoratiga ega bo‘lishi, o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash uchun testlar tuzishi va ularni qo‘llay bilishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy-ma’rifiy, madaniy meroslarini va ularning musiqa ilmini rivojlantirishga qo‘shgan hissalarini bilishi hamda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarga bu borada ma’lumotlar berish, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarga o‘rgatilayotgan qo‘shiqlar, tinglash uchun berilgan musiqa asarlarining mualliflari haqida bilishi va ayrim g‘azallarni sharhlash malakasiga ega bo‘lishi, o‘zbek xalq musiqa merosi, uning janrlari va mahalliy uslublari, o‘zbek milliy musiqa cholg‘u asboblari va ulardan tashkil topgan turli ansambllar, orkestr hamda orkestrlarning turlari haqida bilishi, Xorazm maqomi, Shashmaqom, Toshkent-Farg‘ona maqomlari uning cholg‘u va aytim yo‘llarini bilishi. Sharq xalqlari mumtoz musiqasi, ularning o‘xshashligi va bir-biridan farqini bilishi, o‘qituvchi ishining mazmun va mohiyatini, shakl va usullarini bilishi hamda bunday ishlarni olib borish malakasiga ega bo‘lishi, iqtidorli bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan, yakka tartibda ta’lim berish yo‘llari, shakllari hamda usullarini bilishi, musiqa madaniyati fani bo‘yicha muammolar, yangiliklar, ilmiy izlanishlar haqida bilishi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini bilishi lozim.

Darslarni kuzatish, tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarini attestatsiya qilish va toifalarini ko‘tarish tartib-qoidalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, musiqa ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha ixtisoslashgan maktab yoki chuqurlashtirilgan sinflarda ta’lim-tarbiyaning mazmun-mohiyati, talablari, uni tashkil qilishning shakl va usullari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi talab etiladi. Natijada, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini amaliy kompetensiyalarining prakseologik (amaliy, ratsional, samarador) uzviyligi motivatsion, maqsadli, operatsional, funksional, nazorat, baholash komponentlari tizimli integratsiyasi orqali rivojlantiriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining amaliy kompetensiyasi o‘qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi, pedagogik iste’dod, qobiliyat va mahorat, pedagogik texnika (san’at), o‘qituvchining shaxsiy intilishi kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning refleksiv mexanizmlari tizimli yondashuv bo‘yicha dirijyorlik texnikasini egallashdagi pedagogik strategiyalari orqali takomillashtirilgan. Pedagogik strategiyalar quyidagilardan iborat:

– qiyoslash strategiyasi – turli guruhlar o‘rtasidagi natijalarni taqqoslash;

– uzoq muddatli strategiya – ma’lum bir talabalar bilan yetarlicha uzoq vaqt davomida takroriy ma’lumot to‘plash;

– aniqlash strategiyasi – birinchi navbatda, ta’lim oluvchilarning rivojlanish va bilim

holatini aniqlash va tavsiflash;

– diagnostik strategiyasi – o‘quvchilarning rivojlanishi va bilimlarining aniqlangan holati sabablarini aniqlashga qaratilgan so‘rov;

bashoratlash strategiyasi – hozirgi imkoniyatlardan kelib chiqib, kelajakda ta’lim oluvchilar bilan o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatini oldindan aytib berish uchun foydalanish.

Musiqa fani o‘qituvchisi har bir sinf o‘quvchilarining yosh psixologik xususiyatlarini shuningdek, sinfdagi har bir o‘quvchining o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini barcha musiqiy faoliyatlarini bajarish jarayonida tahlil qilishi va umumlashtirish asosida belgilashi lozim. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarda inson manaviyatining tarkbiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini shakllantirish musiqa tarbiyasining bosh maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish musiqa o‘qituvchisi va uning kasbiy mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli etnopsixologik xususiyatlar, axloqiy qarashlar, hayotiy e’tiqodlarni rivojlantirishning ta’limiy-didaktik imkoniyatlarini Sharq mumtoz san’at mutafakkirlarining badiiy-estetik tarbiya qarashlariga uyg‘unligini ta’minlash asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanish pedagogik imkoniyatlarini ustoz-shogird an’analari asosida progressiv tahlil etishi lozim.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini sof intonatsiya qobiliyatlarini amaliy va texnikaviy vositalardan foydalanish asosida rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini amaliy kompetensiyalarini va dirijyorlik texnikasini multimedia vositalari orqali egallash jarayonini samaradorligini oshirish yaxshi samara beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining estetik-badiiy didini ijodiy qadriyatlar va mumtoz musiqa san’ati asosida fundamental rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyakubov I.B. Pedagogika tarixi vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish // TDPU Ilmiy axborotlari. – T., 2019. – № 3. – 118-122-betlar. (13.00.00)

2. Matyakubov I.B. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda musiqa o‘quv metodlarining o‘rni // Uzluksiz ta’lim. – № 1. – T., 2021-yil. – 38-41-betlar. (13.00.00)

3. Matyakubov I.B. Baxshichilik san’atida ijodiy merosdan foydalanishning ahamiyati // Pedagogika. – T., 2020. – № 1. –116-122-betlar. (13.00.00)

Nafisa ABDULLAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) dotsent

MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KLASTER TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim sifatini baholash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan. Muallif maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda klaster mexanizmlaridan foydalanish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarini malakasini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash va boshqarish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tarbiyachi-pedagog, tarbiyalanuvchi, klaster, texnologiya, mexanizm, raqobatbardoshlik, boshqaruv.

В статье рассматриваются вопросы оценки качества дошкольного образования, повышения эффективности образовательного процесса дошкольных организаций. Авторы высказали свои мнения и комментарии по использованию кластеров в повышении качества дошкольного образования, повышении квалификации педагогов-воспитателей дошкольных организаций, обеспечении конкурентоспособности и управления.

Ключевые слова. Дошкольное образование, дошкольные организации, воспитатель-воспитатель, воспитатель, кластер, технология, учебная программа, конкурентоспособность, управление.

The article discusses the issues of assessing the quality of preschool education, improving the effectiveness of the educational process of preschool organizations. The authors expressed their opinions and comments on the use of clusters in improving the quality of preschool education, improving the qualifications of teachers-educators of preschool organizations, ensuring competitiveness and management.

Key words. Preschool education, preschool organizations, educator-educator, educator, cluster, technology, curriculum, competitiveness, management.

Maktabgacha ta'lim sifati va uning samaradorligini oshirishdagi pedagogik muammolarni aniqlash tadqiqot vazifalaridan biri ekanligini inobatga olib, dastlab, maktabgacha ta'lim sifatining mazmun-mohiyati, falsafiy-pedagogik tahlili, rivojlanish bosqichlari hamda uning samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv bo'yicha tahlillar olib borish nazarda tutildi. Mavzuni nazariy jihatdan ko'rib chiqishda, ta'lim sifati muammosiga to'xtalib o'tildi va bu, birinchi navbatda, "sifat", "ta'lim sifati", "samaradorlik", "ta'lim sifatini boshqarish" kabi asosiy tushunchalar mohiyatini tahlil qilishni talab qiladi.

Eng qadimgi davrda ta'lim-tarbiyaning maqsadi, sifati, uni takomillashtirish usullari va kutilayotgan natijalari haqida bevosita bizgacha yetib kelgan manbalardan bilish mumkin. Aristotel fikriga ko'ra, sifat ma'lum bir holat, borliqning farqli jihatlari, predmetga xos bo'lgan xususiyatlar, rivojlanayotgan va harakatlanayotgan obyektning joylashish

nuqtalaridan iborat[1]. U predmetlarni bir-biriga o‘xshamaydigan, sifat jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega, deb ta’kidlaydi. Demak, falsafiy talqinda ta’limning eng samarali natijasi inson kamoloti bilan belgilanishi lozim.

Konfutsiy ta’rifiga ko‘ra, ta’limning asosiy maqsadi – shaxsning ma’naviyat, odob-axloq, an’analarni bilishi, qadriyatlar madaniyatiga ega bo‘lishi va Vatanni sevishida o‘z aksini topadi.

Markaziy Osiyoning IX-XII asrlar uyg‘onish davrida ta’lim va uning sifati o‘ziga xos mazmun-mohiyat kasb eta boshlagan. Bu davr namoyandasi Al-Xorazmiy o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchining shaxsiy kuzatishlari va bilimlaridan amalda foydalana olish qobiliyatiga alohida ahamiyat berib, birinchilardan bo‘lib, kuzatish-sinov usuliga asos soladi.

Abu Ali ibn Sino ham o‘qitish jarayoniga muvaffaqiyatli ta’lim usul va mezonlarini taqdim etadi. Jumladan, ta’limda “oddiydan murakkabga”, “pastdan yuqoriga” kabi tamoyillari hisobga olinishi, o‘qitish jarayonida bolaning yosh xususiyatlari, qiziqish va qobiliyati, o‘zlashtirish holatlarga ko‘ra, ta’limning keyingi bosqichiga yo‘naltirish bo‘yicha fikr yuritgan. Olingan bilimlarni og‘zaki ifoda etish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali ta’lim oluvchi olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirishi mumkinligini ta’kidlagan[2]. Ta’lim va uning sifatiga yuqorida keltirilgan qarashlar bu davrning eng muhim nazariy g‘oyalari davlatchilik asoslarida shakllangan komil inson tushunchasi va uning rivojlanishi turli ilm-fan tarmoqlarining birgalikdagi o‘zaro natijasiga asoslanadi, degan xulosa chiqarishimizga imkon berdi.

XIV-XVI asrlarda ta’limga alohida e’tibor berilib, uyg‘onish davri nazariy qarashlari yanada takomillasha borgan. Ta’lim inson kamolotini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur vosita sifatida qaralgan. Yuqori darajada ta’lim xususiyatlarini egallagan shaxs olgan ilmini amaliy faoliyatda samarali foydalanish sari yo‘naltiradi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ilm olib uni ishlatmagan inson urug‘ sochib hosilidan bahra olmagan kishiga qiyoslanadi. Demak, o‘sha davr qarashlari ham bugungi kunda o‘quvchilar bilim olishining talablari, bilim, ko‘nikma va malakalari ta’lim sifati samaradorligini ko‘rsatuvchi asos ekanligini ko‘rsatib bergan.

XVIII asrga kelib ta’lim sifatiga, o‘quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga bo‘lgan munosabatlar o‘zgarib, ta’lim-tarbiyaga nisbatan qarashlar tizimi takomillashgan. Ilm-fanning nazariy va ilmiy tajriba yutuqlari sifatni belgilovchi omil sifatida talqin etila boshlangan. Pedagogika nazariyasining namoyondalaridan chex olimi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida bolaning tabiiy bilish xususiyatini hisobga olgan holda o‘qitishning didaktik tamoyillarini ishlab chiqqan.

Adolf Disterverg ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilimlarini doimiy takrorlab turishning ahamiyatiga to‘xtalib, ta’lim didaktikasining asosiy talablarini ta’limning 33 ta qonun va qoidasi tariqasida bayon qilgan. U boladagi qobiliyatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ta’lim beruvchilarga topshiriq bilan birga uning javobini ham taqdim qilish emas, javobni topishga bolani turli usul va vositalar bilan yo‘naltirish orqali haqiqatni topishga o‘rgatish mumkinligini ta’kidlab o‘tadi. Disterverg taklif qilgan ko‘rsatmali ta’lim “yaqindan uzoqqa”, “oddiydan murakkabga”, “ma’lumdan noma’lumga” o‘tish kerak, degan qoidalarga asoslanadi.

“Ta’lim sifati” tushunchasiga S.Y.Shishov va V.A.Kalneylarning ham bildirgan munosabati e’tiborli bo‘lib, ular “ta’lim sifati – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining erishadigan

[1] Vaxobov M.M. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish // pedagogika fanlari doktori diss. –T., 2016. – 260-b.

[2] Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. Darslik. II-kitob. –T., 2013. –159-160-betlar.

natijalari va maqsadlarining ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatilgan ta’lim xizmatidan qondirilgan darajasi”, deya ta’rif beradi.

Ta’lim sifatiga berilgan ta’riflar ichida V.A.Kachalov tomonidan berilgan izoh alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, ta’limda sifat faqatgina o‘quv jarayoni natijasigina emas, balki ta’lim oluvchilarning umumiy ravishda shaxsiy va jamoaviy rivojlanishini ta’minlaydigan va ularning ehtiyojlarini qondirgan holda ilm-fan, texnologiya, jamiyatning rivojlanishi uchun hissa qo‘shishga imkon beradigan tizim, model, o‘quv jarayonini tashkillashtirishdan iboratdir.

Ta’lim sifati bo‘yicha yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– ta’lim sifati keng qamrovli ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, ta’limning holati va natijalarini aniqlovchi hodisa;

– ta’lim sifati inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig‘indisi;

– ta’lim sifati va undagi o‘qitish maqsadlariga erishishni tashxislashning usullarini aniqlash, o‘zgarishlarni tahlil qilish va samarali usullarni amaliyotga tatbiq qilish dolzarb vazifalardan biri.

Ta’lim sifati bilan bir qatorda ta’lim samaradorligi tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu tushunchalar bir-biridan farq qilib, sifat natijaning maqsadga nisbati bilan belgilansa, samaradorlik esa, natijaning xarajatlarga, sarflangan resurslarga nisbati bilan belgilanadi. Ta’lim sifati samaradorligi tushunchasi, birinchi navbatda, “samaradorlik” tushunchasiga murojaat qilishni talab qiladi. Tadqiqot obyekti bo‘yicha tahlil qilingan adabiyotlarning aksariyatida samaradorlik tushunchasiga to‘xtalganda, uni “unumdorlik” tushunchasi bilan izohlashga harakat qilinganligi aniqlandi.

Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlarning fikricha, “unumdorlik – bu, qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir”. Bu fikrda unumdorlik maktabgacha ta’limni boshqarishga nisbatan bildirilmoqda, unumdorlikka berilgan yuqoridagi izohdan kelib chiqib, ta’lim sifati samaradorligiga ta’lim jarayonidagi unumli boshqaruvni amalga oshirish orqali erishish mumkinligini anglash mumkin. Maktabgacha ta’lim jarayonida sifatli samaradorlik o‘qitish davomida o‘qituvchining maqsadli, yuqori natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv harakatlarida o‘z aksini topadi.

Maktabgacha ta’lim sifati – uning xususiyatlari yaxlitligi, ta’lim oluvchining o‘qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat murakkab jarayondir. Bu borada tadqiqotchi Y.A.Konarjevskiyning ta’lim muassasalarida sifat boshqaruvi inson bilan, birinchi navbatda, o‘qituvchi bilan ishlashdan boshlanadi va kadrlar bilan ishlash, ularning kasbiy darajasini oshirish bilan tugaydi degan fikriga qo‘shilish mumkin. O‘z navbatida sifat boshqaruvi monitoring asosida takomillashib boradi. Maxsus tashkil etilgan, maqsadli monitoring mavjud ma’lumot manbalari, shuningdek, maxsus tashkil etilgan tadqiqot va o‘lchovlar asosida holatni doimiy nazorat va tashxis qilishdir. U ta’lim tizimining holati yoki uning alohida elementlari, shuningdek, tarbiyalanuvchilar va ota-onalarning ta’lim ehtiyojlarini qondirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish tizimidir. Tadqiqotimizda mintaqaviy ta’lim samaradorligini oshirish borasida maktabgacha ta’limga klaster yondashuvini tatbiq qilish tavsiya qilindi. Ta’limni amalga oshirish va uning sifatini boshqarishda tavsiya qilinayotgan klaster yondashuvida fan, ta’lim va ishlab chiqarishning uzviyligini ta’minlash asosiy vazifa ekanligi ta’kidlandi.

Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimining maqsadi ta’lim standarti asosida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda ta’limni tashkil etish va ma’naviy barkamol, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Maktabgacha ta’lim sifati – ta’lim muassasasi darajasiga ko‘ra, quyidagi asosiy mezonlarga ega bo‘ladi:

– tarbiyalanuvchilarning ta’lim-tarbiya va hayotiy ehtiyojlariga muvofiq ravishda o‘qitishni ta’minlaydigan o‘quv-uslubiy dasturlari majmuining mavjudligi;

– maktabgacha ta’lim dasturlari tarkibidagi amaliyotga yo‘naltirilgan qismning kuchli buyurtmachilar talablariga muvofiq kelish darajasi;

– tarbiyalanuvchilarning o‘quv-tarbiya natijalaridan qoniqish darajasi va hokazo.

Tadqiqotda taqdim qilinayotgan mexanizmda ushbu mezonlarning inobatga olinishi nafaqat muassasa darajasida, balki mintaqaviy darajada ham sifatni ta’minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi tamoyillar, mezon va ko‘rsatkichlar orqali ta’lim tashkilotining monitoringi amalga oshiriladi. Buning natijasida esa, maktabgacha ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi salbiy omillar o‘z vaqtida bartaraf etiladi. Kutilayotgan natijalar asosida sifatni ta’minlovchi samarali choralar qo‘llanilib, uning davlat va xalqaro darajadagi talablarga muvofiqligi ta’minlanadi.

Maktabgacha ta’limda klaster yondashuvini tatbiq etish uchun, ta’lim kontekstida klaster sharoitini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Klaster sharoiti esa, barcha ta’lim turlarining umumiy maqsadlari va xususiy manfaatlarini inobatga oladigan hamkorlikdagi o‘quv reja va o‘quv dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ta’lim klasterida iste’molchining asosiy talabi ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturlardagi nazariy bilimlar bilan birga amaliy faoliyatga ham tayyorligi, ta’limning keyingi turi yoki ishlab chiqarishda ishni darhol boshlash va ta’lim tashkilotida olingan bilimlarni muayyan vazifalarda qo‘llay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqot olib borgan S.M.Cherdansev bunday ko‘nikmalar amaliyot davomida shakllantirilishi lozim, bu esa, bir tomondan, professional bilimlarni boyitishga imkon beruvchi ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lsa, boshqa tomondan, kelajakda bo‘lajak mutaxassisning ish faoliyatidagi talablarga javob berishini baholash uchun “sinov muddati” ham bo‘lishi mumkin, degan xulosa beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987-son Farmoni: Toshkent sh., 2020-yil 29-aprel.

2. Vaxobov M.M. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish // pedagogika fanlari doktori diss. –T., 2016. – 260-b.

3. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. Darslik. II-kitob. –T., 2013. –159-160-betlar.

Nargiza MO‘MINOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MA’NAVIY TARBIYA

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni ma’naviy tarbiya ta’limning keyingi bosqichlarida yoshlarni ma’naviy kamoloti haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, ma’naviyat, bola shaxsi, oila, maqollar, dostonlar, xarakter, qobiliyat.

Эта статья про духовное воспитание детей в дошкольной образовательной организации и духовная зрелость молодежи на следующих этапах обучения.

Ключевые слова. Дошкольное воспитание, духовность, личность ребенка, семья, пословицы, былины, характер, способности.

This article is about the spiritual education of children in a preschool educational organization and the spiritual maturity of young people at the next stages of education.

Key words. Preschool education, spirituality, child's personality, family, proverbs, epics, character, abilities.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz “Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” deb ta’kidlab o‘tdilar. Yig‘ilishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari belgilandi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5040 – son qarorida oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish belgilandi.

Ma’naviy tarbiya yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat, millatda jismoniy barqarorlik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayoni[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5040 son qarori www.lex.uz

[2] “Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T.: 2010. 318-b.

Ma’naviy – axloqiy tarbiya bu bolaning shaxsini jamiyatning maqsadlari va g‘oyalariga mos ravishda rivojlanishi bilan pedagogik ta’sir qilish usuli hisoblanadi. Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan ma’naviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatdir.

Ma’lumki, maktabgacha davr ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlikning ortishi bilan tavsiflanadi. Bola bu dunyoga kelib, hamma narsani: muloqot yo‘llari, xatti-harakatlari, munosabatlarini o‘ziga singdiradi, shu maqsadda o‘z kuzatishlari, empirik xulosalari, kattalarga taqlid qilishlaridan foydalanadi va bularni o‘zida sinaydi, oxir-oqibat inson jamiyatda hayotning asosiy normalarini o‘zlashtirish mumkin.

Maktabgacha ta’limda beriladigan ma’naviy tarbiya ta’limning keyingi bosqichlarida yoshlarni ma’naviy kamolotiga zamin hozirlaydi. Maktabgacha ta’limda nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – xarakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e’tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg‘ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy qarashlar, shuningdek, bilimlar, e’tiqodlar va xulq-atvorning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Bolalar hissiyotlidir, shuning uchun ta’lim usullari nafaqat aniq, balki qiziqarli bo‘lishi kerak. Ta’lim samaradorligi bolalarni to‘g‘ri ish qilishga undovchi maxsus vaziyatlar yaratish orqali ta’minlanadi. Bolalar o‘rtasida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan to‘g‘ri munosabatlarni tarbiyalash bu yosh guruhi bilan ishlashda tarbiyachining alohida vazifasidir. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining ma’naviy-axloqiy sohasini shakllantirishda tarbiyachi va uning metodik mahorati katta rol o‘ynaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, ma’naviy fazilatlarni shakllantirish ishlari juda murakkab va uzoq davom yetadigan jarayondir.

Ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishida pedagogik jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki MTTlari tarbiya jarayonida bolani ma’naviyatini shakllantirishga imkon beradi.

Ma’naviyatni shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaymiz:

1. O‘zbek xalq ertaklari, dostonlarda ulug‘langan ma’naviy fazilatlarni targ‘ib qilish;
2. O‘zbek xalqining uzoq tarixga ega an’analari, urf-odatlari namunalaridan foydalanish;
3. Bolalar ma’naviyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi, xalq hunarmandchiligi, amaliy san’at, musiqa va teatr san’atidan foydalanish;
4. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar imkoniyatlaridan keng foydalanish;
5. Bolalarning ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda oilaning hamkorligi va mas’uliyatini oshirish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, bolalar tarbiyasi jamiyatning bo‘lajak fuqarolari dunyoqarashini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Bolajonlarimiz fazilatlarini har taraflama rivojlantirish, birinchi navbatda, ularni mustaqil fikrlovchi, faol fuqaro etib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining samarasini belgilovchi muhim pedagogik masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2021-yil, 20-yanvar № 13-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5040 son qarori www.lex.uz.
3. ‘‘Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T., 2010. –318-b.
4. Qodirov A., Quronov M. “Baxtli bola ma’naviyati” –T., 2018. –43-b.
5. Imomnazarov M. “Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar”. –T.: Sharq –84-b.

Durdona AMANOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI MUSIQA RAHBARLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda musiqa rahbarlarining mashg‘ulotlarga kompetensiyaviy yondashuvi, maktabgacha yoshidan boshlab bolalarning nafosat, estetik dunyoqarashini shakllantirish, musiqiy didini o‘stirish, bolalarga musiqani o‘rgatish jarayonida ohanglar orqali hissiyotga ta’sir eta olish yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, axloq, ertak, pedagog, mashg‘ulot, milliy cholg‘u, qobiliyat, kommunikativlik.

В статье рассказывается о грамотном подходе музыкальных руководителей к обучению в дошкольных организациях образования, формировании утонченности и эстетического мировоззрения детей с дошкольного возраста, развитии музыкального вкуса, умении воздействовать на эмоции мелодиями в процессе обучения детей музыке. .

Ключевые слова. Музыка, нравственность, сказка, педагог, обучение, народный инструмент, умение, общение.

The article tells about the competent approach of musical leaders to teaching in preschool educational institutions, the formation of sophistication and aesthetic worldview of children from preschool age, the development of musical taste, the ability to influence emotions with melodies in the process of teaching children music.

Key words. Music, morality, fairy tale, teacher, education, folk instrument, skill, communication.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning estetik axloqiy va kommunikativ sifatlarini shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda musiqa mashg‘ulotlarining, tarbiyachilarning odob-axloqqa doir kreativ mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaviy yondashuv har taraflama bola shaxsida chuqur ahamiyatga ega.

Kompetensiyaviy yondashuv mazmunida tarbiyalanuvchilarning individual faoliyatlari rag‘batlantiriladi, egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga ko‘maklashiladi. Mustaqil raqsga tushish, qo‘shiq kuylash, sahnada o‘zini tuta olishi, bolalar cholg‘ularida chala olishi shular jumlasidandir. Bolalar ushbu bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish orqali yanada mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar.

Kompetensiyaviy yondashuv natijasida amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Bilimlar esa ushbu ko‘nikma va malakalarning asosini tashkil qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri o‘quv materiallari sermahsulligini ta’minlashdan iborat. Bunda bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Musiqa mashg‘ulotlari oldiga qo‘yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga

oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o‘stirib borish lozim. Bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

– musiqiy uquvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati);

– tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);

– ritm tuyg‘usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash).

Bolalarning musiqiy qobiliyatlari musiqiy mashg‘ulotlarning barcha faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlantirib boriladi. Kasbiy kompetensiyaga ega musiqa rahbari mashg’ulotlarni quyidagi asosiy vazifalar asosida amalga oshiradi:

– kichkintoylarni musiqaga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish;

– musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg‘ularni hosil qilish yo‘li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;

– bolalarni musiqa tinglash, qo‘shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;

– bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo‘shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o‘rgatish va odatlantirish;

– musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish;

– musiqa mashg‘ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o‘yin va raqs shaklida ifoda etishga o‘rgatish;

– musiqa mashg‘ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg‘ularimiz jo‘rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o‘rgatish;

– musiqa mashg‘ulotlari mazmunini maktabgacha ta’lim hayoti bilan bog‘lash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan bayram ertaliklarida o‘rganilgan kuy va qo‘shiqlar bilan ishtirok etish. Guruhlarda sahnaviy ertaliklar, kichik konsertlar tashkil etadi.

Kasbiy kompetensiyaga ega musiqa rahbari musiqa mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo‘lgan, bolalarning yosh xususiyatlarini yaxshi biladigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta oladigan, tegishli ma’lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy tajribaga ega bo‘lgan pedagog shaxs hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan musiqa rahbarining vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo‘lgan qiziquvchanligini rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o‘z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirishi hamda ularni kuzatishdan iborat. Shunda bolalarda ishtiyoqning ortib borayotganligini, intilishning o‘sayotganligini his etish va kelajakda bilimli, ijodkor kishilar bo‘lish uchun bolalar qanday o‘zaro muloqot qilayotganliklari, kelishayotganliklari, izlanayotganliklari, tanlayotganliklari va bilim hamda ko‘nikmalarni egallayotganliklarini kuzatish mumkin. Kasbiy kompetensiyaga ega musiqa rahbari bolalarga ta’lim va tarbiya berishi, pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularni Vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashi, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturini bajarishi, o‘z malakasini oshirishi, o‘z kasbiy ko‘nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu vazifalarni bajarish musiqa rahbarining kasbiy kompetentlik darajasini belgilaydi.

Musiqa rahbarlari kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi uchun eng avvalo, malakali,

qobiliyatli va uddaburon bo‘lishi muhim. Musiqa rahbari o‘z mutaxassisligi borasida puxta va chuqur ma’lumotga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinmay izlanishi lozim. Bundan tashqari, psixologiya va pedagogika fanlari asosini mukammal bilishi, tarbiya hamda ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z ishini tashkil etishi lozim. Musiqa rahbarlari doimiy ravishda ijodiy jarayonga tayyorlab boriladi. Shu bilan birga pedagog sifatida nazorat qila olishlari ham muhim sanaladi. Musiqa rahbari ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali uslub, shakl va vositalardan samarali foydalana olish imkoniga ega bo‘lishi, tashabbuskor, ijodkor hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbari o‘z mutaxassisligi borasida puxta va chuqur ma’lumotga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinmay izlanishi lozim. U psixologiya va pedagogika fanlari asosini mukammal bilishi, tarbiya hamda ta’lim jarayonida bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z ishini tashkil etishi lozim. Musiqa rahbarlari doimiy ravishda ijodiy jarayonda faoliyat olib boradilar. Shu bilan birga o’zlarini pedagog sifatida nazorat qila olishlari ham muhim sanaladi.

V.L.Jivov o‘zining “Хоровое исполнительство: Теория. Методика. Практика” nomli o‘quv qo‘llanmasida zamonaviy pedagogik ilm pedagogik xususiyatlar sifatida quyidagilarni keltiradi:

1. Didaktik xususiyatlar. Bu xususiyatlar umumiy o‘quv ta’limi qoidalarini hisobga olgan holda ta’lim oluvchiga bilim berish, amaliy ko‘nikmalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi;

2. Konstruktiv xususiyatlar pedagogik amaliyotning natijalarini va ta’lim oluvchining turli vaziyatlarda harakatini oldindan ko‘ra bilishga yordam beradi, bu esa ta’lim oluvchining shaxsini shakllantirishda qo‘l keladi;

3. Perseptiv xususiyatlar, ya’ni bolaning psixologiyasi, uning psixologik holatini tushunish va to‘g‘ri qabul qilish xususiyati;

4. Ekspressiv xususiyatlar, o‘zining fikrini, bilimini, hissiyot va ishonchini nutq, mimika va pantomimika yordamida tashqariga namoyon qilish;

5. Kommunikativ xususiyatlar, auditoriya bilan to‘g‘ri munosabatlarni (pedagogik takt, individual va yoshga doir xususiyatlarni inobatga olish) yo‘lga qo‘yish.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish yo‘lida, aynan mana shu xususiyatlarni inobatga olish muhim sanaladi. Bu xususiyatlarning har birini tahlil qilib chiqsak. Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari uchun didaktik xususiyatlar juda muhim sanaladi. Bolalarga berilayotgan ta’lim va tarbiya ularning yoshi, qabul qilish xususiyati, amaliyotga tatbiq eta olish imkoniyatlari bilan mos kelishi kerak. Ta’lim-tarbiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ya’ni, bolaning avvalgi olgan bilimlari, yoshi, qabul qilishidan kelib chiqqan holda albatta. Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari esa mana shu jihatlarni hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil qila olishi lozim, oldindan ko‘ra bilish xususiyati esa tarbiyalanuvchilarning yanada ko‘proq bilim olish imkoniyatini oshiradi. Ulardagi yangi qirralarni kashf qilish, ta’lim oluvchini zo‘riqtirib qo‘ymaslik, mashg’ulotga yanada qiziqtirish, ishtiyoqini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbari mahoratli pedagog sifatida shakllanishni istasa, albatta chiroyli nutqqa ega bo‘lishi muhim sanaladi. Nutqning ravon bo‘lishiga esa vaqt davomida erishiladi. Maxsus mashqlar, muntazam mashg‘ulotlar, ko‘p kitob o‘qish albatta, nutqning o‘sishiga imkon beradi. Tarbiyalanuvchilar bilan muloqot jarayonida pedagogning yuz ifodasi ham muhim. Pedagogning har bir harakati, so‘zlagan nutqi,

imo-ishorasi bolaning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Musiqa rahbarlari aynan mana shu jihatlarni inobatga olishlari foydadan holi bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari uchun o‘zgalar bilan, ayniqsa, bolalar bilan qulay muloqotga kirisha olishi ahamiyatlidir. Pedagog va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi munosabatning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bolaning fanga bo‘lgan qiziqishining ortishiga, o‘zlashtirishining osonlashishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbari yuksak darajadagi pedagogik mahorat, ayniqsa, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika qoidalari sanalgan nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, imo ishora, temporitmikani chuqur o‘zlashtirib olishlari lozim.

Musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida albatta ularning nutqidagi talaffuziga ham alohida e’tibor qaratish muhim. “So‘zlar va harflarning aniq va tiniq talaffuzi ijro jarayonida juda muhim omillardan sanaladi. Artikulyatsion apparatning egiluvchanligini shakllantirish kuylash uchun juda zarur”. Musiqa rahbari tarbiyalanuvchilarga mashg‘ulot o‘tish jarayonida nafaqat so‘zlaydi, balki o‘rganilajak asarni zarur bo‘lsa ijro etib ham bera olishi lozim. Tarbiyalanuvchining o‘rganishi uchun ijro etib berar ekan, u musiqa rahbarining har bir harakatini kuzatib turadi, nutqiga, talaffuziga e’tibor beradi va eshituv hamda ko‘ruv xotirasi yordamida eslab qoladi. Bu jarayonda pedagog tomonidan yo‘l qo‘yilgan kichik xato ham asarning keyinchalik bola tomonidan noto‘g‘ri ijro etishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonida ularda musiqani tinglashning intonatsion faolligini ham rivojlantirishga e’tibor berish muhim sanaladi. Buning uchun albatta bugungi kunda yaratilgan bir qancha kompyuter texnologiyalar, raqamli dasturlardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbari nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan boshqalarga ibrat bo‘lishi hamda pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi kerak. Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, yuksak pedagogik tafakkur, uslubiy bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda yangiliklardan xabardor bo‘lish, pedagogik bilimlarni oshirib borish, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida tarkib topadi.

Pedagogik faoliyatda ikkinchi darajali narsaning o‘zi yo‘q – unda hamma narsa, hatto eng arzimasdek tuyulgan tafsilotlar ham muhim. Pedagog, avvalo, nima uchun bu kasbni tanlaganini teran anglamog‘i, insonlarni qanday tarbiyalash kerakligini tushunib yetmog‘i kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovigina bo‘lib qolmasdan, ayni vaqtda pedagogning jamoadagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, bolalarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan munosabatda yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori. –T., 2020-y.

2. Matyakubov I.B. “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish”. Dissertatsiya. –T., 2021-y.

Zamira JUMANOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHILARNING VAZIFALARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini shakllantirishda pedagoglarning tutgan o‘rni, tarbiyachilarning vazifalari, ularga qo‘yilgan talablar haqida ma’lumotlar beriladi. Kattalarning pedagogik ta’sirlari, tarbiyachining bilimdonligi, qobiliyati va pedagogik mahorati masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yoshdagi bola, pedagog, tarbiyachi, bilim, malaka, mahorat, talablar, vazifa, tarbiyalash, nutq, axloqiy sifat, ta’sir vositalari.

В статье представлена информация о роли педагогов в формировании мышления у дошкольников, роли воспитателей, требованиях к ним. Рассмотрены вопросы педагогического воздействия взрослых, знаний, умений и педагогического мастерства воспитателя.

Ключевые слова. Дошкольник, педагог, воспитатель, знания, навыки, умения, требования, задача, воспитание, речь, нравственные качества, средства воздействия.

The article provides information about the role of teachers in the formation of thinking in preschoolers, the role of educators, the requirements for them. The issues of the pedagogical influence of adults, knowledge, skills and pedagogical skills of the educator are considered.

Key words. Preschooler, teacher, educator, knowledge, skills, abilities, requirements, task, education, speech, moral qualities, means of influence.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, ta’lim va tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o‘rtoqlarining o‘sishiga ko‘maklashishga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish, ijtimoiy faol bo‘lish, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi kerak. Uning pedagogik hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Respublikamiz rahbariyati o‘qituvchilar va tarbiyachilar faoliyatini yuqori baholamoqda. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, o‘qituvchilik, tarbiyachilik ishidagi ijodiy mehnatlari, ilg‘or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar “Metodist o‘qituvchi”, “Katta o‘qituvchi”, “Xalq ta’limi a’lochisi”, “Metodist – tarbiyachi” va boshqa shunga o‘xshash unvonlar bilan taqdirlanadilar. Ularga respublika miqyosidagi unvonlar beriladi.

Jamiyatimiz hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda bog‘chada, maktabda, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida shakllanayotgan yosh avlod ijodiy xulq-atvor normalari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini kasb-hunar, malaka va ko‘nikmalarni har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi.

Davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan bu muhim vazifani amalga oshirishda uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Shuning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachiga bog‘liq.

Doimo o‘zini tarbiyalash bilan, tarbiya ilmi va san’atini egallash bilan shug‘ullanadigan tarbiyachigina haqiqiy tarbiyachi bo‘la oladi. Bu borada allomalardan biri “Bolani tarbiyalash tarbiyachining o‘z-o‘zini takomillashtirishidan boshqa narsa emas”, degan edi. Biz shuni esdan chiqarmasligimiz kerakki, tarbiya obyekti bo‘lgan bola uzluksiz o‘sadi, yildan-yilga tarbiya sharoitlari o‘zgaradi, bularning hammasi tarbiya ishida murakkab vazifalar yaratadi, bu esa tarbiyachidan ijodiy yondashishni talab etadi.

Tarbiyachining o‘ziga talabchanligi, o‘zining har bir xatti-harakatini nazorat qilib bora olishni davlatimiz maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga qo‘ygan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi:

– bolaning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash;

– aqliy qobiliyatlarini o‘stirish;

– jamiyatimizning, milliy madaniyatimizning g‘oyaviy-axloqiy tamoyillariga mos keluvchi e’tiqod va qarashlarni tarkib toptirish;
